

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.7 (575.1)**

GADOYEV SO‘HROB JUMAKULOVICH

**O‘ZBEKISTONDA KREDIT MEXANIZMINING METODOLOGIK VA
AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)
ilmiy darajasini olish uchun
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi: Bobakulov Tulkin Ibodullayevich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Termiz shahri – 2023-yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-BOB	KREDIT MEXANIZMINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	14
1.1-§	Kredit mexanizmi va uni takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	14
1.2-§	Kredit mexanizmining elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari	25
1.3-§	Kredit mexanizmining metodologik asoslari	33
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	44
2-BOB	KREDIT MEXANIZMINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTON BANK AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	48
2.1-§	Kredit mexanizmining zamonaviy holati.....	48
2.2-§	Kredit riskini baholash borasidagi ilg'or xorij tajribasi..	56
2.3-§	Kreditlarning resurs ta'minotini shakllantirish borasidagi ilg'or xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati.....	66
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	75
3-BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KREDIT MEXANIZMINING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	81
3.1-§	Kredit mexanizmining metodologik asoslari.....	81
3.2-§	Tijorat banklari kreditlarining tarkibi, dinamikasi, daromadliligi va kredit riskini boshqarish amaliyoti.....	90
3.3-§	Kredit mexanizmiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	101
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	116
4-BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KREDIT MEXANIZMINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	120
4.1-§	Kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.....	120
4.2-§	Kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	134
	To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar.....	146
	XULOSA.....	151
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	158
	ILOVALAR.....	170

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida global raqobatlashuv jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda bank tizimi rolini oshirishning zaruriy sharti sifatida kredit mexanizmining ahamiyati oshib bormoqda. Shu sababli, taraqqiy etgan mamlakatlarda kredit mexanizmini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “«Deutsche Bank»da (GFR) 2022 yilda 2021 yilga nisbatan kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 0,6 foizli punktga oshgani holda, ularning daromadlilik darajasi 0,7 foizli punktga oshdi. «Bank of Amerisa» (AQSh) bankida, 2023 yilning 1 yanvar holatiga, kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 0,1 foizni tashkil qildi”¹. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish borasidagi ilg'or xorij tajribasini tadqiq qilish va uning amaliy ahamiyatiga baho berish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo miqyosida bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblangan kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tijorat banklari kreditlarining daromadliliigi va riskliliigi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, kredit riskini baholash va boshqarish amaliyotini takomillashtirish, kreditlar baholarini barqarorligiga erishish, kreditlarning resurs ta'minotini mustahkamlash, tijorat banklarining kreditlash faoliyatini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish, kredit oluvchilarning defolt riskini baholash aniqligini oshirish, banklarning kreditlash faoliyatini innovatsiyalar asosida rivojlantirish, kredit mexanizmining elementlari va ular o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash, kreditlarning daromadliliigi va riskliliigi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, banklar kredit mexanizmining likvidlilik riskiga ta'sirchanlik darajasini pasaytirish, moliyaviy inqirozlar davrida kapitalning yetarlilik darajasini kreditlardan ko'riladigan zararlarga nisbatan monandligini ta'minlash, banklar faoliyatini stress-

¹ «Deutsche Bank». Annual report 2022//(<https://investor-relations.db.com/reports-and-events/annual-reports/>); «Bank of Amerisa». Annual report 2022//(<https://investor.bankofamerica.com/annual-reports-and-proxy-statements>).

testlash amaliyotini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida barqaror hamda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda moliyaviy sohadagi islohotlar tarkibida bank tizimi, jumladan kreditlash jarayonlarining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda bank tizimini isloh qilishning 2020-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasida "kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, kredit portfelini va bank risklarini boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, moliyaviy risklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish"² bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan. Bu boradagi vazifalarni samarali amalga oshirish kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish, jumladan, tijorat banklarining daromad keltirmaydigan aktivlarining jami aktivlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish orqali ularning kreditlar berish imkoniyatini kengaytirish, muvozanatlashgan foiz stavkasini aniqlashning standart usulidan foydalanish, sof foizli spread ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish, tayanch stavkaning ssuda kapitallari bozorida banklararo stavkaga ta'sirini kuchaytirish, kreditlar va jalb qilingan resurslarning miqdorlari o'rtasida muddatli mutanosiblikni ta'minlash, kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish va muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, tijorat banklari kreditlari hajmini o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik tahlil natijalariga asoslangan o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.

mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 21 maydagi PQ-4325-son «Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Kredit mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (AQSh), Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi (AQSh), Kolumbiya universiteti (Columbia University, AQSh), Bonn universiteti (University of Bonn, Germaniya), Sorbonna universiteti (University of Paris Sorbonne,

³ Frederic S. Mishkin and Klaus SchmidtHebbel, *Monetary Policy Under Inflation Targeting* (Central Bank of Chile: Santiago 2007), pp. 291-372.; Berger A. N., Demirgüç-Kunt A. *Banking Research in the Time of COVID-19* // *Journal of Financial Stability*. – 2021. – Vol. 57. – Article 100939. doi: 10.1016/j.jfs.2021.100939.; Acharya V., Steffen S. *The Risk of Being a Fallen Angel and the Corporate Dash for Cash in the Midst of COVID* // *Review of Corporate Finance Studies*. – 2020. – Vol. 9(3). – pp. 430–471. doi: 10.1093/rcfs/cfaa013.; Büyükkarabacak B., Krause S. *Studying the Effects of Household and Firm Credit on the Trade Balance: The Composition of Funds Matters* // *Economic Inquiry*. – 2009. – Vol. 47(4). – pp. 653–666. doi: 10.1111/j.1465-7295.2008.00173.x.; Léon F. *Convergence of Credit Structure around the World* // *Economic Modelling*. – 2018. – Vol. 68. – pp. 306–317. doi: 10.1016/j.econmod.2017.07.021.; Penikas H. *History of the Basel Internal-Ratings-Based (IRB) Credit Risk Regulation* // *Model Assisted Statistics and Applications*. – 2020a. – Vol. 15(1). – pp. 81–98. doi: 10.3233/MAS-190480.; Lozinskaia A., Merikas A., Merika A., Penikas H. *Determinants of the Probability of Default: The Case of the Internationally Listed Shipping Corporations* // *Maritime Policy and Management*. – 2017. – Vol. 44(7). – pp. 837–858. doi: 10.1080/03088839.2017.1345018. Lando D., Skodeberg T. *Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations*//*Journal of Banking and Finance*. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.; Wei L., Yuan Z. *The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion*//*Insurance: Mathematics and Economics*. – 2016. – Vol. 66. – pp. 113 -123.; Tasche D. *Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios*//*Journal of Risk Management in Financial Institutions*. – 2013. – Vol. 6(3). – pp. 302–326.; *Российская экономика в 2022 году. Тенденции и перспективы. (Вып. 44)* / [Под науч. ред. д-ра экон. наук Кудрина А.Л., д-ра экон. наук Мау В.А., д-ра экон. наук Радыгина А.Д., д-ра экон. наук Синельникова-Мурлыева С.Г.]; Институт Гайдара. – Москва: Изд-во Института Гайдара, 2023. – 556 с.

Frantsiya), Oksford universiteti (Oxford University, Buyuk Britaniya), Ye.Gaydar nomidagi Iqtisodiy siyosat instituti (Institut ekonomicheskoy politiki imeni Ye.Gaydara, Rossiya) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Kredit mexanizmini takomillashtirish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: tijorat banklari kreditlarining YaIMga nisbatan darajasi 60 foizga yetganda, kreditlarning yillik o'sish sur'atini 30 foizdan oshishi moliyaviy inqirozga olib kelishi asoslab berilgan (Xalqaro valyuta jamg'armasi, AQSh), tijorat banklari kreditlarining emission mazmunga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan (Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi, AQSh), tijorat banklarining kreditlash amaliyotini prudentsial nazorat ob'ektiga aylantirishning zarurligi asoslangan; (Columbia University, AQSh); reytinglar o'rtasidagi o'tish matritsalarini (migratsiya matritsalarini) va ular asosida ekstrapolyatsiyalarni baholash yuqori reytingli kredit portfelli uchun, shu jumladan, past defoltli kredit portfelli uchun defolt maqomiga o'tishni aniq baholash imkonini berishi isbotlangan (University of Bonn, Germaniya), ssudalar bo'yicha defolt (Loss Given Default, LGD) sharoitida yo'qotishlar ulushini aniqlash uchun chegaraviy taqsimotni tuzish taklif qilingan (Oxford University, Buyuk Britaniya), defoltni aniqlashda Bazel qo'mitasining muddati o'tgan kreditlar bo'yicha prudentsial me'yorlariga mos keluvchi 90 kun va undan muddatdagi muddati o'tgan qarzdorlikni asos sifatida olish defoltning 3-5 yilga kechiktirishi asoslab berilgan (University of Paris Sorbonne, Frantsiya), kredit riskini baholash bo'yicha "standartlashgan yondashuv"ni bank amaliyotiga joriy etish va stress-testlashni takomillashtirish yo'li bilan kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish taklifi asoslangan (Institut ekonomicheskoy politiki imeni Ye.Gaydara, Rossiya).

Hozirgi davrda dunyodagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va nufuzli oliy o'quv yurtlari tomonidan kredit mexanizmining elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlash, kredit riskini baholash va boshqarishni takomillashtirish, kredit oluvchilarning to'lovga layoqatliligini baholash aniqligini oshirish, kreditlarning daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi mutanosiblikni

ta'minlash, kreditlarning resurs ta'minotini mustahkamlash, tijorat banklarining milliy va xalqaro ssuda kapitallari bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash, kreditlash shakllaridan kompleks foydalanish, banklarning kreditlash faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning salbiy ta'sirini neytrallashtirish, innovatsion kredit mahsulotlarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini, shu jumladan, sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar – “E.Altman, J.Sinki, M.Ermolova, H.Penikas, A.Mogilat, O.Lavrushin, N.Sokolinskaya, A.Burova, S.Popova, P.Pompe, J.Bilderbeek, D.Fantazzini, S.Figini, P.Vozella, G.Gabbi, P.Andrikopoulos, A.Xorasgani, J.Gupta, K.Totmyanina, D.Sushko, N.Valentseva, Ye.Litvinov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan”⁴.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan “Sh.Abdullaeva, B.Berdiyarov, D.Saidov, F.Dodiev, Sh.Mirziyoev, J.Majidov, F.Xolmamatov, U.Tuxtabaev,

⁴ Altman E. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23(4). – P. 589–609.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 485 - 486.; Ermolova M., Penikas H. PD-LGD Correlation Study: Evidence from the Russian Corporate Bond Market//Model Assisted Statistics and Applications. – 2017. – Vol. 12(4). – P. 335–358.; Могилат А. Н. Оценка финансовой устойчивости российских промышленных компаний, или О чем говорят банкротства//Вопросы экономики. – 2019. – № 3. – С. 101–118. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования. - М.: КНОРУС, 2008. - 264 с.; Соколинская Н.Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях//Банковское дело. – Москва, 1999. - №9. – С. 18-19.; Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.; Бурова А., Пеникас Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска//Деньги и кредит. – Москва, 2021. – № 3. – С. 49-72.; Pompe P., Bilderbeek J. The Prediction of Bankruptcy of Small- and Medium-Sized Industrial Firms//Journal of Business Venturing. – 2005. – Vol. 20(6). – P. 847–868.; Fantazzini D., Figini S. Random Survival Forests Models for SME Credit Risk Measurement//Methodology and Computing in Applied Probability. – 2009. – Vol. 11(1). – P. 29–45.; Vozzella P., Gabbi G. Default and Asset Correlation: An Empirical Study for Italian SMEs. – 2010. URL: <https://ssrn.com/abstract=1532222>.; Andrikopoulos P., Khorasgani A. Predicting Unlisted SMEs' Default: Incorporating Market Information on Accounting-Based Models for Improved//British Accounting Review. – 2018. – Vol. 50(5). – P. 559–573.; Gupta J., Barzotto M., Khorasgani A. Does Size Matter in Predicting SMEs Failure?//International Journal of Finance and Economics. – 2018. – Vol. 23(4). – P. 571–605.; Тотьмянина К. Моделирование вероятности дефолта корпоративных заемщиков с учетом макроэкономической конъюнктуры//Корпоративные финансы. – 2014. – Т. 8. – № 1. – С. 18–30.; Surzhko D. Approach for Multi-Period PD Calibration for LDP Portfolios. – 2014. URL: <http://vixra.org/pdf/1404.0001v1.pdf>.; Валенцева Н.И. Ценообразование на рынке банковских услуг//Банковское дело. – Москва, 2013. – №11. – С. 37-44.; Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – 148 с.

J.Isakov, I.Alimardonov, S.Gadoyev va boshqalarning ilmiy ishlarida bank kredit mexanizmining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan”⁵.

Biroq, o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan kredit mexanizmini takomillashtirish masalasi alohida dissertatsion tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O'zbekistonda moliya-kredit tizimini rivojlantirishning kontseptual masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kredit mexanizmining nazariy asoslarini tadqiq qilish va ularning amaliy ahamiyatiga baho berish;

kredit mexanizmining elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni tadqiq qilish;

kredit mexanizmining metodologik asoslarini qiyosiy tahlil qilish;

kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish borasidagi ilg'or xorij tajribasini tahlil qilish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslab berish;

⁵ Абдуллаева Ш.С. Банк иши: Дарслик; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2017. – 732 б.; Бердияров Б.Т. Пандемия шароитида юзага келган инқирознинг тижорат банкларининг ликвидлигига таъсири//Молия ва банк иши. – Тошкент, 2020. – №2. – Б. 26-30.; Саидов Д.А. Тижорат банкларининг қисқа муллатли кредитлаш амалиёти ва уни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф.- Тошкент, 2008. – 20 б.; Додиев Ф.У. Пост пандемия шароитида банклар инвестиция фаолиятини ривожлантириш//Молия ва банк иши. – Тошкент, 2020. – №2. – Б. 36-41.; Мирзиёев Ш.М.. Банклар энди «ўз аравасини ўзи тортиши керак//<https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075>.; Мажидов Ж.К. Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш йўллари. И.ф.б. ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 54 б.; Холмаматов Ф.К. Тижорат банкларининг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.б. ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 56 б.; Тухтабаев У.А. Муаммоли кредитлар ва уларни бартараф этиш йўллари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 17 б.; Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 79 б.; Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2018 – 61 б.; Гадоев С.Ж. Тижорат банкларида ликвидлик рискинни бошқаришни такомиллаштириш.И.ф.б.ф.д. дисс. автореф. – 47 б.

O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmining zamonaviy holatini tahlil qilish va mavjud tendentsiyalarni aniqlash;

mamlakat kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

respublikada kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasining aktsiyadorlik tijorat banklari – O'z sanoatqurilishbank, Asakabank, va xorijiy banklar – «Deutsche Bank» (Germaniya), «Bank of America» (AQSh) olingan.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarni kreditlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida ilmiy abstraktsiya, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

banklarning daromad keltirmaydigan aktivlarining jami aktivlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish orqali tijorat banklarining kredit berish imkoniyatini kengaytirishda transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish ($S_{TD/BD}=0,17$), muddatsiz depozitlarni yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish ($I_{QQ}=0,35$), sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ($MD_{SFM}=0,48$) o'rtasidagi nisbatlar asoslangan;

muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish yo'li bilan kreditlar va depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, muvozanatlashgan foiz stavkasini aniqlash, sof foizli spread ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish, tayanch stavkaning ssuda kapitallari bozorida banklararo stavkaga ta'sirini kuchaytirish taklifi asoslangan;

tijorat banklari aktivlari va majburiyatlari tarkibini takomillashtirish orqali kreditlarining samaradorligini ta'minlash maqsadida kreditlar va jalb qilingan resurslarning miqdorlari o'rtasida muddatli mutanosiblikni ta'minlash, kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish va muddatli

depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasiga erishish asoslangan;

tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini ta'minlash hamda transaksion depozitlarning kamaymaydigan qoldig'ini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yo'li bilan mazkur qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining banklar majburiyatlari hajmidagi salmog'ini oshirish taklifi asoslangan;

ATB «O'zsanoatqurilishbank» tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilayotgan kreditlarning o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida 2025 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kredit mexanizmini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning amaliy ahamiyati asoslab berilgan;

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholash aniqligini oshirish imkoniyatlari taklif qilingan;

innovatsion kredit mahsulotlarini (forfeyting, kontokorrent, overdraft, revolverli kredit) kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kredit mexanizmining samaradorligini oshirish yo'llari taklif qilingan;

kredit mexanizmiga ta'sir etuvchi asosiy omillarning ta'sir darajalari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni kredit mexanizmining kreditlashning ilmiy-nazariy asoslarining tadqiqiga, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, mamlakat va xorij tijorat banklarining faoliyatiga oid bo'lgan amaliy ma'lumotlarning tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan nazariy ahamiyatdagi xulosa va takliflardan kelgusida mamlakatning kredit tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan

ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan amaliy ahamiyatdagi xulosa va takliflardan mamlakat tijorat banklari kredit mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, mazkur soha rivojiga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni shakllantirish, oliy o'quv yurtlarida bank ishi va kredit bo'yicha o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quv, o'quv-uslubiy hamda amaliy materiallarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

banklarning daromad keltirmaydigan aktivlarining jami aktivlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish orqali tijorat banklarining kredit berish imkoniyatini kengaytirishda transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish ($S_{TD/BD}=0,17$), muddatsiz depozitlarni yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish ($I_{QQ}=0,35$), sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash ($MD_{SFM}=0,48$) o'rtasidagi nisbatlardan foydalanish taklifi ATB «O'zsanoatqurilishbank» amaliyotiga joriy qilingan (ATB «O'zsanoatqurilishbank»ning 2023 yil 26 iyuldagi 29-06/01 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ATB «O'zsanoatqurilishbank»da daromad keltirmaydigan likvidli aktivlarning jami aktivlar hajmidagi salmog'i 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 4,0 foizli punktga pasaytirish imkoni yaratilgan;

muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish yo'li bilan kreditlar va depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, muvozanatlashgan foiz stavkasini aniqlash, sof foizli spread ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish, tayanch stavkaning ssuda kapitallari bozorida banklararo stavkaga ta'sirini kuchaytirish taklifi ATB «O'zsanoatqurilishbank» amaliyotiga joriy qilingan (ATB «O'zsanoatqurilishbank»ning 2023 yil 26 iyuldagi

29-06/01 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ATB «O'zsanoatqurilishbank»da 1 so'mlik kredit quyilmasiga to'g'ri keladigan daromadlilik darajasini 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 0,3 foizli punktga oshirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklari aktivlari va majburiyatlari tarkibini takomillashtirish orqali kreditlarining samaradorligini ta'minlash maqsadida kreditlar va jalb qilingan resurslarning miqdorlari o'rtasida muddatli mutanosiblikni ta'minlash, kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish va muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasiga erishish taklifi ATB «O'zsanoatqurilishbank» amaliyotiga joriy qilingan (ATB «O'zsanoatqurilishbank»ning 2023 yil 26 iyuldagi 29-06/01 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ATB «O'zsanoatqurilishbank»da 2022 yilda 2021 yilga nisbatan kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 0,3 foizli punktga oshgani holda, muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini 3,2 foizli punktga oshirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini ta'minlash hamda transaksion depozitlarning kamaymaydigan qoldig'ini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yo'li bilan mazkur qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining banklar majburiyatlari hajmidagi salmog'ini oshirish taklifi ATB «O'zsanoatqurilishbank» amaliyotiga joriy qilingan (ATB «O'zsanoatqurilishbank»ning 2023 yil 26 iyuldagi 29-06/01 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ATB «O'zsanoatqurilishbank»da 2022 yilda 2021 yilga nisbatan barqaror passivlar summasi 11,8 foizga oshgani holda, kredit quyilmalarining o'sish sur'ati 13,8 foizni tashkil etishi imkoni yaratilgan;

ATB «O'zsanoatqurilishbank» tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilayotgan kreditlarning o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida 2025 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari

ATB «O'zsanoatqurilishbank» amaliyotiga joriy qilingan (ATB «O'zsanoatqurilishbank»ning 2023 yil 26 iyuldagi 29-06/01 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2013-2021 yillar oralig'ida ATB «O'zsanoatqurilishbank» ajratilgan kreditlari hajmi o'rtacha 19102,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich prognoz davrida (2023-2025 yillarning choraklari bo'yicha) o'rtacha 52039,81 mlrd. so'mni tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 12 ta ilmiy maqola, jumladan 3 tasi xorijiy va 9 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkiban kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. KREDIT MEXANIZMINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1 – §. Kredit mexanizmi va uni takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar

Iqtisodiy adabiyotda kredit mexanizmining mohiyati, elementlari va uni takomillashtirish masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan va tegishli xulosalar, amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

T.Kosterinaning fikriga ko‘ra, “kredit mexanizmi kredit munosabatlarini amalga oshirish mexanizmi bo‘lib, kredit munosabatlarining subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘zida aks ettiradi va kredit tizimining ma’lum bir tarixiy, milliy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi amal qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi”⁶.

T.Kosterinaning fikridan aniq ko‘rinadiki, “kredit mexanizmi kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasidagi aloqadorlikni aks ettiradi. Haqiqatdan ham, kredit mexanizmining harakatlanishi jarayonida nafaqat kredit beruvchi va kredit oluvchi o‘rtasidagi aloqadorlik, balki, kredit institutlari bilan ular faoliyatini nazorat qiluvchi organlar o‘rtasidagi, kredit institutlari bilan infratuzilma obyektlari o‘rtasidagi aloqadorlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa, kredit mexanizmiga berilgan ushbu ta’rifni amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi”.

A.Rodnina “kredit mexanizmini tarkibiy-funksional yondashuv va kreditning doiraviy aylanishi talqini nuqtai-nazaridan qaraydi va unga quyidagicha ta’rif beradi: kredit mexanizmi – bu kredit munosabatlari ishtirokchilarining o‘zaro kelishilgan manfaatlari bo‘lib, o‘zida ham ssuda kapitalining harakati maqsadlarini, ham kreditning rag‘batlari va transformatsiyasini aks ettiruvchi o‘zaro aloqalar va munosabatlar tizimi shaklida namoyon bo‘ladi”⁷.

⁶ Костерина Т.М. Банковский кредитный механизм: основные тенденции развития // Вестник ТвГУ. Серия «Экономика и управление». 2014. № 23. С. 191–196.

⁷ Роднина А.Ю. К вопросу о взаимосвязи кредита как кругооборотного процесса со структурно-функциональным под-ходом к определению кредитного механизма // Многоуровневое общественное воспроизводство: вопросы теории и практики. 2013. № 5. С. 237–247.

A.Rodnining mazkur xulosasi amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, birinchidan, kredit mexanizmining ssuda kapitalining doiraviy aylanishi va aylanishiga asoslanganligi e’tirof etilgan. Biroq, ushbu ta’rifda kredit mexanizmining elementlari o‘rtasidagi aloqadorlik o‘z ifodasini topmagan.

Ye.Shkarupaning xulosasiga ko‘ra, “kredit mexanizmi – bu o‘zaro bog‘liq elementlarning harakatlari majmui bo‘lib, ssuda kapitali harakatining namoyon bo‘lish shaklidir”⁸.

Ye.Shkarupaning xulosasida, nomlari yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalaridan farqli o‘laroq, kredit mexanizmi o‘zaro bog‘liq elementlarning harakatlari majmui sifatida talqin qilingan. Bu esa, kredit mexanizmining mohiyatini ochib berish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, “kredit mexanizmini takomillashtirishning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, kreditlarning samaradorligini ta’minlash hisoblanadi va kreditlarning samaradorligini ta’minlashning muhim omillari bo‘lib, kreditlar bo‘yicha tashkil etiladigan zaxiralarning darajasi, kredit yig‘ma jildini shakllantirish, muammoli kreditlar va kreditlarning daromadlilikini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning umum e’tirof etilgan me’yoriy darajalarini ta’minlash hisoblanadi”⁹.

Mazkur xulosaning amaliy ahamiyati shundaki, birinchidan, kreditlarning samaradorligi kredit mexanizmining zamonaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi; ikkinchidan, kreditlarning samaradorligi, avvalo, kredit riskining darajasida va berilgan kreditlarning daromadlilikida namoyon bo‘ladi.

⁸ Шкарупа Е.А. Роль кредитного механизма функционирования финансово-кредитной инфраструктуры в расширении предпринимательского потенциала населения (на примере сельскохозяйственных товаропроизводителей)//Современные проблемы науки и образования. 2014. № 5. URL: <http://science-education.ru/119-15255> (дата обращения: 20.03.2017).

⁹ Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования. - М.: КНОРУС, 2008. – 264.с; Соколинская Н.Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях//Банковское дело. – Москва, 1999. - №9. – С. 18-19.; Вайн С. Оптимизация ресурсов современного банка. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – 194 с.

V.Usoskinning xulosasiga ko‘ra, “kredit munosabatlarida kredit bitimlarining quyidagi asosiy shartlari muhim o‘rin tutadi:

- kreditning maqsadi;
- kreditning summasi;
- kreditni qaytarish tartibi;
- kreditning ta‘minoti;
- kredit beruvchi oladigan moliyaviy rag‘bat”¹⁰.

G.Panovanning xulosasiga ko‘ra, “tjorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlarning yetarliligini ta‘minlash va ularning risk darajasi yuqori bo‘lgan kredit operatsiyalariga yo‘naltiriladigan qismiga nisbatan limitlar belgilash banklarning kredit operatsiyalarini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi”¹¹.

G.Panovanning ushbu xulosasi O‘zbekistonda kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamiz tjorat banklarida depozitlarning yetarliligi ta‘minlanmagan. 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamiz tjorat banklarining depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog‘i 42,7 foizni tashkil etdi¹². Holbuki, tjorat bankining depozit bazasi yetarli bo‘lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i 30 foizdan yuqori bo‘lmasligi kerak. Ikkinchidan, respublikamizning tjorat banklarida depozitlarning kredit operatsiyalariga yo‘naltiriladigan qismiga nisbatan limitlar belgilanmagan.

J.Sinkining fikriga ko‘ra, “bank kredit mexanizmining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, kredit riski darajasining oshishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi va bunda asosiy e‘tibor kredit oluvchi mijozning pul oqimini tahlil qilishga qaratiladi”¹³.

J.Sinkining ushbu fikri nafaqat taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyoti uchun, balki, respublikamiz bank amaliyoti uchun ham muhim. Buning

¹⁰ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – С. 184.

¹¹ Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – С. 194.

¹² Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sayti bo‘lgan www.cbu.uz sayti ma‘lumotlari asosida (Depozit va depozit sertifikatlari mablag‘lari qoldig‘i) hisoblandi.

¹³ Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 485 - 486.

sababi shundaki, birinchidan, iqtisodiyotning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi past bo‘lganligi uchun mamlakat iqtisodiyotida to‘lovsizlik muammosi mavjud (2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublika iqtisodiyotining pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi atigi 21,2 foizni tashkil etdi¹⁴); ikkinchidan, ishlab chiqarish korxonalarida tannarxning tushum hajmidagi salmog‘i yuqori bo‘lganligi sababli aktivlarning rentabellik darajasi past.

I. Altman tomonidan taklif qilingan “kompaniyalarning defolt riskini baholash modelida ularning defolt bo‘lish ehtimoli quyidagi besh ko‘rsatkich bo‘yicha baholanadi:

- aylanma mablag‘larning aktivlarning umumiy hajmidagi salmog‘i;
- aktivlarning rentabelligi;
- soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foydaning aktivlarga nisbati;
- kapitalning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati;
- tushumning aktivlar summasiga nisbati”¹⁵.

E’tirof etish joizki, hozirga qadar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida Altman modeli kompaniyalarning defolt bo‘lish ehtimolini baholashda qo‘llaniladigan asosiy model hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “kredit oluvchining defolt bo‘lish ehtimolini baholashda Yermolova-Penikas va Mogilat modellaridan ham foydalanilmoqda”¹⁶.

“Kichik va o‘rta kompaniyalar uchun defolt bo‘lish modellari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tavsiya qilingan”¹⁷.

¹⁴ Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma’lumotlari asosida hisoblandi.

¹⁵ Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//Journal of Finance, 1968, September. – P. 63–69.

¹⁶ Altman E. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23(4). – P. 589–609.; Ermolova M., Penikas H. PD-LGD Correlation Study: Evidence from the Russian Corporate Bond Market//Model Assisted Statistics and Applications. – 2017. – Vol. 12(4). – P. 335–358.; Могилат А. Н. Оценка финансовой устойчивости российских промышленных компаний, или О чем говорят банкротства // Вопросы экономики. – 2019. – № 3. – С. 101–118.

¹⁷ Pompe P., Bilderbeek J. The Prediction of Bankruptcy of Small- and Medium-Sized Industrial Firms//Journal of Business Venturing. – 2005. – Vol. 20(6). – P. 847–868.; Fantazzini D., Figini S. Random Survival Forests Models for SME Credit Risk Measurement//Methodology and Computing in Applied Probability. – 2009. – Vol. 11(1). – P. 29–45.; Vozzella P., Gabbi G. Default and Asset Correlation: An Empirical Study for Italian SMEs. – 2010. URL: <https://ssrn.com/abstract=1532222>.; Andrikopoulos P., Khorasgani A. Predicting Unlisted SMEs’ Default: Incorporating Market Information on Accounting-Based Models for Improved//British Accounting Review. – 2018. – Vol. 50(5). – P. 559–573.; Gupta J., Barzotto M., Khorasgani A. Does Size Matter in Predicting SMEs Failure?//International Journal of Finance and Economics. – 2018. – Vol. 23(4). – P. 571–605.; Тотьянина К.

A. Burova, G. Penikas va S. Popovalarning xulosasiga ko'ra, "defoltni aniqlashda Bazel qo'mitasining muddati o'tgan kreditlar bo'yicha prudensial me'yorlariga mos keluvchi 90 kun va undan muddatdagi muddati o'tgan qarzdorlikni asos sifatida olish maqsadga muvofiq bo'lib, bankrotlik defolning 3-5 yilga kechikkan indikatorini hisoblanadi"¹⁸.

Haqiqatdan ham, "Bazel-II standartida defoltni aniqlashda 90 kun va undan ortiq muddatdagi muammoli kreditlarni hisobga olish tavsiya qilingan"¹⁹.

N.Valenseva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ko'rsatdiki, "kreditlar bo'yicha foiz stavkasini foizli marja hisobidan pasaytirish imkoniyati bank mahsulotlari tannarxini pasayishi bilan belgilanadi. Bunda, foizli spred miqdorining umumiy quyi chegarasi bo'lib, yetarli darajadagi foizli marja hisoblanadi. Banklarda chiqimlarni pasaytirishning muhim sharti – bu bank amaliyotiga bank mahsulotlari tannarxining monitoringini joriy qilishdir"²⁰.

Haqiqatdan ham, foizli marja hisobidan kreditlarning foiz stavkasini pasaytirish tijorat bankining sof foizli daromadlari miqdorini kamayishiga olib keladi. Ammo, kredit mahsulotlari tannarxini sezilarli darajada pasaytirish imkonini beradi.

Ye.Litvinovning fikriga ko'ra, "tijorat banklari tomonidan chakana kreditlar bo'yicha foiz to'lovlarini undirishning annuitet usulini qo'llanilishi jismoniy shaxslarning kredit bo'yicha to'lov yukini oshishiga olib keladi. Shu sababli, kredit oluvchi jismoniy shaxslarga kredit bo'yicha to'lov usullarini (tabaqalashgan yoki annuitet) tanlash imkonini berilishi foiz stavkalarining rag'batlantiruvchanlik mazmunini kuchaytirish imkonini beradi"²¹.

Моделирование вероятности дефолта корпоративных заемщиков с учетом макроэкономической конъюнктуры//Корпоративные финансы. – 2014. – Т. 8. – № 1. – С. 18–30.; Surzhko D. Approach for Multi-Period PD Calibration for LDP Portfolios. – 2014. URL: <http://vixra.org/pdf/1404.0001v1.pdf>.

¹⁸ Бурова А., Пеникас Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска//Деньги и кредит. – Москва, 2021. – № 3. – С. 49-72.

¹⁹ Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org/publications>.

²⁰ Валенцева Н.И. Ценообразование на рынке банковских услуг//Банковское дело. – Москва, 2013. – №11. – С. 39.

²¹ Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – С. 14.

A.Mian va A.Safi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, "uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklangandir. Bu esa, uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshiradi"²².

Dando va Skodberg tomonidan "yetti ming kompaniya bo'yicha tanlov asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, reytinglar o'rtasidagi o'tish matritsalarini (migratsiya matritsalarini) va ular asosida ekstrapolyatsiyalarni baholash yuqori reytingli kredit portfellari uchun, shu jumladan, past defoltli kredit portfellari uchun defolt maqomiga o'tishni aniq baholash imkonini beradi"²³.

Vey va Yuan "ssudalar bo'yicha defolt (Loss Given Default, LGD) sharoitida yo'qotishlar ulushini aniqlash uchun chegaraviy taqsimotni tuzishni taklif qilishgan"²⁴. Ammo, ushbu tadqiqotda taklif qilingan yondashuvning shu sohadagi boshqa yondashuvlar bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan.

D.Taschening xulosasiga ko'ra, "agar aktivlarning kichik korrelyatsiyasi (18%) sharoitida defolt ehtimolini baholash uchun ishonchli intervalning yuqori chegaralarini tanlashning standart metodidan foydalanilsa, u holda, optimal korrektirovka 50-75% ahamiyatlilik darajasiga muvofiq keladi, katta korrelyatsiya ($R=24\%$) sharoitida – 75-90% ahamiyatlilik darajasiga mos keladi"²⁵. Bu esa, LDPni amaliy modellashtirish uchun muhim xulosa hisoblanadi. Buning sababi shundaki, agar LDP chakana mahsulot bo'lsa (ularda korrelyatsiya odatda kichik bo'ladi), unda ahamiyatlilikning konservativ darajasi 75 % bo'ladi. Agar LDP chakana segment mahsuloti bo'lmasa, unda ahamiyatlilikning konservativ darajasi 90 % bo'lishi kerak.

O.Iminovning xulosasiga ko'ra, "tijorat banklarining nobank kredit muassasalari bilan kredit mexanizmi sohasidagi o'zaro munosabatlarini yangi

²² Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 — 1726.

²³ Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.

²⁴ Wei L., Yuan Z. The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion//Insurance: Mathematics and Economics. – 2016. – Vol. 66. – pp. 113 -123.

²⁵ Tasche D. Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios//Journal of Risk Management in Financial Institutions. – 2013. – Vol. 6(3). – pp. 302–326.

asosda qurish kerak. Respublikada maxsus kredit muassasalari mablag'larini kredit yo'llari asosida tijorat banklari tomonidan berilishi bu muassasalarni rivojlangan davlatlardagi kabi banklar bilan "bellashuvchi" emas, balki, ularga ma'lum darajada "qaram"ga aylantirib qo'ygan. Ular mustaqil ravishda kreditlash amaliyotini bajara olmaydi, balki mablag'larni tijorat banklariga kelishilgan shartlarda taqsimlab berishadi. Shu bilan birga, tijorat banklari kreditning "taqdiriga" butunlay javobgar bo'lganlari holda, undan keladigan foydaning yarmini nobyudjet fondiga o'tkazib berishga majburlar. Bunday holat kredit samaradorligini keskin kamaytiradi"²⁶.

Bu yerda O.Iminov nobank kredit tashkilotlarini kredit bozorida tijorat banklari bilan raqobatchi sifatida emas, balki tijorat banklariga resurs yetkazib beruvchi subyektlar sifatida qarashni taklif qilayapti.

N.Karimovning fikriga ko'ra, "investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirishdagi muammolarni hal etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan berilgan investitsion kreditlar bo'yicha garov obyektini sotishda ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini ssudaning to'lanmagan qiymatidan chegirib tashlamaslik zarur;

– xorijlik ta'minotchilar tomonidan sifatsiz uskuna va mexanizmlar yetkazib berilishining oldini olish maqsadida xorijiy banklar tomonidan yetkazib berilayotgan uskuna va mexanizmlarning sifati yuzasidan beriladigan kafolatlarni olish lozim;

– investitsion loyihaning amalga oshirilishi natijasida olinadigan mahsulotlarni eksport qilishda shartnomani bevosita xorijlik ta'sischi bilan tuzishni me'yoriy hujjatlar asosida taqiqlab qo'yish lozim;

– Hukumat kafolati bilan olinadigan xalqaro kreditlar rolining oshib borayotganligi, sinditsiyalashtirilgan kreditlarni jalb etish va ulardan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha keskin choralar

²⁶ Иминов О.К. Ўзбекистон Республикаси кредит тизимини ривожлантириш йўллари. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 27.

ko‘rilishi taqozo etiladi”²⁷.

N.Karimovning ushbu takliflari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotida mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarning yechimiga bag‘ishlangan. Haqiqatdan ham, respublikamizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan jiddiy muammolar mavjud. Ana shunday muammolardan biri – bu investitsiya loyihalarini tashqi omillarning ta‘siri natijasida o‘zini oqlamasligi.

M.Bauyetdinov tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, “kreditlar va foizlar banklarga qaytarilmasdan muddati bir necha bor uzaytirib kelinmoqda. Bu uzaytirishlar faqat ichki uzaytirishlar bo‘lib, tashqi kreditorlar bilan faqat 4 ta korxonalar, ya‘ni “Farg‘ona furan birikmalari zavodi”, “Kaolin”, “O‘zsmatana santexnika” va “Xobas Tapo” ko‘shma korxonalarininggina 30 mln. AQSH dollari miqdoridagi kreditlarining muddati uzaytirilgan xolos; hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan kreditlar yil boshidan yil oxiriga tomon u oshib boradi, yangi yilda esa “yangi uzaytirishlar” hisobidan u kamayadi, muddati uzaytirilgan kreditlar esa yana ko‘payadi. Bu “an‘ana” bank uchun xavfli ekanligini aytib o‘tish joizdir; xorijiy kredit liniyalari hisobidan kredit olgan “O‘zsmatana santexnika” (16 mln. AQSH dollari), “Xobas Tapo” (51868 ming AQSH dollari), “Kaolin” (27401 ming AQSH dollari), “O‘zeksayd” (53627 ming AQSH dollari), “Yantak Brit” (2090 ming AQSH dollari), qo‘shma korxonalar “Bolalar taomlari” Xolding kompaniyasi (58898 ming AQSH dollari), “Asnam tekstil” ko‘shma korxonasi Vazirlar Mahkamasining qarori va Texnik iqtisodiy asoslarda ko‘rsatilgan muddatlarda ishga tushirilmaganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarini eksport qilinishi belgilangan korxonalar (“Ohangaronstroyplast”, Yengil sanoat Uyushmasi tizimidagi qo‘shma korxonalar “Kaolin” qo‘shma korxonasi) o‘z mahsulotlarini eksport qila olmaganligi natijasida xorijiy kreditorlarga bank o‘z mablag‘lari hisobidan kredit va uning foizlarini to‘lab

²⁷ Каримов Н.Г. Иктисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмлари жорий этиш муаммолари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. такд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 40 б.

bergan; investitsion loyihalarning o‘zini oqlamasligi banklarning uzoq muddatli kreditlarini o‘z vaqtida qaytmasligining asosiy sabablaridan biridir”²⁸.

Respublikamiz iqtisodiyotining real sektorida amalga oshirilgan qator investitsion loyihalarning o‘zini oqlamasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi²⁹:

– korxonalar xorijdan keltiriladigan xom-ashyolarga o‘ta bog‘liqligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotga talab yo‘qligi (“Kaolin”, “Yantak-Brit” qo‘shma korxonalari», “Ohangaronstroyplast” HJ);

– korxonalarning loyihada belgilangan quvvatda ishlamasligi (“Pap Fen” qo‘shma korxonasi 80% quvvatda, “Asnam-tekstil” qo‘shma korxonasi 60%, “Kosonsoy-Tekmen” qo‘shma korxonasi 15% quvvatda, “Ohangaronstroyplast” HJ 10% quvvatda ishlamoqda);

– ayrim korxonalarning xom-ashyo bazasi bilan ta‘minlanmaganligi (Xorazm shakar zavodi, “Farg‘ona furan birikmalari zavodi”, Farg‘ona kimyoviy tolalar zavodi);

– qurilgan mehmonxonalarining bor yo‘g‘i 30-35 foiz yuklamada ishlayotganligi (“Shodlik”, “Sheraton” mehmonxonalari);

– qo‘shma korxonalar ochilishi vaqtida xorijiy ta‘sischilar tomonidan ishlab chiqarilishi mo‘ljallanayotgan mahsulotni xorijga sotish yoki ularni sotib olish majburiyatini ro‘yxatdan o‘tkazilgan, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori qabul qilingan, bankka taqdim etiladigan Texnik iqtisodiy asoslarda mahsulotlarni xorijga erkin almashinadigan valyutada sotilishini ta‘minlash belgilangan), ishlab chiqarish boshlangandan so‘ng esa, bu majburiyatlar bajarilmasligi;

Masalan, “Kaolin” qo‘shma korxonasining ta‘sischilaridan biri “Kul‘koni” firmasiga ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish mas‘uliyati Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorida va korxonaning ustavida ko‘rsatilgan, lekin u korxonalar o‘z badalini ham qo‘ymagan holda mahsulotni sotish majburiyatini ham bajarmagan;

²⁸ Бауетдинов М.Ж. Хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион харажатларини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019. – 114 б.

²⁹ Бауетдинов М.Ж. Хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион харажатларини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019. – 114 б.

– ko‘pgina loyihalarga qilingan kapital xarajatlarni o‘zini oqlamasligi: Vazirliklar va idoralar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmog‘ida yirik korxonalar qurish orqali loyihalarni amalga oshirishga loyihalar tanlangan. Jahon tajribasida bunday faoliyat kichik va o‘rta biznes subyektlari loyihada xorijiy valyutada qaytarilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsada, amalda mahsulot eksport qilinmagan yoki juda kam eksport qilinganligi (Masalan, yiliga 3840 tonna kanava tayyorlashi lozim bo‘lgan “Pap Fen” qo‘shma korxonasiga 2000-yil davomida 160 ming AQSH dollari miqdorida tushum tushgan xolos);

Masalan, “Bolalar taomlari Xolding” kompaniyasiga bir nechta konserva zavodlari bazasida bolalar taomlari ishlab chiqarish uchun 2 yil ichida 34 mln. AQSH dollari xarajat qilingan va hech qanday ijobiy natija olinmagan. Xolding tarkibidagi bironta konserva zavodi hali ishga tushmagan. Hozirgi vaqtda korxonaning hukumat tomonidan kafolatlangan “Citibank” (AQSH) va “KfW” bank (Germaniya) kredit liniyasi bo‘yicha jami 55809 ming AQSH dollari va hukumat tomonidan kafolatlanmagan 214 mln. so‘m qarzi mavjud. Bu qarzlarni to‘lash muddati bir necha bor uzaytirilgan bo‘lsada “qayta ko‘rilgan ssudalar” hisob raqamlariga to‘la olinmasdan, muddatli ssudalar hisob raqamlarida hisobga olinib kelinmoqda³⁰;

– sotib olingan uskunalar tender asosida emas, balki bu uskunalarni o‘rnatish texnologiyasi bo‘yicha tajribasi bo‘lmagan vositachilardan sotib olinishi va ularni o‘rnatishni cho‘zilishi; (“Eksayd” qo‘shma korxonasi, “O‘zsmatana santexnika” qo‘shma korxonasi);

– loyihalarda mahalliy bozor talablarini hisobga olinmaganligi hamda ishlab chiqilishi ko‘zda tutilayotgan mahsulotning xom-ashyo bazasi, undagi xorijiy va mahalliy xom-ashyo hissasining tahlil qilinmaganligi;

³⁰ Бауетдинов М.Ж. Хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион харажатларини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019. – 114 б.

– bank tomonidan kreditning maqsadli ishlatilishi to‘la o‘rganilmaganligi va o‘rganish ma’lumotnomalari faqat bank xodimlari tomonidan imzolanib tegishli chora-tadbirlar belgilanmaganligi³¹.

Sh.Abdullayevaning xulosasiga ko‘ra, “kredit portfelini resurslarning manbalari bo‘yicha diversifikatsiyalash natijalariga ko‘ra, ba’zi tijorat banklarining kredit portfelida markazlashgan kreditlar salmog‘ining yuqoriligini hisobga olish lozim va shu kreditlar bo‘yicha banklarga yengilliklar berish, ba’zi hollarda ulardan olingan daromadni soliqdan ozod qilish kabi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘lar edi³².

Haqiqatdan ham, respublikamizda yirik tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiya darajasi past. Bu esa, ularning faoliyatini kredit riskini samarali boshqarish imkonini bermaydi.

O.Sattarovning xulosasiga ko‘ra, “tijorat banklari likvidliligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish orqali bank tizimi barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun ular likvidliligini qisqa muddatda hal etishga ko‘maklashish maqsadida, qayta moliyalashtirish kreditlarini ajratish;

– operativ likvidlilik kreditlarini joriy etish va uning talablari sifatida dastab, 90 kun muddatga hamda qayta moliyalashtirish stavkasidan 2 foizli punktga yuqori bo‘lgan fiksirlangan stavkada kreditlar ajratish mexanizmini joriy etish;

– banklararo kredit resurslari bozori ishlash mexanizmini takomillashtirish. Bunda Markaziy bank tomonidan mahaliy tijorat banklaridan kamida uchtasiga resurs ajratishi hamda ular orqali qisqa muddatli moliyaviy qiyinchilikni boshdan kechirayotgan banklar uchun ular likvidliligini tiklash maqsadida yo‘naltirish;

³¹ Бауетдинов М.Ж. Хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион харажатларини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019. – 114 б.

³² Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари шароитида тижорат банкларнинг кредит портфелини диверсификациялаш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

– qimmatli qogʻozlar bozorini yanada rivojlantirish, eng avvalo, davlat obligatsiyalarini chiqarish va banklarning ular oldi-sotdisida faol ishtirokchisiga aylantirish”³³.

O.Sattarovning ushbu xulosasi Markaziy bankning kredit mexanizmini takomillashtirishga bagʻishlangan. Haqiqatdan ham, Markaziy bankning qayta moliyalash kreditlari tijorat banklarining likvidligini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi.

A.Omonov “tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash masalasini ilmiy asosda tadqiq qilgan. Uning xulosasiga koʻra, tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli depozit mablagʻlari salmogʻini oshirish va bankdan tashqari aylanmalarni zarur darajada kamaytirish maqsadida muddatli va jamgʻarma depozitlarga nisbatan Markaziy bankning majburiy zaxira talabini 0 foiz miqdorida joriy etish lozim”³⁴.

A.Omonov “tijorat banklarining muddatli va jamgʻarma depozitlarini Markaziy bankning majburiy zaxira talablaridan toʻliq ozod qilishni taklif qilyapti. Haqiqatdan ham, hozirgi davrda Markaziy bankning tijorat banklarining muddatli va jamgʻarma depozitlariga nisbatan majburiy zaxira stavkalari yuqori. Masalan, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi muddatli va jamgʻarma depozitlariga nisbatan majburiy zaxira stavkasi 18 foizni tashkil etadi”³⁵. Bu esa, juda yuqori stavka hisoblanadi. Bunday yuqori zaxira stavkalari sharoitida tijorat banklari muddatli va jamgʻarma depozitlariga toʻlanadigan foizlarning darajasini koʻtarish imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Buning oqibatida depozitlarning multiplikativ kengayishini taʼminlash imkoniyati katta savol ostida qoladi.

Kredit mexanizmini takomillashtirishning dolzarb masalalaridan biri – bu, shubhasiz, kredit mexanizmining elementlari oʻrtasidagi aloqadorlik masalasidir.

³³ Sattarov O.B. Ўзбекистон Республикаси банк тизими барқарорлигини таъминлаш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 70 б.

³⁴ Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 35 б.

³⁵ Pul-kredit siyosati//www.cbu.uz.

1.2-§. Kredit mexanizmining elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlashning dolzarb masalalari

Kredit mexanizmining samarali amal qilishining birlamchi zaruriy sharti bo‘lib, uning elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlash hisoblanadi.

Aksariyat iqtisodchi olimlar tomonidan kredit mexanizmining elementlari sifatida quyidagilar e’tirof etilgan:

- kredit shartnomasi;
- kreditni berish va qaytarish tartibi;
- kreditning turlari;
- kreditlash shakllari;
- kreditlarning ta’minoti;
- kreditlarning foiz stavkalari;
- kredit oluvchining kredit to‘loviga layoqatliligini baholash tartibi³⁶.

Kredit shartnomasi tijorat banki bilan kredit oluvchi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi birlamchi huquqiy hujjat hisoblanadi. Shu sababli, kredit shartnomasini to‘g‘ri va o‘zaro manfaatli qilib tuzish kredit mexanizmining samarali amal qilishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Kredit shartnomasini tuzishga nisbatan bir qator talablar mavjud bo‘lib, ular iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, O.Lavrushining xulosasiga ko‘ra, “kredit shartnomasining shartlari tijorat bankini kredit riskidan himoya qilish va kredit olgan subyektning kreditdan foydalanish samaradorligini ta’minlash imkonini berishi kerak”³⁷.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlashning eng keng qo‘llaniladigan shakli bo‘lib, alohida ssuda schyotidan bir

³⁶ Банковское дело. Учебник. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.; Бровкина Н.Е. Организация отдельных видов кредита. Банковское дело. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.; Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – 464 с.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – 1018 с.

³⁷ О.И. Лаврушин. Банковские риски. Учебник – Москва: КНОРУС, 2019. – 292 с.

marotabali kreditlash shakli hisoblanadi. Ammo, ushbu kreditlash shakli quyidagi jiddiy kamchiliklarga ega:

- kreditni bo‘lib to‘lashga ruxsat etilmaydi;
- kreditdan foydalanilishi ustidan nazorat qilib bo‘lmaydi;
- kreditdan foydalanish samaradorligi past.

Angliya bank amaliyotida overdraft shaklida kreditlash jarayonida yuzaga keladigan kredit riski darajasining oshib ketishining oldini olish uchun kredit olgan mijozga har oyning so‘nggi ish kunida joriy hisobraqamning kreditli qoldiqqa ega bo‘lishini ta‘minlash talabi qo‘yiladi.

Plastik kartalar egalarini banklar tomonidan overdraft shaklida kreditlash jarayonida yuzaga keladigan kredit risklari bilan bir vaqtning o‘zida operatsion riskka ham e‘tibor qaratish talab etiladi. Buning sababi shundaki, operatsion risk darajasining oshish ehtimoli overdraft kreditlash shaklida nisbatan yuqoridir. Chunki, overdraft ta‘minlanmagan kredit bo‘lib, mijozni kreditlash limitini katta miqdorda oshirish imkoniyati mavjud.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, kredit riskini boshqarish amaliyoti takomillashgan sharoitda, overdraft krediti tijorat banklari uchun yuqori daromad keltiruvchi aktiv bo‘lib hisoblanadi. Lekin, boshqa tomondan, overdraft krediti real ta‘minotga ega bo‘lmagan yuqori riskli aktiv hisoblanadi. Bu esa, kredit riskini boshqarishning dolzarbligini oshiradi.

Amaliyotda, kredit munosabatlarida yuzaga kelayotgan muammolar ko‘rsatmoqdaki, majburiyat ijrosini u yoki bu usuli bilan ta‘minlanganlik kreditor uchun kreditni undirish bilan bog‘liq muammo bartaraf etildi, degani emas. Chunki, ta‘minlanganlik tamoyiliga doir tadbirlar banklar tomonidan qanchalik mukammal amalga oshirilgan bo‘lmasin, majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, banklar oldida mijoz ta‘minotiga munosabat obyektini qiymati doirasida garov obyektiga nisbatan egalik huquqini olishda muammolar yuzaga kelmoqda. Bu muammolardan biri, majburiyat ijrosini ta‘minotga qaratish jarayonida sud qarorini olish bilan bog‘liq muammodir. Bu jarayon uzoq davom etishi, ortiqcha ovoragarchiliklar bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarning mavjudligi

bilan muammolar tug'dirmoqda. Shuningdek, uchinchi shaxslar kafilligini amaliyotda qo'llashda ham qator muammolar mavjud³⁸.

O'z navbatida, garovga olingan mulkni bank balansiga olingan taqdirda mulk solig'i va uni sotishdan foyda solig'i to'lanadi. Bu esa, banklarning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

I. Alimardonov "tomonidan amalga oshirilgan ilmiy – tadqiqot natijalari ko'rsatdiki:

– respublika banklari talab qilayotgan yuqori likvidli garov obyektlari kichik biznes subyektlarining ko'pchiligida mavjud emas;

– kichik biznes subyektlariga respublikamiz tijorat banklari tomonidan xorijiy banklarning kredit liniyalari hisobidan berilayotgan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori;

– kichik biznes subyektlarini banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan kreditlashning uslubiy asoslari takomillashmagan. Xususan, banklar tomonidan kreditlashning uslubiy asoslari qaysi prinsiplarga tayanishi, ularning nobank kredit tashkilotlari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash prinsiplaridan farq qiluvchi jihatlari amaldagi qonunchilik hujjatlarida o'z ifodasini topmagan"³⁹.

Kredit oluvchilarning kredit to'loviga layoqatliligini baholash tartibi tijorat banklari va kredit oluvchilar o'rtasidagi kredit munosabatlarining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

AQSH tijorat banklari mijozlari bo'lgan yuridik shaxslarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda 4 guruhga mansub bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalanadi⁴⁰:

- likvidlilik ko'rsatkichlari;
- kapitalning aylanishi;
- jalb qilingan mablag'lar;

³⁸ Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 79 б.

³⁹ Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2018 – 61 б.

⁴⁰ Синки мл. Д. Ф. Управление финансами в коммерческом банке: пер. с англ. – М: Саталлахи. 1997. – С.182.

– foyda ko‘rsatkichlari.

1.1-jadval

“New York” (AQSH) tijorat bankining mijozning kredit to‘loviga layoqatliligini baholashda qo‘llaydigan moliyaviy koeffitsiyentlari va ularning me‘yoriy darajalari⁴¹

Kredit to‘loviga layoqatlilik ko‘rsatkichlari	Me‘yoriy daraja
Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	2 : 1
Tezkor likvidlilik koeffitsiyenti	1 : 1
Moliyaviy leverij koeffitsiyenti	1 : 1
Moliyaviy marja koeffitsiyenti	1 gacha

1.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “New York” banki mijozlarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholashda 4 ta moliyaviy koeffitsiyentdan foydalanadi. Respublikamiz banklari amaliyotida mazkur koeffitsiyentlarning faqat bittasi, ya’ni joriy likvidlilik koeffitsiyenti qo‘llaniladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mijozlarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholashda moliyaviy koeffitsiyentlar usulidan tashqari, mijozning umumiy pul oqimini baholash usulidan ham foydalaniladi.

Kompaniyaning umumiy pul oqimi pul mablag‘lari kirimi summasi bilan pul mablag‘lari chiqimi summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Korxonalarda pul mablag‘larining kirimi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- tahlil qilinayotgan davr mobaynida olingan foyda;
- asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya ajratmalari;
- debitor qarzdorlik va tovar-moddiy zaxiralariga joylangan mablag‘larning bo‘shab qolishi;
- kreditor qarzdorlik miqdorining ko‘payishi;
- tijorat banklaridan kreditlar olish;
- aksiyadorlik kapitali va boshqa passivlar summasining oshishi;
- moliyaviy grantlar jalb qilish⁴².

⁴¹ Банковское дело. Учебник. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 367.

⁴² Банковское дело. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. Учебник. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 360.

Korxonalarda pul mablag‘larining chiqimi, odatda, quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- debitor qarzdorlik va tovar-moddiy zaxiralarga qo‘shimcha mablag‘lar joylashtirish;
- soliqlar, foizlar, dividendlar, bo‘naklar to‘lash;
- penya va jarimalar to‘lash;
- banklardan olingan kreditlarni to‘lash;
- tijorat kreditlari bo‘yicha asosiy qarz summasi va foizlarni to‘lash;
- kreditor qarzdorlik miqdorining kamayishi;
- aksiyadorlik kapitali summasining kamayishi⁴³.

Ta’kidlash joizki, korxonaning umumiy pul oqimini tahlil qilish asosida uning kredit to‘loviga layoqatliligini baholash korxonaning umumiy pul oqimini uning barcha qarz majburiyatlari summasiga bo‘lish orqali aniqlanadi (1.2-jadval).

1.2-jadval

Korxonaga umumiy pul oqimining uning jami majburiyatlariga nisbatan darajasiga ko‘ra kredit to‘loviga layoqatlilik mezonlari va sinflari⁴⁴

Umumiy pul oqimining jami qarz majburiyatlariga nisbatan darajasi	Kredit to‘loviga layoqatlilik bo‘yicha sinflar
0,75	I
0,50	II
0,30	III
0,25	IV
0,20	V
0,15	VI

1.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korxonaga umumiy pul oqimining jami qarz majburiyatlariga nisbatan darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning kredit to‘loviga layoqatlilik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Bu esa, birinchidan, pul mablag‘larining likvidlilik darajasi eng yuqori bo‘lgan aktiv ekanligi bilan, ikkinchidan, tijorat banklari kreditlarini korxonaning joriy hisobraqamidagi pul mablag‘lari hisobidan to‘lanishi bilan izohlanadi.

⁴³ Банковское дело. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. Учебник. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 361.

⁴⁴ Банковское дело. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. Учебник. – М.: КНОРУС, 2008. – С. 387.

V.Usoskinning xulosasiga ko‘ra, “taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida tijorat banklarining kreditlari uchun ta’minotning keng tarqalgan turlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- yer;
- qimmatli qog‘ozlar;
- debitor qarzdorlik;
- tovarlar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar asosida taqdim qilingan tovarlar;
- sug‘urta polislarini”⁴⁵.

V.Usoskinning “tijorat banklarining kreditlari ta’minoti xususidagi xulosasi taraqqiy etgan mamlakatlar tijorat banklarining kreditlash amaliyotini tahlil qilish natijalariga asoslangan. Ta’kidlash joizki, mazkur xulosaning O‘zbekiston bank amaliyoti uchun quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

– respublikamizda yer maydonlari davlatning mulki hisoblanadi, yuridik shaxslar joylashgan yer maydonlari tijorat banklari uchun garov obyekti bo‘la olmaydi;

– O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida to‘lovsizlik muammosi mavjud bo‘lganligi sababli (2022 yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublika iqtisodiyotining pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi atigi 19,1 foizni tashkil etdi) debitor qarzdorlikning aylanish tezligi sezilarli darajada past;

– tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar rivojlanmaganligi sababli sug‘urta polislarining tijorat banklari kreditlarining ta’minoti hajmidagi salmog‘i juda kichik.

Tijorat banklari kreditlarini mijoz tomonidan o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishini ta’minlashda kredit olgan mijozga qo‘yiladigan cheklov talablari muhim rol o‘ynaydi. “Xalqaro bank amaliyotida bunday cheklovlar majmuiga quyidagilar kiradi:

- aylanma kapitalni ma’lum darajada saqlab turish majburiyatini o‘rnatish;
- aksiyadorlik kapitalining barqaror darajasini ta’minlab turish;

⁴⁵ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – С. 213.

- balans koeffitsiyentlarining belgilangan miqdoriga rioya qilinishini ta'minlash (likvidlilik koeffitsiyenti va boshqalar);
- umum qabul qilingan barcha buxgalteriya hisobi qoidalariga rioya qilgan holda tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni doimiy tarzda taqdim qilish;
- moliyaviy holatini har qanday yomonlashganligi va har qanday noqulay o'zgarishlar to'g'risida bankni xabardor qilish;
- baxtsiz hodisalardan zarur sug'urtalashni ta'minlash;
- soliqlar va boshqa majburiyatlarni doimiy tarzda to'lash, ularni o'z vaqtida to'lanmasligi mulkka taqiq qo'yilishiga olib kelishi mumkin;
- bino va inshootlarni zarur darajada ta'mirlashni ta'minlash;
- bank xodimlariga kompaniyaning buxgalteriya kitoblarini tekshirish imkonini berish kerak, ushbu tekshirish hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlash imkonini beradi;
- kompaniyaga nisbatan qo'llanilishi ko'zda tutilayotgan choralar yoki sud orqali bo'ladigan ta'qiblar to'g'risida bankka xabar berish"⁴⁶.

Tijorat banklari kreditlarini o'z vaqtida va to'liq qaytarilishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib, to'lovlar ketma-ketligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida, hozirgi davrda to'lovlarning maqsadli ketma-ketligi qo'llanilmoqda. Ushbu ketma-ketlikda korxonaning davlat byudjeti oldidagi qarzdorligini to'lashga ustuvorlik beriladi. Shu sababli, davlat byudjeti oldida soliqlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi bo'lgan korxonalar kreditlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olmaydi. Bu esa, kredit olmoqchi bo'lgan va kredit olgan mijozlarning davlat byudjeti oldidagi qarzdorligini va ushbu qarzdorlikni o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatlarini baholash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida imtiyozli kreditlar bo'yicha kredit riski tijorat banklarining zimmasiga yuklangan. Bu esa, imtiyozli kreditlar bo'yicha

⁴⁶ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – С. 262.

to'lov yukini va qoplash manbalarini to'g'ri va aniq hisoblash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda imtiyozlar kreditlar tijorat banklari tomonidan beriladi, ammo, kredit riski tijorat banklarining zimmasiga yuklanmaydi. Balki, qaytmagan imtiyozli kredit summasi vakolatli davlat organining xarajatiga olib boriladi. Masalan, AQSHda kichik biznes subyektlarga berilgan va qaytmagan imtiyozli kreditlar summasi maxsus vakolatli davlat organi – Kichik biznes ma'muriyatining xarajatiga olib boriladi.

1.3-§. Kredit mexanizmining metodologik asoslari

Kredit mexanizmining asosiy metodologik masalalaridan biri bo'lib, kreditlarning foiz stavkasini shakllanishi va ularning barqaror darajasini ta'minlash hisoblanadi.

Kreditlarning foiz stavkasini shakllanishining bozor mexanizmi milliy ssuda kapitallari bozorining to'laqonli shakllangan bo'lishini taqozo etadi. Ya'ni, milliy ssuda kapitallari bozorining har ikkala segmentida (pul bozori va kapital bozori) operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmlari takomillashgan bo'lishi kerak.

Kreditlarning foiz stavkalarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta'minlash masalasining markaziy masalalaridan biri bo'lib, muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish hisoblanadi.

Muvozanatlashgan foiz stavkasi konsepsiyasini amalda qo'llashning birinchi fundamental muammosi shundaki, bu obyekt amalda kuzatilmaydigan obyekt hisoblanadi. Istalgan davrda haqiqatda kuzatiladigan foiz stavkasi (nominal yoki real) muvozanatlashgan stavka hisoblanadi, chunki, iqtisodiyot har bir davrda ma'lum muvozanat holatida bo'ladi. Biroq, muvozanatlashgan foiz stavkasi deganda maxsus sharoitlarda shakllanadigan ba'zi foiz stavkalari tushuniladi. Ammo, real hayotda bunday foiz stavkalarini shakllanishiga qat'iy ishonish qiyin.

Neytral/muvozanatlashgan foiz stavkasini aniqlashning standart yondashuvida muvozanatlashgan stavka mahsulotlar ishlab chiqarish va inflyatsiya muvozanat holatida bo'lganda shakllanadi. Nomi qayd etilgan olimlarning fikricha, "muvozanatlashgan stavka, moliyaviy siklning moliyaviy barqarorlikka ta'siri oqibatlarini hisobga olgan holda, faqat ishbilarmonlik sikli hisobga olingan modellarga qaraganda, yuqori bo'lishi kerak"⁴⁷.

Ikkinchi murakkablik shundaki, "hatto bitta konsepsiya doirasida ham ((masalan, neokeynscha) muvozanatlashgan stavka qaysi model (ochiq yoki yopiq iqtisodiyot; moliyaviy taranglikka (siqov))ega iqtisodiyot yoki tarangliksiz iqtisodiyot)) ko'rib chiqilayotganiga qarab turli darajaga ega bo'lishi mumkin"⁴⁸.

Ushbu konsepsiyani amaliy qo'llashning ikkinchi muammosi bo'lib, neytral stavkani baholashning qiyinligi hisoblanadi. Dallas Federal zaxira bankining boshlig'i R.Kaplan ta'kidlaganidek, "pul-kredit sharoitlarining neytralligiga mos keluvchi foiz stavkasini baholash turli omillarning keng jihatlarini har tomonlama tahlil qilishni talab qiladigan fandan ko'ra, ko'proq san'atdir"⁴⁹.

H.Reyning xulosasiga ko'ra, "muvozanatlashgan stavkani baholashning prinsipial imkoniyati o'ziga xos shartni bajarilish imkoniyatiga, ya'ni, pul siyosatining trilemmasi emas, balki dilemmasining harakati bilan bog'liq"⁵⁰.

Xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari ko'rsatdiki, qisqa muddatda foiz stavkasini baholash uchun RBS

⁴⁷ Barsky R., Justiniano A. and Melosi, L. The Natural Rate of Interest and Its Usefulness for Monetary Policy. *American Economic Review*, 2014. – 104(5), – R. 37–43.; Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. *International Journal of Central Banking*, 2017. – 13(3). – R. 55–89.

⁴⁸ Wynne M. A. and Zhang R. Estimating the Natural Rate of Interest in an Open Economy. *Empirical Economics*, 2018. – 55(3). – R. 1291–1318.; Eggertsson, G. B. and Krugman P. Debt, Deleveraging, and the Liquidity Trap: A Fisher-Minsky-Koo Approach. *Quarterly Journal of Economics*, 2012. – 127(3). – R. 1469–1513.; Caballero R. J. and Krishnamurthy A. A Dual Liquidity Model for Emerging Markets. *American Economic Review*, 2002. – 92(2). – R. 33–37.

⁴⁹ Kaplan R.S. The Neutral Rate of Interest. An Essay, 2018. Available at: <https://www.dallasfed.org/media/Documents/news/speeches/kaplan/2018/rsk181024.pdf> [accessed on 2 September 2019].

⁵⁰ Rey H. Dilemma not Trilemma: The Global Financial Cycle and Monetary Policy Independence. NBER Working Paper, 2018. – N 21162. – R. 1-42.

modellardagi umumiy muvozanatda barcha uch shart bir vaqtning o'zida ko'rib chiqiladi⁵¹.

Shuning uchun qisqa muddatda muvozanat tezligini baholash uchun biz narx qat'iyligisiz (moslashuvchan narxlarda) yoki RBC modelini umumiy muvozanat modeli quriladi. Ushbu modelda iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan, iqtisodiyotning ochiqligi yoki kichikligi yoki xom ashyo eksportining yuqori ekanligi. Maqsadlar uchun iqtisodiyotning uch tarmoqli tuzilmasini umumiy muvozanatda (energiya ishlab chiqaruvchi sektor uchun, mamlakatda mahsulot ishlab chiqaradigan sektor va chet elda mahsulot ishlab chiqaradigan sektor uchun) ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu modelda biz nafaqat qisqa muddatli muvozanatdagi foiz stavkasi darajasini tiklashdan, balki foiz stavkasining bir uzoq muddatli muvozanatdan ikkinchisiga o'tish dinamikasini ham o'rganishimiz zarur. Bunda, biz foiz stavkasini baholash uchun keng qo'llaniladigan filtrlardan birini — Laubach va Uilyamsni qo'llaymiz. Ushbu hisob-kitoblar qisqa muddatli muvozanatli foiz stavkasini baholashni aks ettiradi⁵².

Beyer va Uiland turli usullar bilan olingan muvozanat foiz stavkalari hisob-kitoblari juda yuqori noaniqlik bilan tavsiflanadi, bu esa ushbu hisob-kitoblarning pul-kredit siyosati maqsadlariga muvofiqligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega⁵³.

Foiz stavkalari tebranishidagi noaniqliklar turli omillar, jumladan, moliya bozori ishtirokchilarining kutilmalariga bog'liq bo'lib, foiz stavkalarini prognozlashda inobatga olinadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

⁵¹ Mendoza E. Real Business Cycles in a Small Open Economy. *American Economic Review*, 1991. – 81(4). – R. 797–818.; Guo, J.-T. and Janko, Z. (2009). Reexamination of Real Business Cycles in a Small Open Economy. *Southern Economic Journal*, 2009. – 76(1). – R. 165–182.

⁵² Laubach T. and Williams J. (2003). Measuring the Natural Rate of Interest. *Review of Economics and Statistics*, 2003. – 85(4). – R. 1063–1070.

⁵³ Beyer R. C. M. and Wieland V. (2019). Instability, Imprecision and Inconsistent Use of Equilibrium Real Interest Rate Estimates. *Journal of International Money and Finance*, 2019. – 94. – R. 1–14.

AQSH iqtisodiyoti misolida muvozanat stavkasini aniqlash bo'yicha yondashuvlarning umumiy ko'rinishi J.Hamilton, I.Xarris, S.Graf, H.Lindvall va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keltirilgan⁵⁴.

Muvozanatli foiz stavkasi iqtisodiyotning uzoq muddatli muvozanatiga mos keladigan stavka sifatida He va boshqalarda o'rganilgan⁵⁵.

Real muvozanat stavkasini aniqlash konsepsiyasi kapital aktivlari narxini belgilashning iste'mol modeliga asoslanadi. Ushbu modelning asosiy bashoratlari amalda aniq tasdiqni topa olmaydi⁵⁶.

Iqtisodiy adabiyotda kredit mablag'lari taklifi (jamg'armasi) va ularga bo'lgan talab (investitsiyalar) o'rtasidagi muvozanatning tavsifiy modellari keng yoritilgan. Ular talab va taklif omillari orqali qarzga olingan pul narxini o'rganadi. Bu modellar turli nazariy modellarning alohida natijalariga tayanadi va real foiz stavkasi darajasini emas, balki uning o'zgarish yo'nalishini baholaydi⁵⁷.

Muvozanatli foiz stavkalarini baholashning muhim yo'nalishi moliyaviy barqarorlik risklarining mumkin bo'lgan to'planishi tufayli muvozanat stavkalarining standart ta'rifida iqtisodiyotning nomutanosibligiga yo'naltirilgan ishlar bilan ifodalanadi⁵⁸.

Kredit mexanizmining muhim metodologik masalalaridan biri bo'lib, kredit riskini baholash hisoblanadi.

“Bazel – 1 tizimiga binoan:

⁵⁴ Hamilton J., Harris E., Hatzius J. and West K. The Equilibrium Real Funds Rate: Past, Present and Future. IMF Economic Review, 2016. – 64(4). – R. 660–707.; Grafe C., Grut S. and Rigon L. Neutral Interest Rates in CEEMEA – Moving in Tandem with Global Factors. Russian Journal of Money and Finance, 2018. – N 77(1). – R. 6–25.; Beyer R. C. M. and Wieland V. Instability, Imprecision and Inconsistent Use of Equilibrium Real Interest Rate Estimates. Journal of International Money and Finance, 2019. – 94. – R. 1–14.; Lundvall H. and Westermark A. (2011). What Is the Natural Interest Rate? Sveriges Riksbank Economic Review, 2011. – 2. – R. 7–26.

⁵⁵ He D., Wang H. and Yu X. Interest Rate Determination in China: Past, Present and Future. International Journal of Central Banking, 2015. – 11(4). – R. 255–277.

⁵⁶ Giammarioli N. and Valla N. The Natural Real Interest Rate and Monetary Policy: A Review. Journal of Policy Modelling, 2004. – 26(5). – R. 641–660.; Kocherlakota, N. The Equity Premium: It's Still a Puzzle. Journal of Economic Literature, 1996. – 34. – R. 42–71.

⁵⁷ Blanchard O., Furceri D. and Pescatori A. A Prolonged Period of Low Real Interest Rates? In: C. Teulings and R. Baldwin, eds., Secular Stagnation: Facts, Causes and Cures., 2014. – London: CEPR Press. – R. 101–110.

⁵⁸ Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. International Journal of Central Banking, 2017. –13(3). – R. 55 — 89.

– risk darajasini o‘lchash standart koeffitsiyentlari aktivlarning keng toifalariga, chunonchi: davlat (suveren), bank va korporativ aktivlarga beriladi. Masalan, korporativ riskni qoplash uchun qarz oluvchining kredit sifatidan qat’iy nazar kapitalga 8% (ya’ni riskni o‘lchash koeffitsiyentining 100%) miqdorida ajratmalar qilish nazarda tutiladi;

– tijorat banklari tomonidan mijozlarga berilgan har qanday kreditning risk darajasi 100 foizga teng;

– kreditlar risk darajasiga ko‘ra, bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi”⁵⁹.

“Bazel-II standartida kredit riskini baholashda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar quyidagilarni hisobga oladi:

– mamlakatning suveren kredit reytingi;

– bankning reytingi;

– kredit olgan mijozning reytingi;

– bank operatsiyasining turi.

Bazel-II ning muhim talablaridan biri yetarli darajada zaxira ajratmalari bilan ta’minlanmagan bank kreditlarining risk darajasini oshirish talabidir. Ushbu talabning mohiyati shundaki, kreditning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa, yaratilgan zaxira ajratmasi miqdori kredit bo‘yicha umumiy qarzdorlikning 20 foizidan kam bo‘lsa, u holda, mazkur kreditlarning risk darajasi 150 foizni tashkil qiladi”⁶⁰.

Bazel-II standartida taklif etilgan “Ichki reytinglar asosidagi yondashuvda kredit riski darajasi bankning ichki reytinglariga asoslangan ballarga bog‘liq ravishda belgilanadi. Banklarning ichki reytingi esa, mijozlarning kredit tarixiga asosan belgilanadi. Mazkur yondashuvda uch muhim jihat mavjud:

– bank o‘zining va o‘z kontragentlarining krizis yoki bankrot imkoniyatlariga mustaqil baho berishni amalga oshirishga qodir bo‘lishi lozim;

– bank risklarga integral baho bera olishi zarur;

⁵⁹ Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. – Basel, 1998. <http://www.bis.org.publications>.

⁶⁰ Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

– ichki baholash bank qanday ma'lumotlardan foydalanishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni bank o'z risklarini ishonchli ma'lumotlarga muvofiq o'lchashga qodir bo'lishi shart"⁶¹.

Ta'kidlash joizki, xalqaro bank amaliyotida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining bank amaliyotida kreditlarni tasniflash va ular bo'yicha zaxiralar tashkil qilishda Bazel qo'mitasining talablari qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklarining tasniflangan kreditlari besh toifaga – “standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlarga bo'linadi”⁶². “Bunda:

* sifati “standart” deb tasniflangan kreditlarning belgilari

– aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi;

– qarzdor tomonidan oxirgi 180 kunda aktivlarning asosiy qarzi va (yoki) foizlari bo'yicha muddati 30 kungacha kechiktirilgan yagona holat mavjud bo'lsa;

* sifati “substandart” deb tasniflangan kreditlarning belgilari:

– moliyaviy holati yoki ta'minotni nazorat qilish borasida shubhalar bo'lsa;

– kredit hujjatlarida yetarlicha axborot yoki ta'minot bo'yicha hujjatlari bo'lmasa;

– qarzdorning 2-son kartotekasi mavjud bo'lib, undagi to'lov hujjatlarining muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa (2-son kartotekasida ushbu aktivni so'ndirish bo'yicha to'lov talabnomasi mavjud bo'lgan yoki faoliyati mavsumiy xususiyatga ega qarzdorlar bundan mustasno);

– oxirgi 180 kun ichida aktivlarning asosiy qarzi va (yoki) foizlari bo'yicha muddati 30 kungacha kechiktirilgan bir nechta holatlar mavjud bo'lsa;

– ishonchli (e'timodli) aktivlarning asosiy qarzi va (yoki) foizlari bo'yicha 90 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;

⁶¹ Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org/publications>.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. — №28. – 22-33-b.

– ta’minlangan aktivlar bo’yicha asosiy qarz va (yoki) foizlar bo’yicha 31 kun va undan ortiq, lekin 90 kundan oshmagan muddati o’tgan qarzdorlik mavjud bo’lsa”⁶³;

* “sifati “qoniqarsiz” deb tasniflangan kreditlarning belgilari:

– asosiy to’lov manbalari qarz to’lash uchun yetarli bo’lmasa, ta’minotga qo’yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to’lanishi lozim bo’lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo’shimcha to’lov manbalarini topish talab etiladigan bo’lsa;

– qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag’larining mo’ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo’lmasa;

– qarz oluvchining kapitali yetarli darajada bo’lmasa;

– qarzdorning 2-son kartotekasida 91 kun va undan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to’lov hujjatlari mavjud bo’lsa (2-son kartotekasida ushbu aktivni so’ndirish bo’yicha to’lov talabnomasi mavjud bo’lgan yoki faoliyati mavsumiy xususiyatga ega qarzdorlar bundan mustasno);

– ushbu sohaga nisbatan tendensiya va istiqbollari barqaror bo’lmasa;

– bank aktivining ta’minot qiymatiga nisbati bankning ichki hujjatlarida ko’rsatilgan chegaradan ko’p bo’lsa (ishonchli (e’timodli) aktivlar bundan mustasno));

– asosiy qarz va (yoki) foizlar bo’yicha 91 kun va undan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddati o’tgan qarzdorlik mavjud bo’lsa;

* sifati “shubhali” deb tasniflangan kreditlarning belgilari:

– “qoniqarsiz” aktivlarning hech bo’lmaganda birorta ko’rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo’lsa (bozorda oson sotiladigan ta’minotning mavjud emasligi yoki ta’minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e’lon qilinishi);

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo’yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. — №28. – 22-33-b.

- yaqin kelajakda aktivning qisman to‘lanish ehtimoli mavjud bo‘lsa;
- qarzdorning 2-son kartotekasida 181 kun va undan ortiq, lekin 365 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa (2-son kartotekasida ushbu aktivni so‘ndirish bo‘yicha to‘lov talabnomasi mavjud bo‘lgan yoki faoliyati mavsumiy xususiyatga ega qarzdorlar bundan mustasno);
- asosiy qarz va (yoki) foizlar bo‘yicha 181 kun va undan ortiq, lekin 365 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa’⁶⁴;
- * “sifati “umidsiz” deb tasniflangan kreditlarning belgilari:
 - qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlardan foydalanish yo‘li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo‘yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo‘lsa;
 - qarzdorning 2-son kartotekasida muddati 366 kun va undan ortiq kunga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa;
 - asosiy qarz va (yoki) foizlar bo‘yicha 366 kun va undan ortiq kunga muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa’⁶⁵.

Kredit mexanizmining asosiy metodologik masalalaridan biri – bu, shubhasiz, kreditlarni berish va qaytarish bo‘yicha talablar belgilanishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005-yil 16-iyuldagi 15/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi nizomga asosan:

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. — №28. – 22-33-b.

⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. — №28. – 22-33-b.

“– bank sindikati kredit jildidagi barcha hujjatlarni ko‘rib chiqib kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilganidan, yetakchi va har bir ishtirokchi bankning sinditsiyalashtirilgan kreditdagi ulushi aniqlangandan keyin, yetakchi va ishtirokchi banklar va qarz oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi imzolanadi;

– ishtirokchi banklar va qarz oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi tuzilgandan so‘ng, har bir ishtirokchi bank sinditsiyalashtirilgan kreditlash to‘g‘risidagi kelishuvda qayd etilgan shartlar asosida qarz oluvchiga o‘z bankida belgilangan tartibda alohida ssuda hisobvarag‘i ochadi;

– ishtirokchi banklar va qarz oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi tuzilgandan so‘ng, har bir ishtirokchi bank sinditsiyalashtirilgan kreditlash to‘g‘risidagi kelishuvda qayd etilgan shartlar asosida qarz oluvchiga o‘z bankida belgilangan tartibda alohida ssuda hisobvarag‘i ochadi;

– ishtirokchi banklar tomonidan kreditlashni amalga oshirish kredit shartnomasida belgilangan maqsadlar va muddatlarda har bir ishtirokchi bank uchun belgilangan kalendar muddatida qarz oluvchining to‘lov topshiriqnomalari asosida tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun ssuda hisobvarag‘idan naqd pulsiz shaklda to‘lash yo‘li bilan amalga oshiriladi;

– sinditsiyalashtirilgan kreditning summasi har bir ishtirokchi bank balansida, uning tomonidan berilgan kredit miqdoriga teng ulushda aks ettiriladi;

– qaytarish muddati yetib kelganda va qarz oluvchining pul mablag‘lari mavjud bo‘lmagan taqdirda, kredit muddati o‘tgan ssudalar hisobvarag‘i orqali undirib olishga taqdim etiladi, u bo‘yicha muddatli majburiyatnomalar esa 2-kartotekaga joylashtiriladi va qonunchilikda belgilangan tartibda undiriladi;

– yetakchi bank tomonidan qarz oluvchining kreditni qaytarish qobiliyatini, berilgan kreditdan maqsadli foydalanishi va garov holati yoki kafilning moliyaviy holati bo‘yicha kreditdan foydalanishning butun muddati davomida monitoring amalga oshiriladi. Ushbu monitoring ishtirokchi banklar talabi asosida, ular

ishtirokida yoki kredit shartnomasida belgilangan tartibda har bir ishtirokchi bank tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin⁶⁶.

O‘zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklari kreditlarni “foizlarni o‘stirmaslik” maqomiga quyidagi hollarda o‘tkazadi:

– aktivlar Markaziy bankning normativ hujjatlariga muvofiq qoniqarsiz, shubhali va umidsiz turlarga tasniflanganda;

– aktiv MHXS ga muvofiq qadrsizlanganda;

– asosiy summani qaytarish yoki uning foizini to‘lash muddati 60 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda (qaytarish muddati bir yilgacha bo‘lgan foizli aktivlar bo‘yicha);

– asosiy summani qaytarish yoki uning foizini to‘lash muddati 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda (qaytarish muddati bir yildan ko‘p bo‘lgan foizli aktivlar bo‘yicha)”⁶⁷.

Alohida e‘tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasida imtiyozli kreditlar mamlakat Prezidentining Farmonlari va Qarorlari bilan tasdiqlangan davlat dasturlari doirasida beriladi. Lekin, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotidan farqli ravishda, imtiyozli kreditlar bo‘yicha kredit riski tijorat banklarining zimmasiga yuklangan.

Respublikamizda 2022 yil davomida “oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida:

a) loyihalarni moliyalashtirish uchun maqsadli jamg‘armalar hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining (keyingi o‘rinlarda — jamg‘armalar) resurslari tijorat banklariga yillik 10 foiz stavkada joylashtiriladi;

b) imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada:

⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida/(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 34–36-son, 265-modda; 2010-y., 44-45-son, 399-modda; 2016-y., 49-son, 564-modda).

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2003-yil 11-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 24-yanvarda 1304-sonli raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) «Foizlarni o‘stirmaslik to‘g‘risida»gi nizom. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 632-652 b.

oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shugʻullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga - 3 oydan 6 oygacha boʻlgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;

chorvachilik (qoramol, qoʻy, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yoʻnalishi) uchun - 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;

bogʻdorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xoʻjaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish uchun - 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga;

oilaviy mehmon uylari, xostellar, oʻtov lagerlari majmuasi, avtokempinglar, ekouylar majmuasi, konteyner shaharchalar va chodirli lagerlar tashkil etish va ularni taʼmirlash uchun - 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 5 yilgacha muddatga;

“Hunarmand” uyushmasi aʼzolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, “usta-shogird” maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun — 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablagʻlarini toʻldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratiladi;

v) kreditlar mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha tuman (shahar) hokimi yordamchisining oʻziga biriktirilgan mahallada istiqomat qilayotgan (joylashgan) qarz oluvchiga beradigan tavsiyasi asosida ajratiladi;

g) chorvachilikni rivojlantirish yoʻnalishida kreditlar ustuvor ravishda kamida 10 dan 50 boshgacha chetdan keltirilgan naslli chorva mollarini (qoramol, qoʻy, echki) boqish uchun kichik fermalarni tashkil etishga beriladi;

d) “yetakchi” tadbirkorlik subyektlariga dehqon xoʻjaliklari yer maydonlari va aholi tomorqalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini kooperatsiya asosida

yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni xarid qilish uchun aylanma mablag‘larni to‘ldirishga kreditlar ajratiladi”⁶⁸.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Dissertatsion tadqiqotning birinchi bobini yozish jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik.

Kredit mexanizmi va uni takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili natijalari ko‘rsatdiki:

– kredit mexanizmi kredit munosabatlarini amalga oshirish mexanizmi bo‘lib, kredit munosabatlarining subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘zida aks ettiradi va kredit tizimining ma’lum bir tarixiy, milliy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi amal qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi;

– kredit mexanizmi – bu kredit munosabatlari ishtirokchilarining o‘zaro kelishilgan manfaatlari bo‘lib, o‘zida ham ssuda kapitalining harakati maqsadlarini, ham kreditning rag‘batlari va transformatsiyasini aks ettiruvchi o‘zaro aloqalar va munosabatlar tizimi shaklida namoyon bo‘ladi;

– kredit mexanizmining holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, kreditlarning samaradorligi hisoblanadi va iqtisodchi olimlarning xulosalariga ko‘ra, kreditning samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi mavjud bo‘lib, ular orasida muammoli kreditlar va kreditlarning daromadlilikini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, risklarni diqqat bilan kuzatish, sifatli kredit yig‘ma jildini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun yaxshi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lish muhim o‘rin tutadi;

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda PQ-55-sonli «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021-y., 07/21/55/1173-son; 30.04.2022-y., 07/22/232/0378-son.

– kredit oluvchi mijozning pul oqimini tahlil qilish kredit riskini pasaytirishda muhim o‘rin tutadi va kredit portfelining sifatini ta‘minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi;

– kredit riskini baholash va boshqarishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kredit oluvchining defolt bo‘lish ehtimolini baholash modellaridan foydalanish hisoblanadi va bunda Altman, Yermolova-Penikas va Mogilat modellaridan foydalanishga oid tavsiyalar iqtisodiy adabiyotda keng uchraydi;

– defoltni aniqlashda Bazal qo‘mitasining muddati o‘tgan kreditlar bo‘yicha prudensial me‘yorlariga mos keluvchi 90 kun va undan muddatdagi muddati o‘tgan qarzdorlikni asos sifatida olgan maqsadga muvofiq bo‘lib, bankrotlik defoltning 3-5 yilga kechikkan indikatori hisoblanadi.

Kredit mexanizmining elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta‘minlash masalasini tadqiq qilish natijalari ko‘rsatdiki:

– kredit shartnomasi tijorat banki bilan kredit oluvchi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi birlamchi huquqiy hujjat bo‘lganligi sababli, kredit shartnomasini to‘g‘ri va o‘zaro manfaatli qilib tuzish kredit mexanizmining samarali amal qilishining zaruriy sharti hisoblanadi;

– kredit mexanizmining asosiy elementlaridan biri kreditlash shakllari bo‘lgani holda, ular kreditlardan foydalanish samaradorligiga bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi (masalan, respublikamiz bank amaliyotida kreditlash amaliyotida kreditlashning eng keng qo‘llaniladigan shakli bo‘lib, alohida ssuda schyotidan bir marotabali kreditlash shakli hisoblanadi va bunda kreditdan foydalanish samaradorligi past; Angliya bank amaliyotida overdraft shaklida kreditning risk darajasini pasaytirishga muvaffaq bo‘lingan);

– amaliyotda kreditlar bo‘yicha majburiyatlar ijrosini u yoki bu usuli bilan ta‘minlanganlik kreditor uchun kreditni undirish bilan bog‘liq muammo bartaraf etildi, degani emas;

– kredit oluvchilarning kredit to‘loviga layoqatligini baholash tartibi tijorat banklari va kredit oluvchilar o‘rtasidagi kredit munosabatlarning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi va taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda ikki usuldan – moliyaviy koeffitsiyentlar usuli va umumiy pul oqimini baholash usulidan foydalanilmoqda;

– tijorat banklarining kreditlari ta'minoti xususidagi xulosasi O'zbekiston bank amaliyoti uchun o'ziga xos xususiyatlarga (respublikamizda yer maydonlari davlatning mulki hisoblanadi, yuridik shaxslar joylashgan yer maydonlari tijorat banklari uchun garov obyekti bo'la olmaydi; O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida to'lovsizlik muammomi mavjud bo'lganligi sababli debitor qarzdorlikning aylanish tezligi sezilarli darajada past; tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar rivojlanmaganligi sababli sug'urta polislarning tijorat banklari kreditlarining ta'minoti hajmidagi salmog'i juda kichik) ega;

– respublikamizda to'lovlarning maqsadli ketma-ketligini qo'llanilayotganligi kredit olmoqchi bo'lgan va kredit olgan mijozlarning davlat byudjeti oldidagi qarzdorligini va ushbu qarzdorlikni o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatlarini baholash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Kredit mexanizmining metodologik asoslarini tadqiq qilish natijalari ko'rsatdiki:

– kreditlarning foiz stavkasini shakllanishining bozor mexanizmi milliy ssuda kapitallari bozorining to'laqonli shakllangan bo'lishini, ya'ni, milliy ssuda kapitallari bozorining har ikkala segmentida operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmlari takomillashgan bo'lishi kerak.

– kreditlarning foiz stavkalarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta'minlash masalasining markaziy masalalaridan biri bo'lib, muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish hisoblanadi va muvozanatlashgan foiz stavkasi konsepsiyasini amalda qo'llashning muammolari bo'lib quyidagilar hisoblanadi;

– obyektни amalda kuzatilmaydigan obyekt hisoblanishi;

– hatto bitta konsepsiya doirasida ham (masalan, neokeynscha) muvozanatlashgan stavka qaysi model (ochiq yoki yopiq iqtisodiyot; moliyaviy

taranglikka (siquv))ega iqtisodiyot yoki tarangliksiz iqtisodiyot) ko‘rib chiqilayotganiga qarab turli darajaga ega bo‘lishi mumkin;

– turli usullar bilan olingan muvozanat foiz stavkalari hisob-kitoblari juda yuqori noaniqlik bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi va ushbu holat mazkur hisob-kitoblarning pul-kredit siyosati maqsadlariga muvofiqligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega;

– Bazel-II standartida kredit riskini baholashning yangi usuli taklif qilindi va ushbu usulda kredit riski darajasi kredit oluvchining kredit reytingiga bog‘liq ravishda belgilanadi.

**II – BOB. KREDIT MEXANIZMINING METODOLOGIK VA
AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJ
TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTON BANK AMALIYOTIDA
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

2.1-§. Kredit mexanizmining zamonaviy holati

Taraqqiy etgan mamlakatlarning amaliyotida kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish borasida ijobiy tajriba to‘plangan va ushbu tajribadan foydalanish O‘zbekiston bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit mexanizmining zamonaviy holatiga baho berishni kreditlarning miqdori va darajasiga baho beramiz.

2.1-jadval
“Deutsche Bank”ning (Germaniya) kreditlari miqdori va darajasi⁶⁹

Ko‘rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlar miqdori, mlrd. yevro	401	429	449	442	485	496
Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i, %	27,2	31,8	34,6	33,4	36,7	37,1

2.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlaridan aniq ko‘rinadiki, 2020-2022 yillarda “Deutsche Bank” kreditlarining miqdori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning ustiga, kreditlar miqdori 2022 yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Mazkur holatlar kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, kreditlash tijorat banklari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lganligi sababli banklarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligi bevosita kredit portfelining sifatiga bog‘liqdir. O‘z navbatida, tijorat

⁶⁹ Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet www.db.com («Deutsche Bank»)ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

banklari kredit portfelining sifatini baholashning asosiy mezonlari bo‘lib, kreditlarning riskliligi va daromadliligi hisoblanadi.

2.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, “Deutsche Bank” brutto aktivlarining hajmida kreditlarning salmog‘i 2020-2022 yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlarning o‘shish sur‘atini brutto aktivlarning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Quyidagi jadval ma’lumotlari orqali “Bank of America” banki kreditlarining miqdori va darajasiga baho beramiz.

2.2-jadval
“Bank of America” (AQSH) banki kreditlarining miqdori va darajasi⁷⁰

Ko‘rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlar miqdori, mlrd. dollar	936	946	983	927	979	1045
Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i, %	41,0	40,2	40,4	32,9	30,9	34,3

2.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan aniq ko‘rinadiki, “Bank of America” banking kreditlari miqdori 2017-2019-yillarda hamda 2020-2022 yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har qanday mamlakatda tijorat banklarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ular tomonidan berilayotgan kreditlarning hajmi va ko‘lami bilan belgilanadi. Shu sababli, tijorat banklarining moliyaviy vositachi sifatidagi rolini tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda banklarning kreditlash faoliyatiga alohida e’tibor qaratiladi⁷¹.

⁷⁰ Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www. vankofamerisa.com («Bank of Amerisa») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷¹ Бобрик М.А. О повышении роли кредита и банков в инновационном развитии экономики России//Финансы и кредит. – 2011. – № 4. – С. 69–71.; Бровкина Н.Е. Кредитный рынок: закономерности, тенденции, перспективы: монография / Н.Е. Бровкина. – Москва: КНОРУС, 2019. – 280 с.; Валенцева Н.И., Ларионова И.В. Оценка финансовой устойчивости и перспектив деятельности кредитных организаций. Учебное пособие. –М.: КНОРУС, 2018. – 242 с.; Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.% ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С. 880с.

2.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, "Bank of America" bankining kreditlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 2022 yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning bankning brutto aktivlari hajmidagi salmog'ining oshganligi bilan izohlanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari ham, emission operatsiyalari juda yaxshi rivojlangan. Shunisi ahamiyatliki, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalardan, asosan, foizli daromad olinadi. Chunki, mazkur banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining asosiy qismini qat'iy belgilangan stavkaga ega bo'lgan korporativ qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar tashkil etadi.

Shunisi ahamiyatliki, taraqqiy etgan davlatlarda Hukumat qimmatli qog'ozlarning yirik emitenti hisoblanadi. Bu esa, Markaziy banklarga ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish imkonini bersa, tijorat banklariga joriy likvidliligini ta'minlash va ushbu qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yib Markaziy bankdan lombard kreditlari olish imkoniga ega bo'ladi.

Biroq, ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda davlatning qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanmaganligi sababli tijorat banklari bunday qulay imkoniyatlarga, ya'ni davlatning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish orqali joriy likvidliligini ta'minlash va ushbu qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yib Markaziy bankdan lombard kreditlari olish imkoniga ega emas. Buning ustiga, mazkur mamlakatlarda inflyatsiya darajasi va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati yuqori bo'lganligi sababli davlatning qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash qiyin.

Kredit mexanizmining holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib shuni keltirib o'tishimiz mumkin, kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori va ularning foizli daromadlarning umumiy hajmidagi salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi.

2.3-jadval

“Deutsche Bank”ning (Germaniya) kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori va darajasi⁷²

Ko'rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. yevro	13,0	13,8	11,4	10,5	14,1
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi, %	52,4	74,6	69,9	72,9	54,7

2.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, “Deutsche Bank”ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada (8,5 %) ko'paygan. Bu esa, bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Germaniya bank amaliyotida tijorat banklarining foizli daromadlarini uch guruhi mavjud:

* qat'iy belgilangan stavkaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlar;

* kreditlardan olingan foizli daromadlar;

* qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi qilishdan olingan daromadlar.

2.3-jadval ma'lumotlar va tahlil natijalaridan ko'rishmiz mumkinki, “Deutsche Bank”ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining jami foizli daromadlardagi ulushi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan, 2022 yilda 2018-yilga nisbatan oshgan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, kreditlarning daromadlilik banklarning kredit portfelini sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi; ikkinchidan, kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori va darajasi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biridir.

⁷² Jadval Annual Reports. Concolidated Statement of income. www.db.com («Deutsche Bank»)ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.4-jadval

“Bank of America” (AQSH) bankining kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori va darajasi⁷³

Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. dollar	40,8	43,1	34,0	29,3	37,9
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi, %	61,8	60,7	66,7	62,3	52,6

2.4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, “Bank of America” bankining kreditlardan olgan foizli daromadlarining miqdori 2018-2021-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2.4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, “Bank of America” bankining kreditlardan olgan foizli daromadlarining jami foizli daromadlardagi ulushi 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlar miqdorini kamayganligi bilan izohlanadi va kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklarining kreditlardan oladigan foizli daromadlariga ta’sir qiluvchi asosiy omil bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- * muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog‘ining o‘zgarib borishi;

- * tasniflangan kreditlar tarkibining o‘zgarishi;

- * kreditlarning foiz stavkalarini o‘zgarishi;


- * foiz o‘stirmaslik maqomiga ega bo‘lgan kreditlar miqdorining o‘zgarishi.

AQSHda tijorat banklarining o‘zi muddati o‘tgan kreditlar va muddati o‘tgan foizlarni balansdan chiqarish vakolatiga ega. Ya’ni, bank nazorati organining bu borada talablari mavjud emas.

⁷³ Jadval Annual Reports. Consolidated Statement of income. Sheet. www.vankofamerisa.com («Bank of America») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasida Markaziy bank bank nazorati organi sifatida tijorat banklarining muddati o‘tgan kreditlari va muddati o‘tgan foizlarini balansdan chiqarishga nisbatan talablari mavjud.

Biz quyidagi keltirilgan rasmda kreditlardan olingan foizli daromadlarning o‘shish sur‘ati bilan kreditlarning o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikka baho beramiz.




2.1-rasm. “Deutsche Bank”da (Germaniya) kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari⁷⁴

2.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Deutsche Bank”da kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi mutanosiblik 2018, 2019 va 2022 yillarda ta’minlangan. Biroq, 2020 va 2021-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlanmagan.

Quyidagi rasm ma’lumotlari orqali “Bank of America” bankida kreditlardan olingan foizli daromadlarning o‘shish sur‘ati bilan kreditlarning o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikka baho beramiz.

⁷⁴ Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet; Concolidated Statement of income. www.db.com («Deutsche Bank») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




2.2-rasm. “Bank of America” (AQSH) bankida kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari⁷⁵

2.2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan aniq ko‘rinadiki, “Bank of America” bankida 2018, 2019 va 2022 yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlangan. Biroq, 2020 va 2021-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlanmagan.

“Bank of America” bankida 2020 va 2021-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlanmaganligi, asosan, dunyo miqyosida epidemiyaga aylanib ketgan koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq. Pandemiya davrida AQSH banklari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha katta miqdordagi muddati o‘tgan qarzdorlik yuzaga keldi. Bu esa, kreditlarning daromadlilikiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu holatni yuqorida keltirilgan rasm ma’lumotlaridan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Banklar kredit mexanizmining holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri – bu kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlar ya’ni jami aktivlarga nisbatan darajasi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

⁷⁵ Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet; Concolidated Statement of income. Sheet. www.vankofamerisa.com («Bank of Amerisa») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2.3-rasm. “Deutsche Bank”da (Germaniya)⁷⁶ va “Bank of America” (AQSH) bankida⁷⁷ kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %

2.3-rasm ma’lumotlaridan yaqqol ko‘rinadiki, “Deutsche Bank”da va “Bank of America” bankida 2018-2022 yillarda kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining jami, ya’ni brutto aktivlarga nisbatan darajasi ushbu ko‘rsatkichning me’yoriy darajasidan (1,0%) ancha past bo‘lgan. Bu holat esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori bevosita tasniflangan kreditlarning tarkibiga bog‘liq bo‘lib, tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishi, ya’ni shubhali va umidsiz kreditlarning tasniflangan kreditlarning umumiy hajmidagi salmog‘ining oshishi zaxira ajratmalari summasining ko‘payishiga olib keladi. Chunki, Bazel qo‘mitasining talabi bo‘yicha standart va yaxshi kreditlar bo‘yicha zaxira tashkil qilinmaydi.

⁷⁶ Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of Income. www.db.com («Deutsche Bank») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷⁷ Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.bankofamerica.com («Bank of America») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**“Deutsche Bank”da (Germaniya)⁷⁸ va “Bank of America” (AQSH) bankida⁷⁹
kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira
ajratmalarining miqdori va dinamikasi**

Banklar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yilda 2018- yilga nisbatan o‘zgarishi, %
“Deutsche Bank”, mln. yevro	525	725	1792	515	1226	233,5
“Bank of America”, mlrd. dollar	3,3	3,6	11,3	4,6	2,5	75,7

2.5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2018-2020-yillarda “Deutsche Bank”da kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning ustiga, mazkur zaxira ajratmalarining miqdori 2022 yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur’atda o‘sgan. 2020 – 2022 yillar davomida esa, mazkur zaxira ajratmalari kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

2.5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020-2022 yillarda “Bank of America” bankida kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Shuningdek, mazkur zaxira ajratmalarining miqdori 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Kreditlardan ko‘riladigan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi ularning riskli aktivlarga nisbatan darajasini ham aniq ko‘rsatadi. Chunki, tijorat banklarida brutto aktivlarning asosiy qismini riskli aktivlar tashkil etadi. Ayniqsa, taraqqiy etgan mamlakatlarda riskli aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i juda yuqori (90-95%).

⁷⁸ Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. Consolidated Statement of Income («Deutsche Bank») www.db.com ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷⁹ Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.bankofamerica.com («Bank of America») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.2-§. Kredit riskini baholash borasidagi ilg'or xorij tajribasi

Kredit riskini baholash va boshqarish kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri bo'lganligi sababli ushbu elementni alohida paragraf doirasida tadqiq qilishni maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, shu jumladan Germaniya va Fransiyada kredit riskini baholash bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan Bazel-II standartida tavsiya etilgan standartlashgan yondashuv bank amaliyotiga qabul qilingan. Ushbu yondashuvda kredit riskining darajasi kredit oluvchining kredit reytingiga bog'liq ravishda belgilanadi.

2.6-jadval

Bazel-II standartiga tavsiya etilgan kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuvda kredit riskini baholash tartibi⁸⁰

Reyting	Riskka tortish koeffitsiyentlari (%)			
	Davlat va Markaziy banklar	Kredit tashkilotlari (1-variant)	Kredit tashkilot (1-variant) (qisqa muddatli talablar)	Yuridik shaxs
AAA dan A gacha	0	20	20 (20)	20
A+ dan A – gacha	20	50	50 (20)	50
BBB + dan BBB – gacha	50	100	50 (20)	100
BB + dan BB – gacha	100	100	100 (50)	100
B + dan B – gacha	100	100	100 (50)	150
B – past	150	150	150 (150)	150
Reytingsiz	100	100	50 (20)	100

2.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, Bazel-II standartiga tavsiya etilgan kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuvga ko'ra, kredit oluvchining suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo'ladi. Masalan, suveren kredit reytingi AAA dan AA gacha bo'lgan davlatlarning hukumatlariga va Markaziy banklariga berilgan kredit risk darajasi nolga teng, mazkur davlatlardagi kredit tashkilotlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga, yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga teng.

⁸⁰ Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

2.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, suveren kredit reytingi B – dan past bo'lgan davlatlarning Hukumatlariga, Markaziy banklariga, kredit tashkilotlariga va yuridik shaxslariga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng.

2.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Xalqaro reyting agentliklarining reyting bahosiga ega bo'lmagan bank mijozlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng.

Xalqaro bank amaliyotida "Standard & Poor's" xalqaro reyting agentligining kredit riskini baholash metodikasidan keng foydalaniladi.

"Standard & Poor's" xalqaro reyting agentligi kompaniyalarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda kutilayotgan siklik pasayishlarni va ishbilarmonlik faolligini ko'tarilishlarini o'rganadi va bunda tarmoq ichidagi va butun iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Ishbilarmonlik sikli bosqichining davomiyligi va chuqurligi diapazonlari bo'yicha bir-biridan sezilarli darajada farqlanishi mumkin, shuning uchun ularning kompaniyalarning kredit to'loviga ta'sirini baholash murakkab hisoblanadi⁸¹.

E'tirof etish joizki, AQSHda bank risklarini, shu jumladan, kredit risklarini boshqarishda katta tajriba to'plangan⁸². Ana shunday boy tajribalardan biri bo'lib, 2009-yilda Kapitalni baholash bo'yicha Nazorat dasturini (Supervisory Capital Assessment Program, SCAP) amaliyotga joriy etilganligi hisoblanadi.

SCAP dasturining asosiy maqsadi bo'lib, AQSHning yirik tijorat banklarida moliya bozorlaridagi keskin noqulay o'zgarishlar yuz bergan sharoitda kapitalning hajmini oshirish yoki uning tarkibiga o'zgartirishlar kiritishni ta'minlash hisoblanadi⁸³.

SCAP dasturini amaliyotga joriy etishning zarurligini belgilovchi omil bo'lib, 2008-yilning to'rtinchi choragida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hisoblanadi. Ushbu inqiroz ta'sirida AQSHda yuzlab banklar bankrot bo'ldi. Mazkur

⁸¹ Assessing Global Macro-Credit Risks// SPGlobal.com/ratings.

⁸² Стешина М.О., Михайлова Н.А. Совершенствование международных принципов управления банковскими рисками // Международные банковские операции. 2008. № 4.

⁸³ The Supervisory Capital Assessment Program: Design and Implementation. Board of Governors of the Federal Reserve System, April 2009//www.federalreserve.gov.

bankrotlikning sabablari o'rganilganda ma'lum bo'lgan asosiy sabablardan biri banklar kapitalining yetarli emasligi, ya'ni kapitalni yuzaga kelgan zararlarni qoplash uchun yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Bu esa, AQSH Markaziy bankini nazorat organi sifatida banklarning moliyaviy inqirozlarga chidamliligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga majbur qildi.

SCAP qoidalariga muvofiq, AQSHning kamida bitta bankni nazorat qiluvchi tuzilmaga ega bo'lgan 19 ta yirik bank xoldinglari (Bank Holding Company, BHC) regulyator belgilab bergan tartibda stress-testlashni amalga oshirishi shart bo'lib, dasturda barcha banklarning ishtirok etishi majburiy edi (shu tariqa bank xizmatlari bozorida yuqori mavqega ega bo'lgan va jami banklar aktivlarining uchdan ikki qismiga ega bo'lgan banklarni stress-testlash ta'minlandi)⁸⁴.

SCAP avval boshdan shunday tuzilganki, unda, berilgan kreditlar bo'yicha va bankning investitsiya portfelidagi risklar bo'yicha aniq hisob-kitoblar amalga oshiriladi, tijorat bankining eng pessimistik makroiqtisodiy ssenariy bo'yicha kapital hisobidan zararlarni qoplay olish imkoniyatiga baho beriladi va ushbu baholash kreditlarning 12 ta turi bo'yicha amalga oshiriladi⁸⁵.

Mazkur dasturda kreditlar bo'yicha zararlarni hisoblash kelgusidagi zararlar uchun zaxiralash prinsipi asosida amalga oshiriladi va shubhali kreditlar bo'yicha yuzaga kelgan zararlarni bankning balansidan chiqarishni ko'zda tutadi. Ushbu prinsipni qo'llanilishi banklardan kredit portfelini moliya bozorlarida baholarning tebranishi munosabati bilan qayta baholashni talab etmaydi.

Shuningdek, AQSH bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholash kredit riskini baholashning muhim mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

AQSH tijorat banklarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda «6 S» qoidasidan foydalaniladi:

* Character – mijozning xarakteri;

⁸⁴ Singh D. Banking regulation of UK and US financial markets. Ash gate Publishing, Ltd., 2007, R. 31–33.

⁸⁵ The Supervisory Capital Assessment Program: Design and Implementation. Board of Governors of the Federal Reserve System, April 2009//www.federalreserve.gov.

* Capacity – mijozning to‘lovga qobilligi (mijozning moliyaviy holatini, likvidlilik koeffitsiyentlarini, moliyaviy koeffitsiyentlarini tahlil qilish);

* Capital – mijozning kapitali (kapitalni, o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lari o‘rtasidagi nisbatni, aktivlarning sifatini tahlil qilish);

* Collateral – ta‘minot (kredit uchun taqdim etiladigan ta‘minotni baholash);

* Conditions – shart-sharoit (mijoz faoliyat yuritayotgan mamlakatdagi va butun dunyodagi makroiqtisodiy shart-sharoitlar, ularni kreditning muddati davomida o‘zgarish prognozlarini, bozorni rivojlanish tendensiyalari va kredit oluvchining tovarlariga bo‘lgan talabning o‘zgarishi);

* Currency – pul mablag‘lari (kredit oluvchining pul mablag‘larini kreditlashning butun davri mobaynida prognoz qilish)⁸⁶

Yaponiyada tijorat banklarining mijozlari moliyaviy barqarorlik darajasiga bog‘liq ravishda tabaqalashtiriladi. 2000-yilda yaratilgan Risklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasi (RDB) 60 dan ortiq yirik va mintaqaviy banklarni ma‘lumotlar bilan ta‘minlaydi. Ushbu banklar RDB yordamida 910 ming kompaniyaning kredit riski to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish imkoniga ega⁸⁷.

Osiyo taraqqiyot banki ekspertlarining fikriga ko‘ra, Yaponiyaning kredit riski to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasini yaratish borasidagi tajribasini Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida qo‘llash kichik va o‘rta biznes subyektlarini kreditlash amaliyotining samaradorligini oshirish imkonini berar edi⁸⁸.

Shunisi ahamiyatliki, “Fintech for Asian SMEs” kompaniyasining mutaxassislari kredit riskining kompaniyaning kredit sifatini baholashga yo‘naltirilgan ko‘p omilli regressiyasining uch modelini ishlab chiqdi:

– moliyaviy model (buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotlardagi ma‘lumotlardan foydalanishga asoslangan model);

⁸⁶ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.

⁸⁷ Матвеевский С.С. Опыт Японии по использованию аналитики больших данных для снижения кредитного риска при финансировании малых и средних предприятий//Вестник университета. – Москва, 2019. - №10. – С. 182-187.

⁸⁸ Asian Development Bank. 2014. Asia SME Finance Monitor 2013. – Manila, 2014//<http://www.adb.org/> (data obrasheniya: 22.08.2019).

– bank hisobraqamlari modeli (kompaniyaning bankdagi hisobraqamlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanishga asoslangan model);

– gibridli model (ham moliyaviy ma‘lumotlardan, ham bankdagi hisobraqamlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanishga asoslangan model)⁸⁹.

Ta‘kidlash joizki, taraqqiy etgan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan davlatlarda ham tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning sezilarli qismini suzuvchi stavkada berilgan kreditlar tashkil qiladi. Bu esa, foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida kredit riski darajasining oshib ketish ehtimolini oshiradi. Yevropa Markaziy bankining rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020-yilning avgust oyi oxiriga kelib, yevrohudud banklari tomonidan berilgan jami kreditlarning 57 foizini suzuvchi stavkada berilgan kreditlar tashkil qildi⁹⁰.

Yevropaning qator mamlakatlarida (Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Chexiya, Vengriya, Portugaliya, Latviya, Litva, Bolgariya, Kipr) suzuvchi stavkada berilgan kreditlarning tijorat banklari tomonidan kreditlarning umumiy hajmidagi salmog‘i boshqa davlatlarga nisbatan yuqoridir. Masalan, ipoteka kreditlarining dastlabki 5 yillik muddati tugagandan so‘ng ularning Buyuk Britaniyada 91 foizi, Chexiyada 46 foizi, Vengriyada 41 foizi suzuvchi stavkadagi kreditlarga aylanadi⁹¹.

Kredit oluvchining defolt bo‘lish ehtimolini baholash kredit riskini baholashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bazel qo‘mitasining bank nazorati bo‘yicha (Bazel II standarti) tavsiyalaridan biriga muvofiq, defolt deganda kreditning asosiy qarz summasini va foizini to‘lay olmaslik yoki to‘lovini kechiktirish tushuniladi va quyidagi hodisalarning hech bo‘lmaganda bittasini yuz berishi nazarda tutiladi:

– bank hisoblaydiki, qarzdor kredit bo‘yicha majburiyatlarini bajarishga qodir emas (ta‘minot bo‘lsa, uni sotish orqali kredit bo‘yicha qarzdorlik undiriladi);

⁸⁹ Кремер, Н. Ш., Путко, Б. А. Эконометрика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 328 с.; Fintech for Asian SMEs. Edited by Naoko Nemoto and Naoyuki Yoshino. – Asian Development Bank Institute – 2019. – 195 p.

⁹⁰ Albertazzi U., Fringuellotti F., Ongena S. Fixed rate versus adjustable rate mortgages: evidence from euro area banks/ECB. Working Paper Series. October 2019. No. 2322.

⁹¹ Mortgage arrears, regulation and institutions: Cross-country evidence//Journal of Banking & Finance Volume 118, September 2020, 105889.

– qarzdor-yuridik shaxs kredit majburiyatlarini bajarishni 90 kundan ortiq muddatga kechiktiradi⁹².

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, kredit olgan yuridik shaxslarning defolt bo‘lish ehtimolini baholashning yangi va istiqbolli yo‘nalishi bo‘lib, nisbatan takomillashgan yondashuvlarga asoslangan modellardan foydalanish usuli (advanced models) hisoblanadi va ushbu modellarda parametrik bo‘lmagan usullardan foydalaniladi. Mazkur modellar tarkibiga neyron tarmoqlari modeli, toq mantiqiy usullar, yaqin hamsoya modellari kiradi. Neyron tarmoqlari modeli kompyuter algoritmlari bo‘yicha ekonometrik modellarni tuzishda foydalaniladigan ma’lumotlar asosida yaratiladi va bunda modelni tashkil etuvchilar o‘rtasidagi aloqadorlik ko‘p marotaba takrorlash, sinov va xatoliklar usullaridan foydalanish yo‘li bilan aniqlanadi⁹³.

“KMV Portfolio Manager” modeli “KMV Corporation” kompaniyasining xodimlari tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning asosida Mertona modeli yotadi. Ushbu modelga ko‘ra, kompaniya o‘zini defolt deb e’lon qilgandan so‘ng bankrot bo‘lgan holat modelda defolt nuqtasi deb hisoblanadi. Modelni yaratuvchilari tomonidan defolt nuqtasiga yetishni aniqlash uchun “defoltgacha bo‘lgan masofa” tushunchasi kiritilgan. “Defoltgacha bo‘lgan masofa” ko‘rsatkichi yordamida defoltning kutilayotgan empirik chastotasi (EDF) aniqlanadi. Ushbu modeldan foydalanish, pirovard natijada, kredit portfeli bo‘yicha zararlarni butun hisoblash davri mobaynida istalgan sanaga taqsimlash imkonini beradi, shuningdek, kapitalning kredit riskini qoplash uchun zarur bo‘lgan miqdorini o‘lchash imkonini beradi⁹⁴.

Ta’kidlash joizki, “Credit Portfolio View” modeli 1988-yilda “MakKinzi end Kampani” (McKinsey & Company) konsalting kompaniyasining xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan va ushbu modelda kompaniyalarning defolt bo‘lish ehtimoliga ta’sir qiluvchi omillar bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

* YAIMning o‘sish sur’ati;

⁹² Basel II: International Convergence of Capital Measurement and Capital Standarts: a Revised Framework [Electronic resource] // Basel Committee on Banking Supervision. – 2004//<http://www.bis.org/publ/bcbs107.htm>.

⁹³ Тотьянина, К. М. Обзор моделей вероятности дефолта/Управление финансовыми рисками. – Москва, 2011. - №1 (25)//<http://www.hse.ru/data/2011/11/14/1270200082>.

⁹⁴ Кабушкин, С. Н. Управление банковским кредитным риском. - Минск : Новое знание, 2007. – с. 224.

- * ishsizlik darajasi;
- * foiz stavkalarining darajasi;
- * valyuta kurslarining darajasi;
- * davlat xarajatlarining darajasi⁹⁵.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tijorat banklarining faoliyatidagi kredit riski bevosita va bilvosita investitsiya loyihalari risklari bilan bog‘liqdir.

Iqtisodiy adabiyotda investitsiya loyihalarining risklariga ta’sir qiluvchi omillar tashqi va ichki omillarga bo‘linadi. Bunda tashqi omillar sifatida quyidagi omillar nazarda tutiladi:

- * qonunchilikning barqaror emasligi;
- * mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashishi;
- * bozor konyunkturasining yomonlashishi;
- * inflyatsiya va deflyatsiya;
- * devalvatsiya omili;
- * ekologik omil⁹⁶.

Qonunchilikning barqaror emasligi, ya’ni qonunchilik talablarining tez-tez o‘zgarishini investorlarning faoliyatidagi noaniqlik va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Buning ustiga, soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar loyiha bilan bog‘liq bo‘lgan pul oqimining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashishi uning investitsion salohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy adabiyotda inflyatsiyaning investitsiyalarga salbiy ta’siri iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan⁹⁷.

Deflyatsiya loyihani amalga oshirilishi natijasida olinadigan pul mablag‘lari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida loyiha to‘liq quvvatga

⁹⁵ Derbali A. The credit portfolio management by the econometric models: A theoretical analysis//<https://hal.science/hal-01696010/document>.

⁹⁶ Ковалев П.П. Успешный инвестиционный проект: риски, проблемы и решения. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – 432 с.

⁹⁷ Masson P., Savastano M., Sharma C. The Scope for inflation Targeting in Developing Countries. – Washington: IMF Working Paper, 1997/130.; Кудрин А. Инфляция: российские и мировые тенденции // Вопросы экономики. – Москва, 2007. - №10. – С. 4 - 26.; Khan M. Senhadji. Thershild Effects in the Relatioinshop between Inflation and Growth // IMF Staff Papers. 2001. Vol. 48. - P.1-21.; Brouwer G. de, Evcisson N.R. Modeling Inflation in Australia. Journal of Business and Economic Statistics. 1998. Vol. 16. – P. 24 – 29.

chiqqan bo'lsa-da, biznes-rejada ko'zda tutilgan rentabellik darajasiga chiqishning iloji bo'lmaydi.

Devalvatsiya investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, devalvatsiya ta'sirida loyiha tashabbuskorining loyihani amalga oshirilishi natijasida milliy valyutada olgan mablag'lari tijorat bankidan xorijiy valyutada olgan kreditini qaytarishga yetmaydi. Buning natijasida, loyiha barbod bo'ladi. Chunki, bank qarzdorni sudga beradi va sudning qaroriga asosan sud ijrochilari kredit uchun garovga olingan mulkni sottirishadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda inflyatsiya va devalvatsiya muammosi mavjud bo'lmaganligi hamda tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini past va barqaror ekanligi tashqi omillarning investitsiya loyihalarini kreditlash amaliyotiga nisbatan salbiy ta'sirini chuqurlashishiga imkon bermaydi.

Ekologik omil loyihalarning samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki, har bir loyihaning ekologik samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning (atmosfera, tuproqqa, suvga zararli chiqindilarni tashlashning kamayishi, ishlab chiqarish chiqindilarining kamayishi, ekologik qonunchilikni buzganligi uchun qo'llaniladigan jarimalar miqdorining kamayishi, mahsulotlardagi shovqinni kamayishi yoki yo'qolishi) hisob-kitobi texnik-iqtisodiy asosnomada beriladi.

Shuningdek, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda ularning ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari (kompaniya xodimlarining daromadlari miqdorining oshishi, mehnat xavfsizligi darajasining oshishi, ish o'rinlarini ko'payishi, mehnat sharoitlarini yaxshilanishi, xodimlarning umrini uzayishi, xodimlarni kasallanish darajasini kamayishi) ham tahlil qilinadi.

Investitsiya loyihalari risklarining ichki omillari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- * texnogen hodisalarni yuz berishi;
- * uskunalarni to'xtab qolishi;
- * ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport qila olmaslik;
- * energiya ta'minotidagi uzilishlar;

- * xom-ashyoni o'z vaqtida yetkazib berilmasligi;
- * ishlab chiqariladigan tovarlarga bo'lgan talabni to'g'ri baholay olmaslik;
- * yangi texnika va texnologiyaga xom-ashyoning mos emasligi⁹⁸.

Texnogen hodisalarning yuz berishi inson omiliga bog'liq bo'lib, texnologik qarorlarni noto'g'ri qabul qilinishi natijasida yuz beradi.

Ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport qila olmaslik investitsiya loyihasini barbod bo'lishiga olib keladigan asosiy sabablardan biridir. Buning sababi shundaki, ayrim loyihalarni moliyalashtirish uchun jalb qilingan kreditlarni qaytarish manbai sifatida mahsulotlarni eksport qilish natijasida olinadigan valyuta tushumi belgilanadi. Biroq, turli sabablarga ko'ra mahsulotlarni eksport qilish rejasi amalga oshmaydi. Natijada, berilgan kredit muddatida qaytmaydi.

E'tirof etish joizki, Rossiya-Ukraina urushi munosabati bilan Yevropada energiya ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolar paydo bo'ldi. Hozirgi davrda ushbu urush oqibatida Yevropa davlatlari misli ko'rilmagan energetika inqirozini boshidan kechirmoqda. 2022 yilda Rossiyadan yetkazib beriladigan gaz hajmi 80 foizga qisqardi. Buning natijasida elektroenergiyaning ulgurji narxi 2021-yilning boshiga nisbatan 15 barobarga oshdi⁹⁹. Buning natijasida, sanoat korxonalarining moliyaviy holati keskin yomonlashdi.

Yuqorida keltirilgan omillardan ko'rinadiki, investitsiya loyihalari risklarining muhim ichki omillaridan biri bo'lib, ishlab chiqariladigan tovarlarga bo'lgan talabni to'g'ri baholay olmaslik hisoblanadi. Bu esa, bevosita marketing tadqiqotlarining sifati bilan bog'liq. Marketing tadqiqotlarini sifatini past bo'lishi ishlab chiqariladigan tovarlarga bo'lgan talabni to'g'ri baholash imkonini bermaydi. Buning natijasida ishlab chiqarilgan tovarlarning sezilarli qismini sotish imkoni bo'lmaydi va buning oqibatida mahsulotlarni sotishdan olingan pul mablag'lari loyihani moliyalashtirish uchun olingan kreditlarni qaytarish uchun yetarli bo'lmaydi.

⁹⁸ Ковалев П.П. Успешный инвестиционный проект: риски, проблемы и решения. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – 432 с.

⁹⁹ Преодоление энергетического кризиса в Европе// Финансы и развитие, декабрь 2022года. www.imf.org.

Keltirilgan faktologik ma'lumotlardan ko'rinadiki, investitsiya loyihalari risklarining muhim ichki omillaridan biri bo'lib, yangi texnika va texnologiyaga xom-ashyoning mos emasligi hisoblanadi.

Amaliyotdan ma'lumki, agar yangi texnika va texnologiyaga xom-ashyoning mos kelmasa, u holda, sifatli mahsulot ishlab chiqarishning iloji bo'lmaydi. Bu esa, ishlab chiqarilgan mahsulotni shartnoma bo'yicha sotish imkonini bermaydi. Buning oqibatida butun boshli investitsiya loyihasi barbod bo'ladi. Chunki, mahsulotlarni sotilmasligi investitsiya loyihasi uchun qilingan xarajatlarni qoplanmasligiga olib keladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan qator loyihalar, masalan Kosonsoy-Tekmen loyihasi aynan yangi texnika va texnologiyaga xom-ashyoning mos kelmasligi tufayli o'zini oqlamagan.

2.3-§. Kreditlarning resurs ta'minotini shakllantirish borasidagi ilg'or xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida kreditlarning resurs ta'minotini shakllantirish borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajribadan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlariga baho berish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2.7-jadval

“Deutsche Bank” (Germaniya) passivlarining tarkibi¹⁰⁰, foizda

Passivlar tarkibi	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Majburiyatlar	94,9	95,2	95,3	94,8	94,6
Regulyativ kapital	5,1	4,8	4,7	5,2	5,4
Passivlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

¹⁰⁰ Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.db.com («Deutsche Bank»)ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.7-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rish mumkinki, 2018-2022 yillarda "Deutsche Bank" passivlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni majburiyatlar egallagan va tahlil qilingan davr mobaynida majburiyatlarning passivlar hajmidagi salmog'i 94 foizdan yuqori bo'lgan. Bu esa, banklarning moliyaviy vositachi sifatida yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash va ularni transformatsiya qilishdagi roli bilan izohlanadi.

2.7-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rish mumkinki, 2018-2022 yillarda "Deutsche Bank" passivlarining umumiy hajmida regulyativ kapitalning salmog'i o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, uning kreditlar berish imkoniyatini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, Germaniya bank amaliyotida tijorat banklarining kreditlar berish imkoniyati ularning birinchi darajali kapitali miqdori bilan belgilanadi.

Shuningdek, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining oshishi bankning to'lovga qobilligini oshganligini ko'rsatadi. Chunki, regulyativ kapital tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi.

2.8-jadval
"Bank of America" (AQSH) banki passivlarining tarkibi¹⁰¹, foizda

Passivlar tarkibi	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Majburiyatlar	88,7	89,1	90,3	91,5	91,1
Regulyativ kapital	11,3	10,9	9,7	8,5	8,9
Passivlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0


2.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2022 yillarda "Bank of America" banki passivlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni majburiyatlar egallagan va tahlil qilingan davr mobaynida majburiyatlarning passivlar hajmidagi salmog'i 89 foizdan yuqori bo'lgan. Buning ustiga, majburiyatlarning bank passivlarining umumiy hajmidagi salmog'i 2022 yilda 2018-

¹⁰¹ Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.bankofamerica.com (Bank of America) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, “Bank of America” bankining moliyaviy vositachi sifatidagi maqomini ko‘rsatadi. Ushbu bank yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini o‘zining depozit hisobraqamlariga jalb qiladi va o‘zining obligatsiyalari, depozit va jamg‘arma sertifikatlarini emissiya qilish orqali ham mijozlarning pul mablag‘larini jalb qiladi.

Shuningdek, “Bank of America” banki Federal zaxira tizimi bilan REPO operatsiyalarini amalga oshirish orqali resurslar jalb qilish imkoniyatiga ega.

2.8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2018-2022 “Bank of America” banki passivlarining umumiy hajmida regulyativ kapitalning salmog‘i 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning kreditlash imkoniyatini kengaytirish va to‘lovga qobilligini ta’minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga nisbatan Federal zaxira tizimi tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy me’yorlar banklarning birinchi darajali kapitalga nisbatan o‘rnatilgan; ikkinchidan, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog‘i ko‘rsatkichi tijorat banklarining to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.



2.4-rasm. “Deutsche Bank” (Germaniya) passivlarining umumiy hajmida depozitlar va moliyaviy majburiyatlarning salmog‘i¹⁰², foizda

¹⁰² Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.db.com («Deutsche Bank»)ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.4-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, "Deutsche Bank" passivlarining asosiy qismini depozitlar va moliyaviy majburiyatlar tashkil etadi. Masalan, 2022 yilning 31-dekabr holatiga ko'ra, depozitlar va moliyaviy majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi 79,8 foizni tashkil etdi.


"Deutsche Bank" depozitlarining asosiy qismini muddatli va jamg'arma depozitlari tashkil etadi. Chunki, mazkur depozitlar "Deutsche Bank" uchun resurs manbai hisoblanadi. Biroq, transaksion depozitlarning ham "Deutsche Bank" uchun katta ahamiyatga ega ekanligini unutmash lozim. Buning boisi shundaki, mijozlarning "Deutsche Bank" xizmatlaridan foydalangani uchun to'laydigan barcha to'lovlari ularning transaksion depozit hisobraqamidagi pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, Germaniya tijorat banklari mijozlarning transaksion depozit hisobraqamidagi pul mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni ularni muddatli yoki jamg'arma depozit hisobraqamlariga o'tkazmasdan turib, resurs sifatida foydalanmaydi. Bu esa, naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning muhim prinsiplaridan biri bo'lgan mijozlarning transaksion hisobraqamidagi pul mablag'laridan ularning roziligisiz foydalanmaslik prinsipiga mos keladi. Bundan tashqari, mijozlarning transaksion hisobraqamidagi pul mablag'laridan ularning roziligisiz foydalanmaslik ularning likvidliligiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirning oldini oladi.

2.4-rasm ma'lumotlaridan aniq ko'rish mumkinki, depozitlarning "Deutsche Bank" majburiyatlarining umumiy hajmidagi ulushi 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan, biroq, mazkur davrda moliyaviy majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi sezilarli darajada pasaygan.

"Deutsche Bank"ning moliyaviy majburiyatlari u tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, jamg'arma sertifikatlari, moliyaviy veksellar, opsiyonlar va fyucherslar) bo'yicha yuzaga kelgan moliyaviy majburiyatlardan iborat.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “Deutsche Bank”ning moliya bozorlarida yuqori reputatsiyaga ega ekanligi uning qimmatli qog‘ozlarini qulay bozor baholarida joylashtirish imkonini beradi.




2.5-rasm. “Bank of America” (AQSH) banki passivlarining umumiy hajmida depozitlar va moliyaviy majburiyatlarning salmog‘i¹⁰³, foizda

2.5-rasm ma’lumotlaridan yaqqol ko‘rinadiki, “Bank of America” passivlarining asosiy qismini depozitlar va moliyaviy majburiyatlar tashkil etadi. Masalan, 2022 yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra, depozitlar va moliyaviy majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi 81,0 foizni tashkil etdi. Bunda, depozitlarning bank majburiyatlarining hajmidagi salmog‘i yanada yuqoridir.

“Bank of America” nafaqat AQSHdagi, balki dunyo miqyosidagi yirik transmilliy banklardan biridir. Uning moliyaviy xizmatlariga bo‘lgan talabning, shu jumladan, kredit xizmatlari va qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion xizmatlariga bo‘lgan talabning yuqori ekanligi katta miqdorda depozitlar jalb qilish va bank qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi. O‘z navbatida, yuridik va jismoniy shaxslar uchun depozitlar va bank qimmatli qog‘ozlarining investitsion jozibadorligi “Bank of

¹⁰³ Rasm Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.bankofamerica.com (“Bank of Amerisa”) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

America” tomonidan ushbu majburiyatlarga to‘lanadigan foiz stavkalarining darajasiga bog‘liq.



2.6-rasm. “Bank of America” (AQSH) banki depozitlarining tarkibi¹⁰⁴, foizda

2.6-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan aniq ko‘rinadiki, 2018-2022 yillarda “Bank of America” banki depozitlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni muddatli depozitlar egallagan. Bu esa, muddatli depozitlarni “Bank of America” bankining aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, keltirilgan ma’lumotlardan muddatli depozitlarning “Bank of America” banki depozitlarining umumiy hajmidagi salmog‘ini 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada pasayganligi ko‘rinadi. Ushbu pasayish mazkur davrda transaksiyon depozitlarning “Bank of America” banki depozitlarining umumiy hajmidagi salmog‘ini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi.

AQSH banklari transaksiyon depozitlardan o‘zlarining aktiv operatsiyalari uchun resurs sifatida to‘liq foydalanmaydi. Ular faqat transaksiyon depozitlarning barqaror qoldig‘idan resurs sifatida foydalanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, respublikamizda talab qilib olinadigan depozitlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya’ni ularni muddatli depozit hisobraqamiga olmasdan turib, resurs sifatida foydalanish hollari mavjud. Buning

¹⁰⁴ Rasm Annual Reports. Consolidated Balance Sheet. www.bankofamerica.com (“Bank of Amerisa”) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

natijasida, tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan jiddiy salbiy ta'sir yuzaga keladi.

Quyidagi jadvallarning ma'lumotlari orqali xorijiy banklarning regulyativ kapitalining tarkibiga baho beramiz.

2.9-jadval
“Deutsche Bank” (Germaniya) regulyativ kapitalining tarkibi¹⁰⁵, foizda

Regulyativ kapital tarkibi	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Ustav kapitali	7,7	8,5	8,5	7,8	7,3
Qo'shilgan kapital	58,6	65,2	65,3	59,6	56,0
Taqsimlanmagan foyda	24,3	15,5	16,1	18,5	24,6
Boshqa elementlar	9,4	10,8	10,1	14,1	12,1
Regulyativ kapital – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2.9-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rish mumkinki, 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” regulyativ kapitalining tarkibida eng yuqori salmoqni qo'shilgan kapital egallagan. Bu esa, bank kreditlarining resurs ta'minotini yaxshilash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, qo'shilgan kapital tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi.

Shuningdek, qo'shilgan kapitalning regulyativ kapital hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi bank aksiyalarining investitsion jozibadorligini yuqori ekanligidan dalolat beradi. Buning sababi shundaki, qo'shilgan kapital tijorat banki tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarning bozor bahosi bilan nominal qiymati o'rtasidagi farq summasidan iborat.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, taraqqiy etgan mamlakatlarda, shu jumladan Germaniyada moliyaviy risklar ta'sirida tijorat banklariga qilingan investitsiyalarning qiymatini pasayishi muammosi mutlaqo mavjud emas.

2.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” regulyativ kapitalining tarkibida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni taqsimlanmagan foyda egallagan.

¹⁰⁵ Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.db.com («Deutsche Bank»)ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Taqsimlanmagan foyda tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai bo‘lish bilan birga, bankning kapitali miqdorini oshirishning xarajatsiz usuli hamdir. Chunki, taqsimlanmagan foyda bankning barcha xarajatlari moliyalashtirib bo‘lingandan so‘ng hosil bo‘ladigan foydadir. U hosil bo‘lishi bilan tijorat bankining birinchi darajali kapitali tarkibida hisobga olinadi.

2.9-jadval ma’lumotlaridan aniq ko‘rish mumkinki, “Deutsche Bank” regulyativ kapitalining tarkibida ustav kapitali tahlil qilingan davr mobaynida barqaror salmoqqa ega bo‘lgan. Ustav kapitalining regulyativ kapital hajmidagi salmog‘i nisbatan past bo‘lsa-da, uni shakllantirishda ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan davlat tomonidan qo‘yiladigan talab asosiy mezon hisoblanadi.

Taqsimlanmagan foyda tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai bo‘lganligi uchun Bazel qo‘mitasi uni birinchi darajali asosiy kapitalning tarkibiga kiritgan.

“Deutsche Bank” regulyativ kapitalining boshqa elementlariga qayta baholash zaxirasi, subordinar qarz va kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining bank aktivlarining riskka tortilgan summasining 1,25 foizdan oshmaydigan qismi kiradi.

Bazel standarti bo‘yicha tijorat banklarining birinchi darajali kapitali faqat barqaror moliyalashtirish manbalaridan (ustav kapitalining to‘langan qismi, qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali, o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi) tashkil topadi¹⁰⁶.

2.10-jadval **“Bank of America” (AQSH) banki regulyativ kapitalining tarkibi¹⁰⁷, foizda**

Regulyativ kapital tarkibi	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Ustav kapitali	8,4	8,7	8,8	8,9	10,3
Qo‘shilgan kapital	44,8	34,5	31,3	22,9	21,2
Taqsimlanmagan foyda	46,8	56,8	59,9	67,8	68,1
Boshqa elementlar	0,0	0,0	0,0	0,4	0,4
Regulyativ kapital – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

¹⁰⁶ Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. – Basel, 1998. <http://www.bis.org.publications>.

¹⁰⁷ Jadval Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. www.bankofamerica.com «Bank of Amerisa») ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.10-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, "Bank of America" bankining regulyativ kapitali hajmida eng yuqori salmoqni 2018-2022 yillarda taqsimlanmagan foyda egalladi. Bu esa, bank kreditlarining resurs ta'minotini yaxshilash yuzasidan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, taqsimlanmagan foyda tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham Bazel qo'mitasi taqsimlanmagan foydani birinchi darajali asosiy kapitalning tarkibiga kiritgan.

2.10-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, "Bank of America" bankining regulyativ kapitali hajmida tahlil davrida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni qo'shilgan kapital egallagan. Bu esa, bank aksiyalarining investitsion jozibadorligini ta'minlanganligini ko'rsatadi va bank kreditlarining resurs ta'minotini yaxshilash yuzasidan ijobiy holat hisoblanadi. Qo'shilgan kapital tijorat banklari uchun barqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Chunki, u bank tomonidan muomalaga chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarning bozor bahosi bilan nominal qiymati o'rtasidagi farq summasidan iboratdir.

2.10-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, "Bank of America" bankining regulyativ kapitali hajmida ustav kapitalining salmog'i 2018-2022 yillarda barqaror bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkich 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, bank kreditlarining resurs ta'minotini yaxshilash yuzasidan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, ustav kapitali tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi.

Shunisi ahamiyatliki, Bazel qo'mitasi o'zining yangi standartida tijorat banklarining birinchi darajali kapitalini ikki qismga ajratdi va uning o'zi uchun alohida yetarlilik talabini joriy qildi. Ushbu talabga ko'ra:

* tijorat bankining birinchi darajali kapitali birinchi darajali asosiy kapital va birinchi darajali qo'shimcha kapitaldan iborat bo'lib, birinchi darajali asosiy kapital barqarorlik darajasi yuqori bo'lgan moliyalashtirish manbalaridan (ustav kapitalining to'langan qismi, oddiy aksiyalar bo'yicha qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda) tashkil topadi;

* birinchi darajali asosiy kapital regulyativ kapitalning 60 foizidan kam bo‘lmasligi kerak¹⁰⁸.

Tadqiqotning 2.3-paragrafida amalga oshirilgan tahlillar ko‘rsatdiki:

* taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari kreditlarining asosiy resurs ta‘minoti bo‘lib, muddatli depozitlar, bankning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan olingan pul mablag‘lari va regulyativ kapital hisoblanadi;

* mazkur mamlakatlarda tijorat banklari majburiyatlarining asosiy qismini depozitlar va muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha yuzaga kelgan moliyaviy majburiyatlar tashkil etadi;

* taraqqiy etgan davlatlarda tijorat banklari regulyativ kapitalining asosiy qismini qo‘shilgan kapital va o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi tashkil etadi;

* tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarining investitsion jozibadorligini ta‘minlanganligi qo‘shilgan kapitalning regulyativ kapital hajmidagi salmog‘ini yuqori bo‘lishiga olib kelgan.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobini yozish jarayonida bir qator xulosalarni shakllantirdik.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning amaliyotida kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish borasidagi tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish natijalari ko‘rsatdiki:

– 2020-2022 yillarda “Deutsche Bank” kreditlarining miqdori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning ustiga, kreditlar miqdori 2022 yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

¹⁰⁸ Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org/publications>.

– “Deutsche Bank” brutto aktivlarining hajmida kreditlarning salmog‘i 2020-2022 yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi mazkur davrda kreditlarning o‘shish sur‘atini brutto aktivlarning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi;

– “Bank of America” bankining kreditlari miqdori 2017-2019-yillarda hamda 2020-2022 yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

– “Bank of America” bankining kreditlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i 2022 yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada pasayganligi mazkur davrda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning bankning brutto aktivlari hajmidagi salmog‘ining oshganligi bilan izohlanadi;

– kredit mexanizmining holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori va ularning foizli daromadlarning umumiy hajmidagi salmog‘ining o‘zgarishi hisoblanadi, “Deutsche Bank”ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada (8,5 %) ko‘payganligi bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

– “Deutsche Bank”ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining jami foizli daromadlardagi ulushi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan, 2022 yilda 2018-yilga nisbatan oshganligi kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

– “Bank of America” bankining kreditlardan olgan foizli daromadlarining miqdori 2018-2021-yillarda kamayish tendensiyasiga egaligi kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

– “Bank of America” bankining kreditlardan olgan foizli daromadlarining jami foizli daromadlardagi ulushi 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga egaligi mazkur davrda kreditlar miqdorini kamayganligi bilan izohlanadi va kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

– “Deutsche Bank”»da kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi mutanosiblik 2018, 2019 va 2022 yillarda

ta'minlangan, 2020 va 2021-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan;

– “Bank of America” bankida 2018, 2019 va 2022 yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan, 2020 va 2021-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan;

– “Bank of America” bankida 2020 va 2021-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlar va kreditlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmaganligi, asosan, dunyo miqyosida epidemiyaga aylanib ketgan koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq;

– “Deutsche Bank”da va “Bank of America” bankida 2018-2022 yillarda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan (1,0%) ancha pastligi kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

– 2018-2020-yillarda “Deutsche Bank”da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi, mazkur zaxira ajratmalarining miqdori 2022 yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan;

– 2020-2022 yillarda “Bank of America” bankida “Deutsche Bank”da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shuningdek, mazkur zaxira ajratmalarining miqdori 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada kamayganligi kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida qo'llanilayotgan kredit riskini baholash uslubiyotlarining qiyosiy tahlili ko'rsatdiki:

– Bazeli-II standartiga tavsiya etilgan kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuvga ko'ra, kredit oluvchining suveren kredit reytingi

qanchalik yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo'ladi (suveren kredit reytingi V – dan past bo'lgan davlatlarning Hukumatlariga, Markaziy banklariga, kredit tashkilotlariga va yuridik shaxslariga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng; Xalqaro reyting agentliklarining reyting bahosiga ega bo'lmagan bank mijozlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng;

– xalqaro bank amaliyotida “Standard & Poor's” xalqaro reyting agentligining kredit riskini baholash metodikasidan keng foydalanilmoqda va ushbu metodikaga ko'ra, kompaniyalarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda kutilayotgan siklik pasayishlarni va ishbilarmonlik faolligini ko'tarilishlarini o'rganish hamda tarmoq ichidagi va butun iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni o'rganish asosiy masala hisoblanadi;

– AQSH banklaridan kredit riskini baholashda keng qo'llanilayotgan SCAP dasturiga muvofiq, berilgan kreditlar bo'yicha va bankning investitsiya portfelidagi risklar bo'yicha aniq hisob-kitoblar amalga oshiriladi, tijorat bankining eng pessimistik makroiqtisodiy ssenariy bo'yicha kapital hisobidan zararlarni qoplay olish imkoniyatiga baho beriladi va ushbu baholash kreditlarning 12 ta turi bo'yicha amalga oshiriladi;

– Yaponiyada 2000-yilda yaratilgan Risklar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi (RDB) yordamida 60 dan ortiq yirik va mintaqaviy banklar 910 ming kompaniyaning kredit riski to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ladi va u kredit riskini baholash aniqligini oshirishga xizmat qiladi;

“Fintech for Asian SMEs” kompaniyasining mutaxassislari tomonidan kredit riskini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p omilli regression modellar buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlardan hamda kompaniyaning bankdagi hisobraqamlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish asosida kredit riskini baholash aniqligini oshirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini shakllantirish borasidagi ilg'or xorij tajribasining tahlili ko'rsatdiki:

– 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” passivlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni majburiyatlar egallagan va tahlil qilingan davr mobaynida majburiyatlarning passivlar hajmidagi salmog‘i 94 foizdan yuqoriligi banklarning moliyaviy vositachi sifatida yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini to‘plash va ularni transformatsiya qilishdagi roli bilan izohlanadi;

– 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” passivlarining umumiy hajmida regulyativ kapitalning salmog‘i o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi uning kreditlar berish imkoniyatini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

– 2018-2022 yillarda “Bank of America” banki passivlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni majburiyatlar egallagan va tahlil qilingan davr mobaynida majburiyatlarning passivlar hajmidagi salmog‘i 89 foizdan yuqori bo‘lgan, majburiyatlarning bank passivlarining umumiy hajmidagi salmog‘i 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi “Bank of America” bankining moliyaviy vositachi sifatidagi maqomini ko‘rsatadi;

– 2018-2022 “Bank of America” banki passivlarining umumiy hajmida regulyativ kapitalning salmog‘i 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada pasayganligi bankning kreditlash imkoniyatini kengaytirish va to‘lovga qobilligini ta’minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

– Depozitlarning “Deutsche Bank” majburiyatlarining umumiy hajmidagi ulushi 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan, biroq, mazkur davrda moliyaviy majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi sezilarli darajada pasaygan;

– “Bank of America” passivlarining asosiy qismini depozitlar va moliyaviy majburiyatlar tashkil etadi. Masalan, 2022 yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra, depozitlar va moliyaviy majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi 81,0 foizni tashkil etdi. Bunda, depozitlarning bank majburiyatlarining hajmidagi salmog‘i yanada yuqoridir;

– 2018-2022 yillarda “Bank of America” banki depozitlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni muddatli depozitlar egallagan. Bu esa, muddatli

depozitlarni “Bank of America” bankining aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri ekanligi bilan izohlanadi;

– 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” regulyativ kapitalining tarkibida eng yuqori salmoqni qo‘shilgan kapital egallaganligi bank kreditlarining resurs ta‘minotini yaxshilash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

– “Bank of America” bankining regulyativ kapitali hajmida eng yuqori salmoqni 2018-2022 yillarda taqsimlanmagan foyda egallaganligi bank kreditlarining resurs ta‘minotini yaxshilash yuzasidan ijobiy holat hisoblanadi;

– “Bank of America” bankining regulyativ kapitali hajmida tahlil davrida salmog‘iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni qo‘shilgan kapital egallaganligi bank aksiyalarining investitsion jozibadorligini ta‘minlanganligini ko‘rsatadi va bank kreditlarining resurs ta‘minotini yaxshilash yuzasidan ijobiy holat hisoblanadi. Qo‘shilgan kapital tijorat banklari uchun barqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi;

– Bazel qo‘mitasi o‘zining yangi standartida tijorat banklarining birinchi darajali kapitalini ikki qismga ajratdi va uning o‘zi uchun alohida yetarlilik talabini joriy qildi.

III- BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KREDIT MEXANIZMINING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

3.1-§. Kredit mexanizmining metodologik asoslari

Hozirgi davrda, respublikamizda tijorat kreditlari mavjud bo‘lmaganligi sababli dissertatsiyada faqat bank kredit mexanizmini tadqiq qilamiz.

Kreditlash mamlakat tijorat banklari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda banklarning roli, avvalo, ular tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlashda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2020-yilning 6-iyulida bo‘lib o‘tgan va 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish hamda mamlakat tijorat banklarining transformatsiya jarayonini jadallashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda mamlakat Prezidenti stress-testlar natijalariga ko‘ra, muammoli kreditlar ulushi bir necha barobar ko‘payishi mumkinligi, bu esa bank tizimi uchun jiddiy xatar ekanini e‘tirof etgani holda, muammoli kreditlarni hududlar kesimida batafsil tahlil qilib, kredit portfeli sifatini saqlab qolish bo‘yicha ta’sirchan mexanizm ishlab chiqish ko‘rsatmasini berdi¹⁰⁹.

Yuqorida qayd etilgan holatlar mamlakatda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri bo‘lib, kreditlash shakllari va ulardan foydalanish amaliyoti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi tahrirdagi “Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomiga ko‘ra, qarz oluvchi o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bankka yirik kredit berishni so‘rab murojaat qilganidan keyin, bank kreditlash uchun lozim bo‘lgan standart tadbirlarni: o‘zining ichki kredit siyosatiga

¹⁰⁹ Bank sohasida strategiya ijrosi va transformatsiya jarayoni//<https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoev-boshchiligida-utgan-yi-ilishda-bank-so-asida-strategiya-ijrosi-va-transf>.

mos ravishda mijozning kreditga qobiliyatligi tahlilini, biznes-rejasi tahlilini, kredit qaytarilishini ta'minlanganligi tahlilini va boshqalarni amalga oshiradi; kredit shartnomasining yakuniy variantini ishlab chiqish va imzolash faqatgina yetakchi bank va ishtirokchi banklar o'rtasida mazkur investitsiya loyihasini sinditsiyalashtirilgan kreditlash to'g'risida o'zaro bitim tuzilgandan keyin amalga oshiriladi; ishtirokchi banklar va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng, har bir ishtirokchi bank sinditsiyalashtirilgan kreditlash to'g'risidagi kelishuvda qayd etilgan shartlar asosida qarz oluvchiga o'z bankida belgilangan tartibda alohida ssuda hisobvarag'i ochadi; ishtirokchi banklar tomonidan kreditlashni amalga oshirish kredit shartnomasida belgilangan maqsadlar va muddatlarda har bir ishtirokchi bank uchun belgilangan kalendar muddatida qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari asosida tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun ssuda hisobvarag'idan naqd pulsiz shaklda to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi; sinditsiyalashtirilgan kreditning summasi har bir ishtirokchi bank balansida, uning tomonidan berilgan kredit miqdoriga teng ulushda aks ettiriladi¹¹⁰.

Mazkur Nizom talabidan ko'rinadiki, bank sindikati tashkil etilgandan so'ng sindikat va kredit oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Ammo, Nizomda sinditsiyali kreditlashning dunyo bank amaliyotida umum e'tirof etilgan prinsiplarini inkor etuvchi quyidagi jihatlar mavjud:

* Nizomga ko'ra, ssuda hisobraqami sindikatda ishtirok etuvchi har bir bankda ochiladi, xalqaro bank amaliyotida esa, ssuda hisobraqami faqat Bosh bankda ochiladi¹¹¹;

* Nizomga ko'ra, sinditsiyalashtirilgan kreditning summasi har bir ishtirokchi bank balansida, uning tomonidan berilgan kredit miqdoriga teng ulushda aks ettiriladi. Ya'ni, sindikatda ishtirok etuvchi har bir bankning balansida uning ulushi

¹¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki. Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom (Yangi tahriri)//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 34-36-son, 265-modda; 2010-y., 44-45-son, 399-modda; 2016-y., 49-son, 564-modda.

¹¹¹ Эскиндаров М.А., Звонова Е.А. Международный кредит. – М.: КНОРУС, 2019. – С. 285-291.; Панова Г.С. Синдицированное кредитование. Банковское дело. Учебник. – 12-ое изд. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2016. – С. 440-446.

kredit sifatida aks ettiriladi. Xalqaro bank amaliyotida esa, sindikatda ishtirok etuvchi bankning ulushi uning balansida banklarga depozit sifatida aks etadi;

* Nizomda kredit bo'yicha muddatli majburiyatni qaysi bankda qanday ko'rishda saqlanishi aks etmagan.

O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonuniga ko'ra:

* lizing uning uchta subyekti ishtirok etadigan to'g'ridan-to'g'ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo'lib bir shaxsning o'zi ishtirok etadigan qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin;

* lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi yuzasidan javobgar bo'lib qolgani holda, lizing shartnomasi bo'yicha olgan lizing obyektini lizing beruvchining yozma roziligi bilan vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga qo'shimcha lizingga topshirishga haqli;

* lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak: lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyektini lizing oluvchining mulki bo'lib o'tishi kerak; lizing shartnomasining muddati lizing obyektini xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo'lishi yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining yigirma foizidan kam bo'lishi lozim; lizing shartnomasi davri uchun lizing to'lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obyektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to'qson foizidan ortiq bo'lishi kerak¹¹².

Kredit mexanizmining asosiy masalalaridan biri bo'lib, kreditlarning ta'minotiga, shu jumladan, garov ta'minotiga nisbatan talablarning belgilanishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kreditlarning ayrim turlarining garov obyektlariga nisbatan talablar davlat tomonidan belgilangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga

¹¹² O'zbekiston Respublikasining qonuni. Lizing to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 108-modda; 2003-y., 1-son, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 52-son, 533-modda; 2016-y., 52-son, 598-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son; 15.01.2020-y., 03/20/602/0052-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida kichik tadbirkorlik subyektlariga 225 million so‘mgacha miqdorda ajratiladigan mikrokreditlar uchun uchinchi shaxs kafilligi, sug‘urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi, Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining kafilligi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ta‘minot turlarini qo‘yishning mumkinligi e‘tirof etilgan¹¹³. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi tahrirdagi «Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi nizomiga muvofiq, qarz oluvchi bankka quyidagi ta‘minot turlarini taqdim etish huquqiga ega:

- *mulk yoki qimmatli qog‘ozlar garovi;
- *bank yoki sug‘urta tashkiloti kafolati;
- * uchinchi shaxsning kafilligi;
- * sug‘urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytara olmaslik xatarini sug‘urta qilingani to‘g‘risidagi sug‘urta polisi¹¹⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi 2696-sonli «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasiga ko‘ra, aktivlarning yuqori likvidli ta‘minotiga quyidagilar kiradi:

- * davlat qimmatli qog‘ozlari garovi;
- * bank kapitali monandligi hisob-kitoblarida tavakkalchilik darajasi 0 foiz bo‘lgan xorijiy davlatlarning hukumatlari va Markaziy banklarining kafolati yoki ular tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlar garovi;

113 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-sonli “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori//Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4862/1385-son; 27.03.2021-y., 07/21/5041/0244-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.07.2021-y., 06/21/6258/0651-son, 21.12.2021-y., 07/21/55/1173-son; 01.04.2022-y., 06/22/95/0267-son; 31.01.2023-y., 07/23/39/0060-son.

¹¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki. Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida nizom (Yangi tahriri)//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 34-36-son, 265-modda; 2010-y., 44-45-son, 399-modda; 2016-y., 49-son, 564-modda.

* Jahon banki guruhi (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro investitsiyalarni kafolatlash agentligi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi) hamda Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infrastruktura investitsiya banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, Yevropa investitsiya jamg'armasi, Islom taraqqiyot banki va Yevropa Kengashining taraqqiyot banklari kafolati;

* kreditor bankdagi depozitlar yoki depozit sertifikatlari garovi¹¹⁵.

O'zbekiston Respublikasining "Garov reestri to'g'risida"gi qonunga muvofiq, birinchidan, kreditor sifatida qatnashayotgan foydalanuvchi tomonidan yozuv kiritish qarzdorning roziligi bilan amalga oshiriladi, qarzdorning yozma roziligi garov reestridan yozuv chiqarib tashlangunga qadar kreditorida saqlanishi kerak; ikkinchidan, sudning undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori to'g'risida yozuv kiritish yoxud kiritilgan yozuvdan mol-mulkning bir qismini chiqarib tashlash yoki undagi axborotni o'zgartirish kreditor tomonidan qarzdorning rozilgisiz amalga oshiriladi; uchinchidan, qarzdorning zimmasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlilar bo'lgan taqdirda, davlat soliq va bojxona xizmati organlari qarzdorning rozilgisiz yozuv kiritadi¹¹⁶.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunining 61-moddasida yozilganki, Markaziy bank banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan beriladigan iste'mol kreditlari hamda mikroqarzlilar, shuningdek lombardlar tomonidan beriladigan mikroqarzlilar bo'yicha foiz stavkalari va to'lovlarining eng yuqori qiymatlarini belgilashga haqli¹¹⁷. Bu esa, O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2018-y., 10/18/2696-2/1120-son.

¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasining qonuni. Garov reestri to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2013. – № 43. – 570-modda.

¹¹⁷ O'zbekiston Respublikasining qonuni. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonuni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son).

talabiga zid keladi. Chunki, mazkur Qonunning 8-moddasiga muvofiq, banklar moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishda mustaqildir¹¹⁸.

Kredit mexanizmining dolzarb masalalaridan biri, shubhasiz, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarini tashkil qilish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi 2696-sonli «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasiga ko‘ra:

* “umidsiz” aktivlar va ular bo‘yicha hisoblab yozilgan foizlarning balans hisobvaraqlaridan “Ko‘zda tutilmagan holatlar” hisobvarag‘iga o‘tkazish ushbu aktiv bo‘yicha qarzlarni hamda ular bo‘yicha foizlarning bekor qilinishini bildirmaydi, shuning uchun ushbu qarz, shuningdek u bo‘yicha foizlar balansdan tashqari moddalarda ular bu hisobvaraqlarga o‘tkazilgan paytdan boshlab besh yildan kam bo‘lmagan muddat mobaynida aks ettirilishi lozim;

* agar qarzdor tomonidan balansdan tashqari moddalarda hisobga olinadigan aktiv bo‘yicha qarz tijorat banki tomonidan ushbu qarzni undirish bo‘yicha ko‘rilgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, u bu hisobvaraqlarga o‘tkazilgandan keyin besh yil davomida to‘lanmasa, u holda ushbu aktiv (asosiy qarzlarni ham, foizlarni ham) tijorat banki Kengashining aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida tasdiqlangan qaroriga ko‘ra hisobdan chiqarilishi mumkin;

* tasniflangan kreditlarning barcha besh toifasi bo‘yicha ham zaxira ajratmalari shakllantiriladi va ular bo‘yicha stavkalar quyidagicha:

standart kreditlar – 1 %;

substandart kreditlar – 10 %;

qoniqarsiz kreditlar – 25 %;

shubhali kreditlar – 50 %;

¹¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri)//Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi: 03/19/580/3994-son. 06.11.2019.

umidsiz kreditlar – 100 %¹¹⁹.

Kredit mexanizmining keyingi dolzarb masalasi bo‘lib, tijorat banklari faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga nisbatan prudensial talablarning o‘rnatilishi hisoblanadi.

«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, Markaziy bank banklarga aloqador bo‘lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish, shu jumladan ularga kreditlar berish bo‘yicha cheklavlarni va banklar, shu jumladan tizimli ahamiyatga molik banklar, shuningdek banklar guruhlarini, mikromoliya tashkilotlari va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari uchun prudensial normativlarni hisoblab chiqarish tartibini hamda ushbu normativlarning yo‘l qo‘yiladigan qiymatlarini belgilaydi¹²⁰.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 21-sentyabrdagi 21/12-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Bir qarz oluvchi, o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori to‘g‘risida»gi nizomiga ko‘ra:

*bankning bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak;

* bankning bir qarzdor yoki o‘zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi ta’minotsiz (ishonchga asoslangan) kredit, shuningdek faktoring xizmatlari uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur;

* bankka aloqador bitta shaxsga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim;

¹¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2018-y., 10/18/2696-2/1120-son.

¹²⁰ O‘zbekiston Respublikasining qonuni. «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonuni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son; *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son).

* bankka aloqador bo'lgan barcha shaxslarga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 50 foizidan oshmasligi zarur;

* bankka aloqador shaxslarga, asosan, bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvining a'zolari hamda bosh bankda tashkil etilgan qo'mitalarning bankning boshqaruv organlari a'zolari bo'lmagan a'zolari, shuningdek bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari; bevosita yoki bilvosita, yakka tartibda yoki shaxslar guruhi tarkibida birgalikda faoliyat ko'rsatuvchi, bankda hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar; bank ustav kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan yuridik shaxsga nisbatan rahbarlik yoki nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar; banklar guruhiga kiruvchi moliyaviy institutlar; banklar guruhiga kiruvchi moliya institutining kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar;

* banklar guruhiga kiruvchi moliya institutining kuzatuv kengashi, boshqaruvi a'zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari; ustav fondida (ustav kapitalida) banklar guruhining asosiy banki kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs, shuningdek ushbu yuridik shaxsning mansabdor shaxslari; yuridik shaxs va uning mansabdor shaxslari, basharti ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalida (ustav fondida) bank kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qilsa; bank ustidan nazoratni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar ustav kapitalida (ustav fondida) kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs; bank ustav kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan yuridik shaxs ustidan nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar kiradi¹²¹.

2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi dunyo miqyosida yuzlab banklarning bankrot bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan va taraqqiy etgan mamlakatlarning bank

¹²¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 21-sentyabrdagi 21/12-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida»gi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 29-oktyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3283//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2020-y., 10/20/3283/1470-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son.

amaliyotiga joriy etilgan bank nazorati tizimiga nisbatan haqli e'tirozlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bazel qo'mitasi ushbu haqli e'tirozlarni qabul qildi va o'zining yangi, bank nazorati talablari kuchaytirilgan Bazel-III standarti deb nomlanuvchi standartini ishlab chiqdi. Ushbu standart G'arbiy Yevropa mamlakatlariga 2010-yilda ilk bora joriy qilindi.

Bazel-III standartiga muvofiq, bank nazorati tizimiga ikkita yangi prudensial talab – likvidlilikni qoplash me'yori– (Liquidity Coverage Ratio)

va sof barqaror moliyalashtirish me'yori (Net Funding Stability Ratio) bo'yicha talablar qabul qilindi¹²².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli "2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorida Markaziy bankka Bazel qo'mitasining bank nazoratiga oid bo'lgan yangi talablarini bank nazorati tizimiga joriy etish vazifasi qo'yildi¹²³.

Respublika Markaziy banki ushbu vazifani bajarish maqsadida yuqorida qayd etilgan yangi prudensial talablarni bank nazorati tizimiga joriy qildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 13-avgustdagi 2709-sonli "Tijorat banklarining likvidlilikini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomiga muvofiq, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti va Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti bank nazorati tizimiga joriy qilindi¹²⁴.

Kredit mexanizmining dolzarb masalalaridan yana biri – bu tijorat banklari kredit portfelining sifatini baholash va boshqarishni takomillashtirish hisoblanadi.

¹²² Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org/publications>.

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2010. — №48. – 4-6-b.

¹²⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) «Tijorat banklarining likvidlilikini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. — №32. – 141-152-b.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining kredit portfelini boshqarishni takomillashtirishda keng qo‘llanilayotgan usullardan biri bo‘lib, anderrayting usuli hisoblanadi.

Respublikamizning eng yirik tijorat banki bo‘lgan Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning kredit operatsiyalarini bo‘yicha anderrayting usuli 2020-yilda joriy qilindi¹²⁵.

Mazkur anderrayting usuliga ko‘ra:

* anderrayting ikki bosqichda, filiallar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib amalga oshiriladi;

* kredit berish masalasi ijobiy yechim topganda, taqdim etilgan ma’lumotlar tahlili natijalari va ta’minot to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilova qilinadi.

3.2-§. Tijorat banklari kreditlarining tarkibi, dinamikasi, daromadliligi va kredit riskini boshqarish amaliyoti

Kreditlash O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatining asosiy, birlamchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kredit mexanizmining amaldagi holatiga baho berish uchun tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarkibi va dinamikasini, daromadliligini va kredit riskining darajalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilamiz.

Dissertatsiyaning ushbu paragrafida tahlillarni amalga oshirishda moliyaviy tahlilning guruhlash, qiyosiy, tarkibiy va trendli tahlil usullaridan foydalanamiz.

Tahlillar uchun ma’lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking rasmiy statistik ma’lumotlaridan hamda tadqiqot obyekti bo‘lgan tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarining ma’lumotlaridan foydalanamiz.

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki» aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvining 2020-yil 11-sentyabrda 103-sonli bayonnomasi//www.cbu.uz.

3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibi,
foizda¹²⁶

Aktivlar tarkibi	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kassali aktivlar shu jumladan:	17,1	17,2	17,3	18,1	20,0
Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	2,5	2,4	2,7	2,4	3,5
Markaziy bankdagi mablag‘lar	5,3	5,4	5,1	7,1	6,6
Boshqa bankdagi mablag‘lar-rezident	3,0	3,7	3,6	3,0	3,1
Boshqa bankdagi mablag‘lar-norezident	6,3	5,7	5,9	5,6	6,8
Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar	1,1	1,2	2,6	4,4	5,7
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo‘yicha majburiyatlari	0,9	0,2	0,4	0,3	0,3
Kreditlar	76,8	76,1	73,8	71,1	68,1
Asosiy vositalar	1,6	2,1	2,3	2,5	2,6
Aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlar	1,3	1,2	2,2	2,1	2,2
Boshqa aktivlar	1,2	2,0	1,4	1,5	1,1
Aktivlar — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

3.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari umumiy hajmida eng yuqori salmoqni 2018-2022 yillarda kreditlar egallagan. Bu esa, respublikamiz tijorat banklari uchun asosiy faoliyat yo‘nalishi tahlil qilingan davr mobaynida kreditlash bo‘lganligi bilan izohlanadi.

3.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklarining aktivlar hajmida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar 2018-2022 yillarda nisbatan juda kichik salmoqni egallagan. Bu esa, banklar faoliyatini rivojlantirish va banklarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Holbuki, taraqqiy etgan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Endi biz kreditlarning tarmoq tarkibiga baho beramiz (3.2-jadval).

¹²⁶ Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

3.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibi, foizda¹²⁷

Tarmoqlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Sanoat	39,8	35,7	36,9	36,0	32,5
Qishloq xo‘jaligi	5,6	8,1	10,1	10,7	10,8
Qurilish	3,5	2,8	2,7	2,8	2,7
Savdo va umumiy xizmat	6,4	6,8	7,2	8,4	7,4
Transport va kommunikatsiya	12,5	11,1	9,6	8,8	7,6
Moddiy-texnika ta‘minoti	1,6	1,5	1,4	1,2	1,0
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	1,1	1,2	1,4	0,7	0,5
Jismoniy shaxslar	14,6	18,9	19,8	21,3	25,9
Boshqa sohalar	14,8	13,7	10,9	10,0	11,7
Kreditlar — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

3.2-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, 2018-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarmoq tarkibida eng yuqori salmoqni sanoat korxonalariga berilgan kreditlar egallagan.

3.2-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, 2018-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida moddiy-texnika ta‘minoti va uy-joy kommunal xo‘jaligiga berilgan kreditlar nisbatan kichik salmoqni egallagan. Bu esa, mazkur tarmoqlarda foyda me‘yorining past ekanligi va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash amaliyotining mavjudligi bilan izohlanadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarining kredit portfelini tarmoq xususiyatiga diversifikatsiya qilish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Endi biz tahlilni chuqurlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik-tijorat banklari- ATB “O‘zsanoatqurilishbank” va AT “Asakabank”ning kreditlash amaliyotini tahlil qilamiz.

¹²⁷ Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma‘lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

3.3-jadval**ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlarining miqdori va darajasi¹²⁸**

Ko‘rsatkichlar	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlar, mlrd. so‘m	8634	20207	27293	29442	39898	43147	48075
Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i, %	82,6	84,1	89,5	84,4	81,4	76,4	74,8

3.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2016-2022 yillarda kreditlar O‘zsanoatqurilishbankning aktivlari hajmida yuqori salmoqni egallagan. Biroq, 2018-2022 yillarda kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i pasayish tendensiyaga ega bo‘lgan. Bu esa, tahlil qilingan davr mobaynida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini o‘shirish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi.

3.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2016-2018-yillarda kreditlarning O‘zsanoatqurilishbank aktivlarining umumiy hajmidagi salmog‘i o‘shirish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Biroq, 2018-2022 yillarda ushbu ko‘rsatkichning pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Shuningdek, mazkur ko‘rsatkichning yuqori pasayish sur‘ati 2021-yilda 2020-yilga nisbatan bo‘lgan.

Tijorat banklari kreditlash amaliyotida kreditlarning daromadlilik masalasi muhim o‘rin tutadi. O‘z navbatida, kreditlarning daromadlilikini ko‘rsatadigan muhim ko‘rsatkich bo‘lib, 1 so‘mlik kreditga to‘g‘ri keladigan daromadlilik darajasi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

3.4-jadval**ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlarining daromadlilikini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar¹²⁹**

Ko‘rsatkichlar	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlar, mlrd. so‘m	8634	20207	27293	29442	39898	43147	48075
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so‘m	414	633	1270	2108	3007	3747	4591
1 so‘mlik kreditga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi, %	4,8	3,1	4,7	7,2	7,5	8,8	9,5

128 Jadval muallif tomonidan ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

129 Jadval muallif tomonidan ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2016-2022 yillarda ATB "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan berilgan kreditlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, kreditlarning miqdori 2022 yilda 2016-yilga nisbatan juda yuqori sur'atda o'sgan. Shuningdek, mazkur davrda kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, Bankning mamlakat iqtisodiyotining real sektorida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etayotganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, keltirilgan ma'lumotlardan kreditlarning o'sish sur'ati va kreditlardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni har doim ham ta'minlanmaganligi ko'rinadi.

3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ATB "O'zsanoatqurilishbank" kreditlarining daromadlilik darajasi tahlil qilingan davr mobaynida nobarqaror bo'lgan. Bu esa, bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, 2018-2022 yillarda ATB "O'zsanoatqurilishbank" kreditlarining daromadlilik darajasi oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

3.5-jadval

ATB "O'zsanoatqurilishbank" kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori va darajasi¹³⁰

Ko'rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori, mlrd. so'm	1270	2108	3007	3747	4591
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi, %	84,3	83,8	82,5	83,6	85,3

3.5-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, O'zsanoatqurilishbankning kreditlardan olgan foizli daromadlarining miqdori 2018-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ammo, kreditlardan olgan foizli daromadlarning bankning jami foizli daromadlaridagi ulushi 2018-2020-yillarda pasayish


¹³⁰ Jadval muallif tomonidan ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, kreditlardan olgan foizli daromadlarning bankning jami foizli daromadlaridagi ulushini 2022 yilda 2018-yilga nisbatan oshganligi ijobiy holat hisoblanadi.

Kredit mexanizmining zamonaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ko'rsatkichi hisoblanadi. Agar, kreditlarning o'sish sur'ati kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, u holda, mazkur ikki ko'rsatkich o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan hisoblanadi. Quyidagi ikki holatda kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan hisoblanadi:

* kreditlarning o'sish sur'ati kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atidan past bo'lsa;

* kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati teng bo'lsa.



3.1-rasm. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o‘shish sur‘ati¹³¹

3.1-rasm ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik 2018-2022 yillarda ta'minlangan. Chunki, mazkur davrda

¹³¹ Rasm muallif tomonidan ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan.

O'z navbatida, kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdorining oshishi kreditlar hajmining oshishiga va kreditlarning foiz stavkalarini ko'tarilishi natijasidir. Biroq, kreditlar hajmining sakragansimon o'sishi va kreditlarning foiz stavkalarini keskin ko'tarilishi tijorat banklari kreditlarining daromadlilikiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Endi biz tadqiqot obyekti bo'lgan yana bir tijorat banki – AT “Asakabank”ning kreditlash amaliyotini tahlil qilamiz.

3.6-jadval

AT “Asakabank” kreditlari miqdorlari, darajasi va dinamikasi¹³²

Ko'rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlar miqdori, mlrd. so'm	24750	26321	34122	37685	36741
Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i, %	81,5	75,9	75,0	74,2	71,8

3.6-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, AT “Asakabank” kreditlarining miqdori 2018-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, quyidagi ikki holat bilan izohlanadi:

1. AT “Asakabank”ning davlat dasturlarida faol ishtirok etayotganligi.

Asakabank davlat banki sifatida davlat dasturlarini moliyalashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Bu esa, AT “Asakabank” kreditlari miqdorining ko'payishida muhim o'rin tutadi.


2. Inflyatsiya ta'sirida kreditlash obyekti bo'lgan tovarlar va xizmatlar baholarining oshayotganligi.

Kreditlash obyektlari baholarining inflyatsion oshishi tijorat banklari kreditlari miqdorining ko'payishiga olib kelmoqda.

3. Milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadsizlanishi tufayli xorijiy valyutalarda berilgan kreditlarning milliy valyutadagi ekvivalenti hajmini yuqori sur'atlarda oshayotganligi.

¹³² Jadval muallif tomonidan AT “Asakabank”ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.6-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, AT "Asakabank" kreditlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar va "Nostro" vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag'larining brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining oshganligi bilan izohlanadi.



3.2-rasm. Milliy valyuta – so'mning 1 AQSH dollariga nisbatan nominal almashuv kursi, so'm¹³³

3.2-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, 2018-2022 yillarda milliy valyuta-so'mning AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanish sur'ati sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu esa, xorijiy valyutada berilgan kreditlarning milliy valyutadagi ekvivalentini yuqori sur'atda oshishiga olib keladi.

3.7-jadval

AT "Asakabank" kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori va darajasi¹³⁴


Ko'rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori, mlrd. so'm	1031	1723	2136	2398	2824
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi, %	64,1	67,0	62,7	82,0	87,1

¹³³ Valyuta kursi//www.cbu.uz

¹³⁴ Jadval muallif tomonidan ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, AT "Asakabank"ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2018-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, ushbu davrda AT "Asakabank" tomonidan berilgan kreditlar miqdorining o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

3.7-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, AT "Asakabank"ning kreditlardan olingan foizli daromadlarining jami foizli daromadlardagi ulushi 2020-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdorini o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.




3.3-rasm. AT "Asakabank" kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'ati¹³⁵

3.3-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, Asakabankda kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik 2018-2022 yillarda ta'minlangan, faqat 2021-yilda ushbu mutanosiblik ta'minlanmagan.

Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi kredit mexanizmining

¹³⁵ Rasm muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

takomillashganlik yoki takomillashmaganlik darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.



3.4-rasm. AT "Asakabank"¹³⁶ va ATB "O'z sanoatqurilishbank"¹³⁷ bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %

3.4-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, 2019-2022 yillarda AT "Asakabank" va ATB "O'z sanoatqurilishbank" bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi mazkur ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan (1,0%) yuqori bo'lgan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari miqdorining ko'payishi tijorat banklarining likvidiligi va moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, birinchidan, mazkur ajratmalar miqdorini oshishi kreditlarning sifati yomonlashayotganligini ko'rsatadi; ikkinchi sababi shundan iboratki, zaxira ajratmalari miqdorini oshishi natijasida tijorat banking sof foydasini miqdori kamayadi.

¹³⁶ Rasm muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹³⁷ Rasm muallif tomonidan ATB "O'z sanoatqurilishbank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.8-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o‘rtacha foiz stavkasi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiyaning yillik darajasi¹³⁸, foizda

Ko‘rsatkichlar	2016-y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasi	11,5	18,5	20,5	24,2	22,3	20,8	21,9
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	9,0	14,0	16,0	16,0	14,0	14,0	15,0
Inflyatsiyaning yillik darajasi	5,7	14,4	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3

3.8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2016-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi nisbatan yuqori bo‘lgan. Buning ustiga, kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 2022 yilda 2016-yilga nisbatan yuqori darajada o‘sgan. Bu esa, banklarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazardan salbiy holat hisoblanadi.

3.8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2016-2022 yillarda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi nisbatan yuqori bo‘lib, 14 foizdan pastga tushmagan. Bu esa, mazkur davrda inflyatsiya darajasining yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi, chunki, inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda Markaziy bank o‘zining qayta moliyalash stavkasini pasaytira olmaydi. Bunday sharoitda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining pasaytirilishi inflyatsiya darajasining yanada oshishiga olib keladi.

3.8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2016-2022 yillarda respublikamizda inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan. Buning ustiga, inflyatsiya darajasi 2022 yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

¹³⁸ Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

3.3-§. Kredit mexanizmiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili

Mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish natijasida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash ishlari jadal rivojlanib bormoqda. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan kreditlarning hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Ajratilayotgan kreditlar maqsadli ravishda foydalanilmoqda va buning natijasida yalpi ichki mahsulotning jismoniy hajmi ham ortib bormoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hisobidan yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, bu esa, o'z navbatida aholining ish bilan bandligini oshirib, ularni daromad bilan ta'minlanmoqda.

Tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar, u ishlab chiqarishni barqarorligini ta'minlashga yoki xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan multiplikativ samara keltiradi. Ya'ni, tadbirkorlik subyektlari tomonidan olingan kreditlar multiplikativ samaraga ega.

Ushbu paragrafda ATB "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan kreditlarning o'sish sur'atlari va ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ekonometrik modellashtirish va yaqin davrlarga prognozlashdan iborat.

Shu munosabat bilan ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning tadbirkorlik subyektlariga ajratayotgan kreditlarini baholash orqali kreditlar hajmiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va ularni variantli prognozlash uchun ko'p omilli ekonometrik modellarini tuzish muhim ahamiyatga ega. Ko'p omilli ekonometrik model natijaviy omilga bir qator omillar ta'sirini o'rganishga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda ko'p omilli ekonometrik modelga quyidagi omillar tanlab olindi:

- natijaviy omil sifatida — ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratayotgan kreditlari hajmi, mlrd. so'm (Y);
- ta'sir etuvchi omillar esa – depozitlar, mlrd. so'm, (X_1);
- bank kapitali, mlrd. so'm, (X_2);

– boshqa banklardan olingan kreditlar hajmi, mlrd. so‘m (X_3).

Tanlab olingan omillar stastistik bog‘liqlik nuqtayi nazarida tekshirilgan.

(Ma’lumotlar 2013-2021-yillarning choraklari bo‘yicha olingan).

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratayotgan kreditlari hajmiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha o‘tkazilgan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 3.9-jadvalda keltirilgan.


3.9-jadval

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” tomonidan ajratayotgan kreditlar hajmiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha tavsifiy statistika

	Y	X1	X2	X3
Mean (o‘rtacha)	19102.33	4772.778	2736.278	13316.25
Median (mediana)	15119.50	2892.500	1357.000	11596.50
Maximum (maksimum)	43148.00	12607.00	7701.000	29479.00
Minimum (minimum)	3792.000	1427.000	359.0000	2472.000
Std. Dev. (standart chetlanish)	13903.61	3690.137	2606.779	9097.119
Skewness (asimetriya)	0.406405	0.913353	0.859095	0.273521
Kurtosis (ekssess)	1.573346	2.339554	2.096156	1.463736
Jarque-Bera (Jak-Bera)	4.044003	5.659561	5.653665	3.989042
Probability (ehtimollik)	0.132390	0.059026	0.059200	0.136079
Sum (yig‘indi)	687684.0	171820.0	98506.00	479385.0
SumSq. Dev. (standart chetlanish yig‘indisi)	6.77E+09	4.77E+08	2.38E+08	2.90E+09
Observations (kuzatuvlar)	36	36	36	36

Jadval ma’lumotlaridan har bir omilning o‘rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Deviation) — standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko‘rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

Skewness – asimetriya koeffitsiyenti bo‘lib, u nolga teng bo‘lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimetrik hisoblanadi (ya’ni, simmetrik emas). Agar asimetriya koeffitsiyenti 0 dan katta, ya’ni musbat bo‘lsa, u holda o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi o‘ng tomonga surilgan bo‘ladi. 0 dan kichik, ya’ni manfiy bo‘lsa, u o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo‘ladi. Barcha omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.




3.5-rasm. Omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari

3.5-rasmdan shuni ko‘rish mumkinki, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunar ekan. Ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari musbat qiymatga ega bo‘lganligi sababli, ularning grafiklaridagi “o‘ng do‘mi” “chap do‘mi” dan uzunroq bo‘lib, taqsimot funksiyasi grafigi chap tomonga siljiganini ko‘rish mumkin.

Ushbu surilishlar asosan o‘rganilayotgan omillarni dinamikasidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Ayrim yillarda ba’zi omillar keskin ortishga ega bo‘lgan bo‘lsa, ayrimlarida o‘zgarishlar sezilarli darajada bo‘lmagan. Umuman olgandan o‘rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunar ekan.

Natijaviy omilning normal taqsimoti grafigi quyidagi 3.6-rasmda keltirilgan.



3.6-rasm. Natijaviy omilni normal taqsimot qonuniga bo‘ysunishini tekshirish

Natijaviy omilni (Y) normal taqsimot qonuniga bo'ysunishini tekshirish uchun Jak-Bera mezonidan foydalaniladi. Mazkur mezon statistik mezon bo'lib, kuzatuvlar xatolarini normal taqsimot momentlari bilan uchinchi moment (asimmetriya) va to'rtinchi momentini (ekssess) normal taqsimotga tekshiradi va $S = 0$ va $K = 3$.

3.6-rasmdan shuni aniq ko'rish mumkinki, natijaviy omil normal taqsimotga bo'ysunar ekan. Bu hisoblangan parametrlar va mezonlar tomonidan tasdiqlanmoqda, ya'ni Jak-Bera hisoblangan koeffitsiyenti 15,182 ga teng va uning ehtimolligi (probability) 0,05 dan kichik (prob=0.004924). Bu esa, ekonometrik tahlilda tanlangan omillarning bosh ko'rsatkichga ta'sirini baholash aniqligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratayotgan kreditlari hajmiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun omillar o'rtasida korrelyatsion tahlil o'tkazish lozim. Buning uchun omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Ekonometrik tahlilda tanlab olingan omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi quyidagi 3.10-jadvalda keltirilgan.

3.10-jadval

Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi

	Y	X1	X2	X3
Y	1.000000			
X1	0.952710	1.000000		
	18.28201	-----		
	0.0000	-----		
X2	0.946409	0.584035	1.000000	
	17.08657	1.23953	-----	
	0.0000	0.2010	-----	
X3	0.981251	0.489420	0.437086	1.000000
	29.68625	0.346000	0.613731	-----
	0.0000	0.1324	0.1259	-----

Covariance Analysis: Ordinary
 Date: 07/22/22 Time: 10:30
 Sample: 2013Q1 2021Q4
 Included observations: 36
 Correlation
 SSCP
 Probability

Ushbu 3.10-jadvaldan ko‘rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari — bu natijaviy omil (Y) va unga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanishlar zichligini ko‘rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil – ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratayotgan kreditlari hajmi (Y) va ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida turli xil bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.


Demak, ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning ajratayotgan kreditlari hajmi (Y) va depozitlari hajmi (X_1) o‘rtasida bog‘lanish zichligi 0,9527 ga teng. Bu esa bank tomonidan ajratayotgan kreditlar va bank depoziti hajmi o‘rtasida kuchli bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratayotgan kreditlari hajmi (Y) bilan bank kapitali hajmi (X_2) o‘rtasida ham zich bog‘lanish mavjud ekan, ya’ni ular o‘rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,9464 teng ekan. Bundan tashqari, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratayotgan kreditlari hajmi (Y) va boshqa banklardan olingan kreditlar hajmi (X_3) o‘rtasida ham zich bog‘lanish mavjud ekan. Buning sababi mazkur ikki omil o‘rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9812 teng ekan.

Yuqorida keltirilgan 2-jadvalda juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ham mavjud bo‘lib, ular ta’sir etuvchi omillar (X_1 , X_2 va X_3) o‘rtasida bog‘lanish zichliklarini ko‘rsatadi. Bu yerda eng muhim holat bo‘lib, ta’sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog‘lanmasligi kerak. Ya’ni, ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikollinearlik mavjud bo‘lmasligi lozim. Agar ikkita ta’sir etuvchi omil o‘rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan katta bo‘lsa, multikollinearlik mavjud deyiladi. 3.10-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida bog‘lanish zichliklari 0,7 dan katta emas ekan, ya’ni X_1 va X_2 o‘rtasida bog‘lanish 0.5840, X_1 va X_3 o‘rtasida bog‘lanish 0.4894 va X_2 va X_3 o‘rtasida bog‘lanish 0,4371 ga teng. Korrelyatsion matritsadagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikollinearlik mavjud emas.

Shuningdek, 3.10-jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchligi va ehtimolligini aniqlash bo'yicha koeffitsiyentlar hisoblangan (hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining tagida joylashgan qatorlardagi qiymatlar). Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning Styudentning t -mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi keltirilgan. Omillar o'rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo'lmaslik sharti qo'yiladi. Masalan, ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratayotgan kreditlari hajmi (Y) va depozitlar hajmi (X_1) o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{Y,X_1} = 0,9527$, $t = 18,2820$ va $\text{prob.} = 0,0000$ ga teng. Bu esa mazkur ikki omil o'rtasida zich bog'lanish borligini, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli ekanligi va 95 foiz aniqlikda ikki omil o'rtasida musbat zich bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi.

Juft korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, bank depozitlari hajmi (X_1) va boshqa banklardan olingan kreditlar hajmi (X_3) o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{X_1,X_3} = 0,4894$, $t = 0,3460$ va $\text{prob.} = 0,1324$ ga teng. Bu ushbu ikki omil o'rtasida sust bog'lanish mavjudligini hamda juft korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli emas ekanligini ko'rsatadi.

Omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari va shakllarini aniqlashda har bir omilning natijaviy ko'rsatkich (Y) bilan bog'liqligini aniqlash uchun ularning nuqtali grafiklarini ko'rib chiqamiz (3.7-rasm).



3.7-rasm. ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanish shakllarining ko'rinishi

3.7-rasmdagi grafiklarda vizual ko‘rinishda ham shuni aytish mumkinki, natijaviy omil (Y) bilan ta’sir etuvchi (X_i) omillar o‘rtasida to‘g‘ri va zich bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Demak, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o‘rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari Studentning t -mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi bo‘yicha qo‘yiladigan talablarga to‘la javob berar ekan.

Bu shundan dalolat beradiki, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelga barcha omillarni kiritamiz.

Umumiy holda ko‘p omilli ekonometrik model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda y – natijaviy omil, x_i – ta’sir etuvchi omillar, ε – tasodifiy xato.

Ko‘p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma’lum $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$ parametrlarini aniqlashda «eng kichik kvadratlar usuli» dan foydalanildi.

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi bo‘yicha tuziladigan ko‘p omilli ekonometrik modelning noma’lum parametrlarini hisoblashda EViews dasturidan foydalanamiz. Hisob-kitoblar bo‘yicha natijalar quyidagi 3.11-jadvalda keltirilgan.

3.11-jadval

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi va ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha ekonometrik model parametrlari

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.105395	0.050599	2.082946	0.0072
X2	1.893396	0.267947	7.066312	0.0000
X3	0.988783	0.029896	33.07458	0.0000
C	251.5659	266.7470	0.943088	0.3527
R-squared	0.997447	Mean dependent var		19102.33
Adjusted R-squared	0.997208	S.D. dependent var		13903.61
S.E. of regression	734.7135	Akaike info criterion		16.14128
Sumsquared resid	17273724	Schwarz criterion		16.31722
Loglikelihood	-286.5430	Hannan-Quinn criter.		16.20269
F-statistic	4167.310	Durbin-Watson stat		1.798951
Prob(F-statistic)	0.000000			

Dependent Variable: Y
Method: Least Squares
Date: 07/22/22 Time: 10:34
Sample: 2013Q1 2021Q4
Included observations: 16
2.082946

Yuqoridagi 3.11-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = 251,5659 + 0,1054X_1 + 1,8934X_2 + 0,9888X_3 \quad (2)$$

(266.75) (0.0505) (0.2679) (0.0299)

(dumaloq qavsdagi qiymatlar har bir omil bo'yicha hisoblangan standart xatoliklar qiymatlarini ko'rsatadi).

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning depozitlari hajmi (X_1) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortsa, ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) o'rtacha 0,1054 mlrd. so'mga ortar ekan. ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning kapitali hajmi (X_2) o'rtacha bir mlrd. so'mga ortsa, ATB "Sanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) o'rtacha 1,8934 mlrd. so'mga ortar ekan. ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning boshqa banklardan olgan kreditlari hajmining (X_3) o'rtacha 1 mlrd. so'mga ortishi, ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) o'rtacha 0,9888 mlrd. so'mga ortar ekan.

ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsiyentini tekshiramiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R^2 — R-squared (3-jadval)) 0,9974 ga teng. Bu esa, ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) 99,74 foizi (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 0,26 foizi (100,0-99,74) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi bo'yicha tuzilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldagi omillarning standart xatoliklarining

ham kichik qiymatlarni qabul qilganligi ham modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modelning (2) statistik ahamiyatligini yoki o‘rganilayotgan jarayonga adekvatligini (mos kelishini) tekshirishda Fisherning F -mezoni qo‘llaniladi. Fisherning hisoblangan F -mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar $F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$ bo‘lsa, u holda ko‘p omilli ekonometrik model (2) statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko‘rsatkich – ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmini (Y) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Demak, ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning ajratilgan kreditlari hajmi bo‘yicha tuzilgan (2) ko‘p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligini tekshirish uchun F -mezonning jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari $k_1 = m$ va $k_2 = n - m - 1$ hamda α ahamiyatlik darajasi bo‘yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 3$ va $k_2 = 36 - 3 - 1 = 32$ dan kelib chiqib, F -mezonning jadval qiymati $F_{\text{jadval}} = 2,92$ ga teng. F -mezonning hisoblangan qiymati $F_{\text{hisob}} = 4167,31$ va jadval qiymati $F_{\text{jadval}} = 2,92$ ga teng ekanligidan kelib chiqib va $F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$ sharti bajarilganligi uchun (2) ko‘p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) ni kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin.

ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modelning (2) hisoblangan parametrlari ishonchliligini tekshirishda Studentning t -mezonidan foydalaniladi. Student t -mezonining hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslab, N_0 gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($d.f. = n - m - 1$) shartlar asosida topamiz. Bu yerda n — kuzatuvlar soni, m — omillar soni.

Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi $d.f. = 36 - 3 - 1 = 32$ bo'lganda, t -mezoning jadval qiymati $t_{\text{жаибай}} = 2,03$ ga teng.

Ko'p omilli ekonometrik model tuzish bo'yicha olib borilgan hisob-kitoblardan shuni ko'rish mumkinki, ozod haddan tashqari va ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar bo'yicha t -mezoning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0,05$ aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko'rish mumkin (1-ilova). Bu esa barcha omillarni ishonchli ekanligini bildiradi va mazkur omillarga ko'p omilli ekonometrik modelda ishtirok etishiga imkon beradi.

ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning ajratilgan kreditlari hajmi bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) bo'yicha natijaviy omil (Y) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjudligini tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz.

Hisoblangan DW qiymati jadvaldagi DW_L va DW_U bilan taqqoslanadi. Agar $DW_{\text{hisob}} < DW_L$ dan kichik bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. $DW_{\text{hisob}} > DW_U$ dan katta bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati $DW_L = 1,24$ ga teng va yuqori chegarasi qiymati $DW_U = 1,65$ ga teng. $DW_{\text{hisob}} = 1,7989$ ga teng. Demak, $DW_{\text{hisob}} > DW_U$ bo'lgani uchun natijaviy omil (ATB "O'zsanoatqurilishbank" ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.


Bundan tashqari, ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) va unga ta'sir etuvchi ikki omil bo'yicha har bir kuzatuvlar avtokorrelyatsion (AS) va qisman avtokorrelyatsion (RAS) tahlilga tekshirilganda ham multikolleniarlik aniqlanmadi (barcha kuzatuvlarda ehtimollik (prob) nolga teng ekanligini kuzatish mumkin) (3.8-rasm).

Date: 07/23/22 Time: 10:36
 Sample: 2013Q1 2021Q4
 Included observations: 36

Autocorrelation	Partial Correlation	AC	PAC	Q-Stat	Prob	
		1	0.559	0.559	12.211	0.000
		2	0.186	-0.184	13.602	0.001
		3	-0.080	-0.151	13.870	0.003
		4	-0.046	0.162	13.961	0.007
		5	-0.010	-0.045	13.966	0.016
		6	-0.117	-0.229	14.588	0.024
		7	-0.227	-0.072	17.013	0.017
		8	-0.338	-0.185	22.584	0.004
		9	-0.222	0.045	25.077	0.003
		10	-0.197	-0.192	27.123	0.002
		11	-0.223	-0.210	29.855	0.002
		12	-0.187	0.051	31.854	0.001
		13	-0.049	0.034	31.998	0.002
		14	0.133	0.003	33.091	0.003
		15	0.144	-0.081	34.447	0.003
		16	0.118	-0.004	35.401	0.004

3.8-rasm. Natijaviy qator qoldiqlari darajalarini avtokorrelyatsiya va qisman avtokorrelyatsiyaga tekshirish

(2) ko‘p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 3.9-rasmda keltirilgan.




3.9-rasm. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmining (Y) haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) grafigi

3.9-rasmdan ko‘rish mumkinki (2) ko‘p omilli ekonometrik model bo‘yicha ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmining hisoblangan

qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o‘rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas. Bu esa (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.

Hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan kelgusi davrlarga natijaviy ko‘rsatkichni prognozlashda MARE (Mean absolute percent error – foizlardagi o‘rtacha absolyut xatolik) koeffitsiyenti hisoblanadi. Agar hisoblangan MARE koeffitsiyenti qiymati 15,0 foizdan kichik bo‘lsa, modeldan natijaviy omilni prognozlashda foydalanish mumkin bo‘ladi, aks holda foydalanib bo‘lmaydi. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmi bo‘yicha MARE koeffitsiyentining qiymati 2,5497 foizni tashkil etmoqda (3.10-rasm).



3.10-rasm. Hisoblangan modeldan prognozda foydalanish ko‘rsatkichlari

Bu esa, 15,0 foizdan kichik (MAPE=2,5497), ya’ni u 2,5497 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmini prognozlashda foydalanish mumkin.

Ushbu holatlardan foydalanib (2) ko‘p omilli ekonometrik model yordamida ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmini kelgusi davrlarga prognoz hisoblarini amalga oshiramiz.

Buning uchun avvalo har bir ta'sir etuvchi omil bo'yicha trend model tuzamiz. Trend model – bu ta'sir etuvchi omilning vaqtga bog'liq funksiyasidir hamda u umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (3)$$

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” depozitlari hajmi (X_1) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_1 = -1121,55 + 318,61 \cdot t \quad (4)$$

$$R^2 = 0,9097, F_{\text{хисоб}} = 163,10, t_{\text{хисоб}} = 12,7713$$

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kapitali hajmi (X_2) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_2 = -1439,7673 + 225,7329 \cdot t \quad (5)$$

$$R^2 = 0,8323, F_{\text{хисоб}} = 168,7835, t_{\text{хисоб}} = 12,9917.$$


ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning boshqa banklardan olgan kreditlari hajmi (X_3) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_3 = -1760,98 + 814,9888 \cdot t \quad (6)$$

$$R^2 = 0,8909, F_{\text{хисоб}} = 277,5861, t_{\text{хисоб}} = 16,6609$$

Ta'sir etuvchi omillar va vaqt omili o'rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko'rsatadiki (4) – (6) trend modellardagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatligi, parametrlarining ishonchliligi aniqlandi. Demak, (4) – (6) trend modellarini hisoblaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini (2) ko'p omilli ekonometrik modelga qo'yib, avvalo ta'sir etuvchi omillarning prognoz qiymatlarini, keyin esa, natijaviy omilni prognoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz. Natijada ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmini (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan o'zgaruvchilarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo'lamiz (qarang: 1-ilova).


1-ilovada keltirilgan ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, agar 2013-2021-yillar oralig'ida ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlari hajmi o'rtacha 19102,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich prognoz davrida o'rtacha 52039,81 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.



3.11-rasm. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ajratilgan kreditlari hajmining (2017-2021-yillar choraklar bo‘yicha) dinamikasi va 2022-2025-yillarda choraklar bo‘yicha prognoz qiymatlari


Bu esa, asosan mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining ortib borishi va ularga turli faoliyatlari uchun kreditlarni ajratish hamda ayrim kategoriyadagi tadbirkorlarga kreditlar bo‘yicha imtiyozlarni berish orqali amalga oshiriladi.

Retrospektiv davrda (2013-2021-yillar choraklar bo‘yicha) ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning depozitlari hajmi o‘rtacha 4773,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, prognoz davrida (2022-2025-yillar choraklar bo‘yicha) u o‘rtacha 13056,73 mlrd. so‘mga yetishi kuzatilmoqda. Bu asosan bank tomonidan depozitga pul mablag‘larini jalb qilish orqali amalga oshiriladi (3.12-rasm).




3.12-rasm. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” depozitlari hajmining (2017-2021-yillar choraklar bo‘yicha) dinamikasi va 2022-2025-yillarda choraklar bo‘yicha prognoz qiymatlari

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning kapitali hajmi ham prognoz davrida ortishi kuzatilmoqda. Agar 2013-2021-yillarda bankning depozitlari hajmi o‘rtacha 2736,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, prognoz davrida (2022-2025-yillar choraklar bo‘yicha) bu ko‘rsatkich o‘rtacha 8605,34 mlrd. so‘mga yetishi kuzatilmoqda (3.13-rasm).



3.13-rasm. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kapitali hajmining (2017-2021-yillar choraklar bo‘yicha) dinamikasi va 2022-2025-yillarda choraklar bo‘yicha prognoz qiymatlari

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” da boshqa banklardan olinadigan kreditlarning hajmi ham oshish tendensiyasiga ega. Agar 2013-2021-yillarda boshqa banklardan olingan kreditlarning o‘rtacha hajmi 13316,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, prognoz davrida (2022-2025-yillar choraklar bo‘yicha) o‘rtacha 34506,02 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda. Ya‘ni, o‘shish 2,6-martani tashkil etmoqda (3.14-rasm).



3.14-rasm. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” boshqa banklardan olgan krediti hajmining (2017-2021-yillar choraklar bo‘yicha) dinamikasi va 2022-2025-yillarda choraklar bo‘yicha prognoz qiymatlari

3.14-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zsanoatqurilishbank kreditlarining resurs ta'minotini shakllantirishda xorijiy banklardan olingan kreditlar 2023-2025-yillarda ham muhim o'rin tutadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmining zamonaviy holati bo'yicha xulosalarimiz quyidagilardan iborat:

– kreditlash mamlakat tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda banklarning roli, avvalo, ular tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlashda namoyon bo'ladi;

– kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri bo'lib, kreditlash shakllari va ulardan foydalanish amaliyoti hisoblanadi;

– kredit mexanizmining dolzarb masalalaridan yana biri – bu tijorat banklari kredit portfelining sifatini baholash va boshqarishni takomillashtirish hisoblanadi;

– Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining kredit portfelini boshqarishni takomillashtirishda keng qo'llanilayotgan usullardan biri bo'lib, andarrayting usuli hisoblanadi;

–O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari umumiy hajmida eng yuqori salmoqni 2018-2022 yillarda kreditlar egallaganligi respublikamiz tijorat banklari uchun asosiy faoliyat yo'nalishi tahlil qilingan davr mobaynida kreditlash bo'lganligi bilan izohlanadi;

– respublikamiz tijorat banklarining aktivlar hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar 2018-2022 yillarda nisbatan juda kichik salmoqni egallagan. Bu esa, banklar faoliyatini rivojlantirish va banklarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

– 2018-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarmoq tarkibida eng yuqori salmoqni sanoat korxonalariga berilgan kreditlar egallagan;

– 2016-2022 yillarda kreditlar ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning aktivlari hajmida yuqori salmoqni egallagan. Biroq, 2018-2022 yillarda kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i pasayish tendensiyaga ega bo‘lganligi tahlil qilingan davr mobaynida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi;

– 2016-2022 yillarda ATB “O‘zsanoatqurilishbank” tomonidan berilgan kreditlarning miqdori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan va mazkur davrda kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori ham o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

– ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlarining daromadlilik darajasi tahlil qilingan davr mobaynida nobarqaror bo‘lganligi bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. 2018-2022 yillarda ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlarining daromadlilik darajasi oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

– tahlil qilingan davr mobaynida AT “Aloqabank” tomonidan berilgan kreditlarning miqdori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

– AT “Asakabank” kreditlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i 2022 yilda 2016-yilga nisbatan sezilarli darajada pasayganligi mazkur davrda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi;

– 2019-2021-yillarda AT “Asakabank” kreditlarining daromadlilik miqdori pasayish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazardan salbiy holat hisoblanadi;

– AT “Asakabank” kreditlarining daromadlilik darajasi 2016-2018-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lganligi, bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazardan salbiy holat hisoblanadi;

2016-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi nisbatan yuqori bo‘lgan va kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 2022 yilda 2016-yilga nisbatan yuqori darajada o‘sganligi banklarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazardan salbiy holat hisoblanadi;

2016-2022 yillarda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi nisbatan yuqori bo‘lib, 14 foizdan pastga tushmaganligi mazkur davrda inflyatsiya darajasining yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi, chunki, inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda Markaziy bank o‘zining qayta moliyalash stavkasini pasaytira olmaydi. Bunday sharoitda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining pasaytirilishi inflyatsiya darajasining yanada oshishiga olib keladi;

– 2016-2022 yillarda respublikamizda inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan. Buning ustiga, inflyatsiya darajasi 2022 yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan kreditlarning o‘shish sur‘atlari va ushbu ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ekonometrik modellashtirish va yaqin davrlarga prognozlashdan iborat;

– ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi bo‘yicha tuzilgan (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldagi omillarning standart xatoliklarining ham kichik qiymatlarni qabul qilganligi ham modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi;

ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning analitik ko‘rinishda ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = 251,5659 + 0,1054X_1 + 1,8934X_2 + 0,9888X_3 \quad (2)$$

(266.75) (0.0505) (0.2679) (0.0299)

Hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik model shuni ko‘rsatadiki, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning depozitlari hajmi (X_1) o‘rtacha bir mlrd. so‘mga ortsa, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) o‘rtacha 0,1054 mlrd. so‘mga ortar ekan. ATB “Sanoatqurilishbank” ning kapitali hajmi (X_2)

o‘rtacha bir mlrd. so‘mga ortsa, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) o‘rtacha 1,8934 mlrd. so‘mga ortar ekan. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning boshqa banklardan olgan kreditlari hajmining (X_3) o‘rtacha 1 mlrd. so‘mga ortishi, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning ajratilgan kreditlari hajmi (Y) o‘rtacha 0,9888 mlrd. so‘mga ortar ekan.


– ATB “O‘zsanoatqurilishbank” ning kapitali hajmi ham prognoz davrida ortishi kuzatilmoqda. Agar 2013-2021-yillarda bankning depozitlari hajmi o‘rtacha 2736,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, prognoz davrida (2022-2025-yillar choraklar bo‘yicha) bu ko‘rsatkich o‘rtacha 8605,34 mlrd. so‘mga yetishi kuzatilmoqda.

IV-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KREDIT MEXANIZMINING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

4.1-§. Kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar.

Dissertatsion tadqiqotning oldingi boblarida amalga oshirilgan tahlillar ko‘rsatdiki, respublikamizda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Ulardan asosiylari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklari kreditlarining daromadlilik darajasining past ekanligi va kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini yuqori ekanligi.



4.1-rasm. Aksiyadorlik-tijorat AT “Asakabank”da 1 so‘mlik kreditga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi va kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi, foizda¹³⁹

4.1-rasmda keltirilgan ma‘lumotlar ko‘rsatadiki, AT “Asakabank”da 1 so‘mlik kreditning daromadlilik darajasi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan yuqori

¹³⁹ Rasm muallif tomonidan AT “Asakabank”ning Balans hisobotlari va Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlari ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

sur'atda pasaygan. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

4.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019-2021-yillarda AT "Asakabank"da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi uning me'yoriy darajasidan yuqori bo'lgan. Bu esa, tasniflangan kreditlarning oqilona tarkibini shakllanmaganligini ko'rsatadi va bankning kredit portfelini sifatini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini oshishi tijorat banklarining sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, bankning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.


Tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishida kreditlarning ta'minoti tarkibi muhim o'rin tutadi.

Tahlillar ko'rsatdiki, 2017-2021-yillarda AT "Asakabank" kreditlarining ta'minoti tarkibida O'zbekiston Hukumatining kafolatlari, ko'chmas mulk, uchinchi shaxslarning kafilligi hamda asbob-uskunalar va transport vositalari nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Mazkur davrda AT "Asakabank" kreditlarining ta'minoti tarkibida aksiyalar, sug'urta polisi va boshqa ta'minot turlari nisbatan kichik salmoqni egallagan.

Respublikamiz bank amaliyotida yuqori likvidli ta'minot bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlarining emissiya hajmi kichik. Bu esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga to'sqinlik qiladi.

Yer ham birinchi toifali garov obyeksi hisoblanadi, ammo, yer respublikamizda davlatning mulki hisoblanadi.

2. Tijorat banklarida berilgan kreditlar bo'yicha muammoli kreditlar miqdorining katta ekanligi.



4.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog‘i, foizda¹⁴⁰ (har bir moliyaviy yilning 31-dekabr sanasiga)

4.2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, muammoli O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog‘i tahlil qilingan davr mobaynida yuqori bo‘lgan.

4.2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, muammoli kreditlarning mamlakat banklarining brutto kreditlari hajmidagi salmog‘i 2019-2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan, ammo, 2022 yilda 2021-yilga nisbatan 1,6 foizli punktga pasaygan.

Muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog‘ining oshishi, asosan, davlat dasturlari doirasida berilgan direktiv kreditlar bilan va aholiga berilgan imtiyozli kreditlar bilan bog‘liq¹⁴¹. Mazkur muammoli kreditlarni Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qaytarish ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, ular hamon banklarga qaytarilmagan.

¹⁴⁰ Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

¹⁴¹ Холмаматов Ф.К. Тижорат банкларининг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.б. ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 56 б.; Гадоев С.Ж. Тижорат банкларида ликвидлилик riskини бошқаришни такомиллаштириш.И.ф.б.ф.д. дисс. автореф. – 47 б.

3. Tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past ekanligi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali AT "Asakabank" kredit portfelining tarmoq tarkibiga baho beramiz.

4.1-jadval

AT "Asakabank" kredit portfelining tarmoq tarkibi, foizda¹⁴²

Tarmoqlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Sanoat	71,9	62,8	68,2	70,6	67,2
Qishloq xo'jaligi	5,3	6,8	5,5	4,3	4,0
Transport va kommunikatsiya	0,6	1,2	1,9	1,8	1,8
Qurilish	7,1	1,2	1,2	1,3	1,0
Savdo va umumiy ovqatlanish	3,2	3,9	4,4	4,9	4,6
Moddiy-texnika ta'minoti	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
Uy-joy kommunal xo'jaligi	0,3	0,5	0,4	0,4	0,3
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	11,1	23,6	18,4	16,7	21,1
Jami	100	100	100	100	100

4.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, 2018-2022 yillarda AT "Asakabank" kredit portfelining diversifikatsiya darajasi past bo'lgan, ya'ni sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning kredit portfelidagi ulushi 60 foizdan yuqori bo'lgan.

4.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlari bo'lgan qishloq xo'jaligi, transport, moddiy-texnika ta'minotiga berilgan kreditlar AT "Asakabank"ning kredit portfelida kichik salmoqni egallagan.

2018-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarmoq tarkibida ham eng yuqori salmoqni sanoat korxonalariga berilgan kreditlar egallagan edi.

¹⁴² Jadval muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

4. Tijorat banklarida innovatsion kredit mahsulotlaridan foydalanishning talab darajasida emasligi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida kreditlashning innovatsion shakllari bo'lgan kontokorrent, forfeyting shakllari tijorat banklarining kreditlash amaliyotida mavjud emas. Bu esa, kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Kreditlashning kontokorrent shakli investitsiya loyihasini yoki yiriklashtirilgan kreditlash obyektini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi. Buning sababi shundaki, kreditlashning kontokorrent shaklida kredit oluvchining tijorat bankidagi talab qilib olinguncha depozit hisobraqami yopiladi va uning o'rniga kontokorrent hisobraqami ochiladi. Kredit olgan subyektning xo'jalik va moliyaviy faoliyatidan keladigan barcha pul tushumlari kontokorrent hisobraqamining kreditida aks etadi, uning barcha to'lovlari kontokorrent hisobraqamining debetida aks etadi. Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamining debetli qoldig'i summasiga beriladi. Bundan ko'rinadiki, kredit olgan subyekt pul mablag'larini yetmay qolish muammosidan xalos bo'ldi. Chunki, pul mablag'larini yetmay qolgan qismiga kontokorrent krediti beriladi.

Kreditlashning forfeyting shaklida tijorat banki mol yetkazib beruvchini trattani regress huquqisiz sotib olish yo'li bilan kreditlaydi.

Hozirgi davrda, xalqaro amaliyotda forfeyting kreditlari eksportni moliyalashtirishda keng foydalanilmoqda. Buning sababi shundaki, forfeyting eksportyorga valyuta tushumini muddatidan oldin olish imkonini beradi. Chunki, xalqaro savdoda tovarlarning asosiy qismi to'lovini kechiktirib to'lash sharti bilan sotiladi, ya'ni kreditga sotiladi. Bunday sharoitda, eksportyorga valyuta mablag'lari juda zarur bo'lsa, tijorat banki trattani regress huquqisiz sotib olish yo'li bilan eksportyorga valyuta tushumini muddatidan oldin olish imkonini beradi, ya'ni to'lab beradi.

Ta'kidlash joizki, forfeytingda importyorning to'lovga qobilligini baholash kredit beruvchi bank uchun, ya'ni eksportyorning banki uchun asosiy masala hisoblanadi. Chunki, eksportyorning banki trattani eksportyordan regress huquqisiz

sotib oladi. Ya'ni, importyor to'lovga noqobil bo'lib qolganida, eksportyorning banki eksportyordan berilgan kredit summasini qaytarishni talab qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Shuning uchun importyorning to'lovga qobilligini to'g'ri baholash eksportyorning banki uchun juda muhim amaliy ahamiyatga molik bo'lgan masala hisoblanadi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, forfeyting kreditlarini berish ancha muddat talab etadigan tayyorgarlik bosqichidan o'tishni talab etadi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- * eksportyor tomonidan eksportyorning banki tomonidan beriladigan kafolatning talablarini aniqlashning zarurligi;

- * eksportyorning banki tomonidan importyorning to'lovga qobilligini baholashning zarurligi;

- * bitim valyutasi, kreditlashning muddati, valyutalashtirish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashning zarurligi.

Forfeyting kreditlari, odatda, 180 kundan 5 yilgacha muddatga beriladi.

Shunisi ahamiyatliki, forfeyting kreditlash shakli eksportyorni valyuta riski muammosidan xalos etadi. Buning sababi shundaki, eksportyorning banki eksport tushumi summasini eksportyorga birdan to'lab beradi. Natijada, eksport tushumi olinadigan valyutaning qadrini pasayishi bilan bog'liq bo'lgan risk eksportyor uchun barham topadi. Holbuki, hozirgi davrda eksportyorlar uchun valyuta riski jiddiy muammo hisoblanadi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- * eksport operatsiyalarida bitim valyutasi vazifasini bajaradigan barcha yetakchi valyutalarni erkin suzish rejimiga ega ekanligi;

- * eksportyorlarni valyuta riski oqibatida ko'radigan zararlarini qoplab berish mexanizmining mavjud emasligi.

Respublikamiz tijorat banklarining innovatsion kredit mahsulotlaridan foydalanish amaliyotining talab darajasida emasligini ko'rsatuvchi yana bir holat – bu kreditlashning overdraft, faktoring va sinditsiyali kreditlash shakllaridan foydalanish amaliyotining takomillashmaganligi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, ATB "O'zsanoatqurilishbank" kreditlarining umumiy hajmida faktoring kreditlarining ulushi atigi 0,6 foizni, sinditsiyali kreditlarning ulushi esa, atigi 1,9 foizni tashkil etdi¹⁴³.

Fikrimizcha, kreditlashning overdraft shaklidan foydalanish amaliyotini takomillashmaganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

* overdraft kreditlarini ta'minotsiz kreditlar ekanligi (overdraft kreditlari uchun ta'minot olishning iloji yo'q, chunki, ta'minot olish uchun kredit summasi oldindan ma'lum bo'lishi kerak. Overdraft kreditning summasini oldindan bilishning iloji yo'q);

* respublikamizning xo'jalik amaliyotida to'lovlarning maqsadli ketma-ketligini qo'llanilayotganligi.

To'lovlarning maqsadli ketma-ketligida korxonalarining davlat byudjeti oldidagi qarzdorligi birinchi navbatda to'lanadi. Bunday sharoitda overdraft kreditlari tijorat banklari uchun yuqori riskli kreditga aylanadi.


Factoring kreditlarining ikki muhim afzalligini e'tirof etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Uning birinchi afzalligi shundaki, korxonalar o'rtasidagi debitor qarzdorlikni aylanishini tezlashtiradi. Chunki, faktoringda tijorat banki debitor qarzdorlikni regress huquqi bilan va regress huquqsiz sotib oladi. Faktoringni ikkinchi afzalligi shundaki, u tovarlarni sotilishini tezlashtiradi.

Mamlakat iqtisodiyotini isloh qilishning hozirgi davrida investitsiyalarni moliyalashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Buning sababi shundaki, yirik investitsiya loyihalari katta miqdordagi moliyalashtirish manbalarini talab etadi. Bunday sharoitda tijorat banklarining sinditsiyali kreditlari yirik miqdordagi moliyaviy manba sifatida yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim o'rin tutadi.

5. Tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini zaif ekanligi.

Respublikamiz tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini zaif ekanligi, avvalo, ularning depozit bazasini yetarli emasligida namoyon bo'ladi.

¹⁴³ Kredit va lizinglar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari//www.sqb.uz



4.3-rasm. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog‘i, foizda¹⁴⁴

4.3-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, ATB “O‘zsanoatqurilishbank”da, 2018-2022 yillarda depozit bazaning yetarliligi ta’minlanmagan. Chunki, talab qilib olinadigan depozitlarning ATB “O‘zsanoatqurilishbank” depozitlarining umumiy hajmidagi salmog‘i tahlil qilingan davr mobaynida 50,0 foizdan yuqori bo‘lgan. Tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo‘lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i 30,0 foizdan oshmasligi kerak.

To‘lov hujjatlari faqat talab qilib olinadigan depozit hisobraqamiga yoziladi, biroq, ushbu hisobraqamdagi pul mablag‘lari tijorat banklari uchun resurs manbai hisoblanmaydi.

Respublikamiz tijorat banklari kreditlarining resurs ta’minotini zaif ekanligini ko‘rsatuvchi yana bir holat – bu tijorat banklari majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan olingan pul mablag‘larining salmog‘ini juda kichik ekanligi (4.2-jadval).

¹⁴⁴ Rasm muallif tomonidan ATB «O‘zsanoatqurilishbank»ning moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari (Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot//www.cqb.uz) asosida tuzilgan.

4.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari majburiyatlarining tarkibi,
jamiga nisbatan foizda¹⁴⁵

Passivlarning tarkibi	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Depozitlar	37,3	41,1	37,3	41,8	45,4
Markaziy bankning vakillik hisobvarag‘i	0,27	0,8	0,4	0,2	0,2
Boshqa banklarning mablag‘lari-rezident	3,4	4,5	4,2	3,6	3,9
Boshqa banklarning mablag‘lari-norezident	0,3	0,4	1,0	1,2	4,8
Olingan kreditlar	55,6	47,5	49,3	46,5	39,1
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	0,01	1,3	3,1	2,8	2,3
Subordinar qarzlilar	0,0	1,8	1,3	1,1	1,4
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	1,2	1,1	1,2	1,1	1,1
Boshqa majburiyatlar	2,0	1,7	2,2	1,8	1,8
Jami majburiyatlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

4.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklari majburiyatlarining umumiy hajmida banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan pul mablag‘lari juda kichik salmoqni (2022 yilda atigi 2,3 foizni tashkil etdi) tashkil qiladi.

4.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklari majburiyatlarining umumiy hajmida nisbatan juda yuqori salmoqni depozitlar va xorijdan jalb qilingan kreditlar egallaydi.

Dissertatsiyaning birinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko‘rsatdiki, transmilliy banklarning majburiyatlari tarkibida depozitlar va bankning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan olingan pul mablag‘lari nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Masalan, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, “Bank of America” majburiyatlarining umumiy hajmida depozitlarning salmog‘i 69,5 foizni, qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan pul mablag‘larining salmog‘i 11,5 foizni tashkil etdi.

¹⁴⁵ Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Shu sanaga, “Deutsche Bank” majburiyatlarining umumiy hajmida qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan pul mablag‘larining salmog‘i 30,7 foizni tashkil etdi.

6. Banklarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar o‘tkazgan ilmiy tadqiqotlar tijorat banklarining barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa muammolarning ham mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu muammolardan dolzarblari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Buning natijasida korxonalarining xorijiy valyutalarda olgan kreditlarini to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari va mahsulotlar tannarxining oshib ketishi yuz berdi. Natijada, ularning to‘lovga qobillik darajasi pasaydi¹⁴⁶;

– respublikamiz tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlar o‘rtasida kuchli nomutanosiblikning mavjudligi, banklar faoliyatidagi transformatsiya riskining chuqurlashishiga olib keldi. O‘z navbatida, transformatsiya riskining chuqurlashishi banklarda balanslashmagan likvidlilik muammosining chuqurlashishiga olib keldi¹⁴⁷;

– tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishi respublikamiz tijorat banklarining likvidliligiga va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu esa, tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishi kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining miqdorini oshishiga olib keldi. O‘z navbatida, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining miqdorini oshishi bankning sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keldi. Chunki, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari summasi to‘liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi¹⁴⁸;

¹⁴⁶ Мажидов Ж.К. Тижорат банклари активлар портфелини шакллантиришнинг сифатини оширишнинг долзарб масалалари//Халқаро молия ва ҳисоб. – Тошкент, 2017. – №1, февраль;

¹⁴⁷ Гадоев С.Ж. Тижорат банкларида ликвидлилик riskини бошқаришни такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д. дисс. автореф. – 47 б.


¹⁴⁸ Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 73 б.

– respublikamizda tijorat banklari mijozlarning joriy hisobraqamlaridagi pul mablag‘larini, ularning ruxsatisiz ishlatayotganligi banklarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Holbuki, mijozning joriy hisobraqamidagi pul mablag‘larini, uning roziligisiz ishlatish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish prinsiplariga ziddir¹⁴⁹.

– shuningdek, respublikamiz banklarida muammoli kreditlar miqdorining katta ekanligi hamda ularning aktivlari va majburiyatlari o‘rtasida nomuvofiqlikning mavjudligi tufayli balanslashmagan likvidlilik muammosi chuqurlashib ketgan.

Koronavirus pandemiyasi tufayli karantin cheklovlari o‘rnatilgan davrida (2020-yil mart-sentyabr oylari) moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan aholi va tadbirkorlik subyektlarining 26,6 trln. so‘mlik kredit to‘lovlari muddatini 2020-yilning 1-oktyabriga qadar uzaytirilganligi banklar faoliyatidagi likvidlilik riskini yanada chuqurlashishiga olib keldi¹⁵⁰.

7. Iqtisodiyotni pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasining past ekanligi.



4.4-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotini pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi, foizda¹⁵¹

¹⁴⁹ Исмаилов А.А. Ўзбекистон Республикаси пул тизимини мустаҳкамлашнинг назарий-услугий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 81 б.

¹⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobot//www.cbu.uz.

¹⁵¹ Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

4.4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 2018-2022 yillarda nisbatan past bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning xalqaro amaliyotda umum e'tirof etilgan eng past darajasi 40,0 foizni tashkil etadi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublika iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 2019-2022 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Mamlakat iqtisodiyotini pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining past bo'lishi iqtisodiyotdagi to'lovsizlik muammosini hal qilish imkonini bermaydi. Iqtisodiyotdagi to'lovsizlik muammosi esa, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishiga to'sqinlik qiladi.

Respublikamiz korxonalarini o'rtasidagi debitor qarzdorlik miqdorining katta ekanligi iqtisodiyotdagi to'lovsizlik muammosining miqyosi katta ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 220 191,2 mlrd. so'mni tashkil qildi, muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2021-yilning 1-dekabriga nisbatan solishtirilganda 3,1-martaga ko'paygan¹⁵².

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz korxonalarini o'rtasida katta miqdorda debitorlik qarzi mavjud. Buning ustiga, so'nggi yillarda ular o'rtasidagi muddati o'tgan debitor qarzdorlikning miqdori yuqori sur'atlarda o'smoqda.

Shu o'rinda qayd etish joizki, mamlakatimiz iqtisodiyotidagi to'lovsizlik muammosini hal qilishni murakkablashtiradigan jiddiy omillar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari, fikrimizcha, quyidagilardir:

- * davlat byudjetini katta miqdordagi defitsit bilan bajarilayotganligi;
- * tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi. 2023-yilning dastlabki 8 oyi yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat

¹⁵² Korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi//<http://stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi).

byudjetining defitsiti 39 trln. soʻmga yetdi. Bu oʻtgan 2022 yildagi davlat byudjeti defitsitidan 35,2 trln. soʻmga koʻp¹⁵³.

Davlat byudjeti katta miqdorda defitsit bilan bajarilayotgan sharoitda Hukumat davlat byudjetining iqtisodiy xarajatlarini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Holbuki, iqtisodiyotning pul mablagʻlari bilan taʼminlanganlik darajasini oshirishda davlatning byudjet siyosati katta rol oʻynaydi. Davlat byudjetning iqtisodiy xarajatlarini oshirish orqali iqtisodiyotdagi pullar taklifini koʻpaytiradi. Jumladan, davlat buyurtmasi hajmining oshirilishi davlat ehtiyojlari uchun tovarlar xarid qilish hajmini oshirish imkonini beradi. Buning natijasida, davlat buyurtmasining ijrosida ishtirok etayotgan korxonalarining pul mablagʻlari koʻpayadi.


Qayd etish joizki, tijorat banklari kreditlari hajmining oshishi iqtisodiyotni pul mablagʻlari bilan taʼminlanganlik darajasini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Chunki, kreditlar hisobidan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish xarajatlari moliyalashtiriladi. Biroq, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun kreditlarning foiz stavkalari past va barqaror boʻlishi kerak. Chunki, foiz stavkasi kreditning bahosi hisoblanadi. Kreditning bahosi qanchalik yuqori boʻlsa, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning kreditlardan foydalanish imkoniyati shunchalik past boʻladi.

J.Keyns tomonidan taklif qilingan “arzon kreditlar” nazariyasi dunyoning qator mamlakatlarida, shu jumladan, Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiya kabi mamlakatlarda oʻzini oqladi. Aynan, mazkur mamlakatlarda Ikkinchi jahon urushidan keyin tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini past va barqaror darajasini taʼminlanganligi milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini taʼminlashning bosh omili boʻldi.

Afsuski, hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning foiz stavkalari ancha yuqoridir. Bu esa, oʻz navbatida, inflyatsiya

¹⁵³ 2023-yilning 8 oyida davlat byudjeti defitsiti 39 trln soʻmga yetdi//kun.uz/news/2023/09/18.

darajasi va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining yuqori ekanligi hamda resurslarning qimmatligi bilan izohlanadi.



4.5-rasm. O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi va Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi, foizda¹⁵⁴

4.5-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2018-2022 yillarda respublikamizda inflyatsiyaning yillik sur’ati sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu esa, mamlakat Markaziy bankiga qayta moliyalash stavkasini pasaytirish imkonini bermagan.

Shuningdek, banklar tomonidan jalb qilingan depozitlarning baholarini yuqori ekanligi ham kreditlarning qimmatlashuviga sabab bo‘lgan (qarang: 2-ilova).

2-ilovada keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2018-2022 yillarda mamlakat tijorat banklarining milliy valyutadagi depozitlarining foiz stavkalari sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu esa, kreditlarning foiz stavkalarining darajasini pasaytirish imkonini bermaydi. Chunki, muddatli va jamg‘arma depozitlar tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning asosiy resurs manbai hisoblanadi (talab qilib olinadigan depozitlar resurs manbai hisoblanmaydi).

¹⁵⁴ Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

4.2-§. Kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish yo‘llari

Fikrimizcha, kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit to‘loviga layoqatliligining asosiy jihatlarini to‘laqonli qamrab olishni ta‘minlash maqsadida, birinchidan, kompaniyaning kredit sifatini baholashga yo‘naltirilgan ko‘p omilli regressiyasining gibridli modelidan foydalanish kerak (ushbu modelda ham moliyaviy ma‘lumotlardan, ham bankdagi hisobraqamlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalaniladi); ikkinchidan, xalqaro bank amaliyotida kredit riskini baholash va boshqarishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilayotgan kredit oluvchining defolt bo‘lish ehtimolini baholash modellaridan foydalanish zarur; uchinchidan, mijozlarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholash maqsadida qo‘llanilayotgan amaldagi asosiy moliyaviy koeffitsiyentlar tarkibiga quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlarni kiritish lozim:

- * tezkor likvidlilik koeffitsiyenti;
- * muddatli likvidlilik koeffitsiyenti;
- * moliyaviy marja koeffitsiyenti.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan tavsiya qilingan metodikaga ko‘ra,¹⁵⁵ tezkor va muddatli likvidlilik koeffitsiyentlari quyidagicha aniqlanadi:

Tezkor likvidlilik koeffitsiyenti:

(PM + QMMQ) : JP

Bu yerda:

PM – pul mablag‘lari

QMMQ – qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar

JP – joriy passivlar

¹⁵⁵ Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org/publications>.

Ushbu ko'rsatkich 0,2 dan 0,5 gacha oraliqda bo'lishi kerak.

Muddatli likvidlilik koeffitsiyenti:

$(PM + QMMQ + DQ) : JP$

Bu yerda:

PM – pul mablag'lari

QMMQ – qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar

DQ – debitor qarzdorlik

JP – joriy passivlar

Ushbu ko'rsatkich 0,7 dan 1,0 gacha oraliqda bo'lishi kerak. Moliyaviy marja koeffitsiyenti kompaniyalarning kreditlar bo'yicha to'lov yuki to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit to'loviga layoqatliligini aniqlashda uchta asosiy va ikkita qo'shimcha moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanilmoqda.

Kreditga layoqatlilikni baholashda qo'llanilayotgan va uchta moliyaviy koeffitsiyentga asoslangan tizim quyidagi kamchiliklarga ega:

- kredit oluvchining tijorat banklaridan olingan kreditlar bo'yicha to'lov yukini aniqlash imkonini bermaydi;
- kredit oluvchining sof foydasi darajasini baholash imkonini bermaydi.
- faqat kredit oluvchining joriy likvidlilik darajasini baholash imkonini beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda, asosan, quyidagi to'rt moliyaviy koeffitsiyentdan foydalaniladi:

- joriy likvidlilik koeffitsiyenti;
- tezkor likvidlilik koeffitsiyenti;
- moliyaviy leveraj koeffitsiyenti;

– moliyaviy marja koeffitsiyenti¹⁵⁶.

Xalqaro bank amaliyotida kredit riskini baholash va boshqarishning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri boʻlib, kredit oluvchining defolt boʻlish ehtimolini baholash modellaridan foydalanish hisoblanadi. Bunda, Altman, Yermolova-Penikas va Mogilat modellaridan foydalanishga oid tavsiyalar iqtisodiy adabiyotda keng uchraydi¹⁵⁷.

I. Altman tomonidan taklif qilingan besh omilli Z-modelga koʻra (aylanma mablagʻlarning aktivlarning umumiy hajmidagi salmogʻi; aktivlarning rentabelligi; soliq toʻlangunga qadar boʻlgan foydaning aktivlarga nisbati; kapitalning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati; tushumning aktivlar summasiga nisbati), Z ning darajasiga bogʻliq ravishda kompaniyaning bankrot boʻlish ehtimoli aniqlanadi: Z 1.81 dan kam boʻlsa, unda, kompaniyaning bankrotlik riski 80 foizdan 100 foizgacha boʻladi; Z 1,81 dan 2,77 gacha oraliqda boʻlsa, kompaniyaning oʻrtacha bankrotlik ehtimoli 35 foizdan 50 foizgacha boʻladi; Z 2,77 dan 2,99 gacha oraliqda boʻlsa, kompaniyaning bankrotligi 15 foizdan 20 foizgacha boʻladi; Z 2,99 dan katta boʻlsa, unda, kompaniya moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi va uning yaqin ikki yil ichida bankrot boʻlish ehtimoli juda past¹⁵⁸.

Altman modeli 1968-yilda AQSH iqtisodiyoti uchun ishlab chiqilgan boʻlsa-da, dunyoning koʻplab mamlakatlarida asosiy defolt modellaridan biri sifatida amaliyotda qoʻllaniladi. Lekin, fikrimizcha, ushbu modeldan rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida foydalanishda bir qator omillarni, jumladan, moliya bozorlarining rivojlanish darajasini past ekanligini, kompaniyalarning moliyaviy holatini tashqi omillarga taʼsirchanligini hisobga olish lozim.

¹⁵⁶ Лаврушин О.И. Банковские риски. Учебник – Москва: КНОРУС, 2019. – 292 с.

¹⁵⁷ Altman E. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23(4). – P. 589–609.; Ermolova M., Penikas H. PD-LGD Correlation Study: Evidence from the Russian Corporate Bond Market//Model Assisted Statistics and Applications. – 2017. – Vol. 12(4). – P. 335–358.; Могилат А. Н. Оценка финансовой устойчивости российских промышленных компаний, или О чем говорят банкротства // Вопросы экономики. – 2019. – № 3. – С. 101–118.

¹⁵⁸ Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//Journal of Finance, 1968, September. – P. 63–69.

Ta'kidlash joizki, kichik va o'rta kompaniyalar uchun defolt bo'lish modellari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan¹⁵⁹.

A. Burova, G. Penikas va S. Popovalarning xulosasiga ko'ra, defoltni aniqlashda Bazel qo'mitasining muddati o'tgan kreditlar bo'yicha prudensial me'yorlariga mos keluvchi 90 kun va undan muddatdagi muddati o'tgan qarzdorlikni asos sifatida olgan maqsadga muvofiq bo'lib, bankrotlik defoltning 3-5 yilga kechikkan indikatori hisoblanadi¹⁶⁰.

2. Innovatsion kredit mahsulotlarini (forfeyting, kontokorrent, overdraft, revolverli kredit) kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kredit mexanizmining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

* banklar amaliyotiga joriy qilinadigan innovatsion kredit mahsulotlarining samaradorligini baholash imkonini beradigan ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish lozim;

* innovatsion kreditlarning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajalarini miqdoriy baholash tizimini shakllantirish kerak (resurslarning bahosi, makroiqtisodiy monetar indikatorlarning o'zgarishi, ssuda kapitallari bozorining stavkalarini o'zgarishi va boshq.);

* forfeyting kreditlash shaklini amaliyotga joriy qilish uchun iqtisodiyotning real sektori korxonalariga tijorat veksellari chiqarishga ruxsat berish zarur;

* overdraft kreditlari berishda kredit shartnomasiga overdraft krediti bo'yicha qarzdorlikni keyingi oyga o'tmasligini ta'minlaydigan band kiritish kerak:

¹⁵⁹ Pompe P., Bilderbeek J. The Prediction of Bankruptcy of Small- and Medium-Sized Industrial Firms//Journal of Business Venturing. – 2005. – Vol. 20(6). – P. 847–868.; Fantazzini D., Figini S. Random Survival Forests Models for SME Credit Risk Measurement//Methodology and Computing in Applied Probability. – 2009. – Vol. 11(1). – P. 29–45.; Vozzella P., Gabbi G. Default and Asset Correlation: An Empirical Study for Italian SMEs. – 2010. URL: <https://ssrn.com/abstract=1532222>.; Andrikopoulos P., Khorasgani A. Predicting Unlisted SMEs' Default: Incorporating Market Information on Accounting-Based Models for Improved//British Accounting Review. – 2018. – Vol. 50(5). – P. 559–573.; Gupta J., Barzotto M., Khorasgani A. Does Size Matter in Predicting SMEs Failure?//International Journal of Finance and Economics. – 2018. – Vol. 23(4). – P. 571–605.; Тотьянина К. Моделирование вероятности дефолта корпоративных заемщиков с учетом макроэкономической конъюнктуры//Корпоративные финансы. – 2014. – Т. 8. – № 1. – С. 18–30.; Surzhko D. Approach for Multi-Period PD Calibration for LDP Portfolios. – 2014. URL: <http://vixra.org/pdf/1404.0001v1.pdf>.

¹⁶⁰ Бурова А., Пеникас Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска//Деньги и кредит. – Москва, 2021. – № 3. – С. 49-72.

* faktoringda tovar hujjatlarini sotib olish sharti (regress huquqi bilan yoki regress huquqsiz) aniq ko'rsatilishi lozim;

* yuqori riskli innovatsion kreditlarni faqat to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan va davlat byudjeti oldida muddati o'tgan qarzdorligi bo'lmagan mijozlarga berish zarur;

* revolverli kreditlarni qayta tiklanish muddati kredit shartnomasida aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Hozirgi davrda respublikamizning xo'jalik amaliyotida tijorat veksellari muomalasi mavjud emas. Bu esa, tijorat banklariga tijorat veksellarining muomalasiga asoslangan kreditlash shakllaridan foydalanish imkonini bermaydi. Bu esa, kreditlash shakllaridan kompleks foydalanishni ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, diskont kreditlarining mavjud emasligi tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, Markaziy bankning diskont kreditlari tijorat banklarining joriy likvidliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Markaziy bankning diskont kreditlari berish amaliyoti esa, tijorat banklarining diskont kreditlari berish amaliyotiga asoslanadi. Chunki, tijorat banklari o'zlarining diskont stavkasi bo'yicha sotib olgan tijorat veksellarini Markaziy bankda qayta hisobga oldirish yo'li bilan Markaziy bankdan diskont kreditlari oladilar.

To'lovlarning maqsadli ketma-ketligi qo'llanilayotgan sharoitda kredit oluvchining davlat byudjeti oldida muddati o'tgan qarzdorligini mavjud bo'lmasligi innovatsion kredit mahsulotlaridan foydalanishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, to'lovlarning maqsadli ketma-ketligida davlat byudjeti oldidagi qarzdorlik bo'yicha to'lovni amalga oshirish bank krediti bo'yicha to'lovni amalga oshirishga qaraganda ustuvor hisoblanadi.

Sinditsiyali kreditlashni rivojlanmaganligi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Ulardan asosiylari sifatida tijorat banklarida likvidlilik muammosining mavjudligi, kredit riskining nisbatan yuqori ekanligi, to'lovlarning maqsadli ketma-ketligini qo'llanilayotganligi, sinditsiyali kreditlashni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomada metodologik xatoliklarning mavjudligi kabi sabablarni ko'rsatish mumkin.

3. Respublika tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash orqali ularning kreditlar berish imkoniyatini kengaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

* tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlarining muddatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, banklar kredit portfelining sifat ko'rsatkichlarining me'yoriy darajalariga erishish, transaksion depozitlarning kamaymaydigan qoldig'ini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yo'li bilan tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini oshirish lozim. Xalqaro bank amaliyotida muddati o'tgan kreditlarning mo'tadil darajasi sifatida ularning bank kredit quyilmalarining umumiy hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmaydigan darajasi qabul qilingan. Muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi sifatida esa, ularning bank kredit quyilmalarining umumiy hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmaydigan darajasi qabul qilingan. Shuningdek, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining yuqori me'yoriy darajasi sifatida ularning tijorat banklari aktivlarining o'rtacha summasiga nisbatan 1,0 foizli darajasi qabul qilingan;

* tijorat banklari transaksion depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini kamaytirish, sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasini ta'minlash va daromad keltiradigan yuqori likvidli aktivlarning likvidli aktivlar hajmidagi salmog'ini oshirish yo'li bilan banklar aktivlarining likvidlili va daromadlili o'rtasidagi mutanosiblik darajasini oshirish kerak.

4. Mamlakat tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish uchun, birinchidan, kredit portfelining tarmoq xususiyatiga va kreditning turlariga ko'ra diversifikatsiya qilishni ta'minlash lozim; ikkinchidan, umidsiz kreditlarni o'z vaqtida bankning balansidan chiqarish va yuqori likvidli ta'minotga ega kreditlarning kredit portfelidagi ulushini oshirish hisobidan tasniflangan kreditlarning tarkibini yaxshilash lozim; uchinchidan, kredit portfelining umumiy risk darajasi bilan umumiy daromad darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash kerak.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kredit portfelining tarmoq tarkibi bo'yicha diversifikatsiya mezonining yuqori chegarasi qilib 25% belgilangan. Respublikamiz tijorat banklarida esa, ushbu mezon qariyb ikki barobarga yuqoridir. Bu esa, banklar faoliyatidagi kredit riski darajasini pasaytirish imkonini bermaydi. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy hajmida sanoat va savdo-umumiy ovqatlanish sohasiga berilgan kreditlar nisbatan katta miqdorga ega (qarang: 3-ilova).

Aholiga beriladigan chakana kreditlarning turlari va summasini ko'paytirish tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiya qilishda muhim o'rin tutadi. Lekin respublikamiz tijorat banklariga berilgan chakana kreditlarning mutlaq asosiy qismi ipoteka krediti, iste'mol krediti va avtokreditlardan iborat (qarang: 4-ilova).

Kredit portfelining umumiy risk darajasi bilan umumiy daromad darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun, fikrimizcha, birinchidan, muammoli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ini 5 foizdan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak; ikkinchidan, kreditlarning o'sish sur'atini kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishini oldini olish kerak; uchinchidan, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasini 1,0 foizdan oshmasligiga erishish zarur.

5. Muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish yo'li bilan kreditlar va depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash kerak.

Muvozanatlashgan foiz stavkasi konsepsiyasini amalda qo'llashning birinchi fundamental muammosi shundaki, bu obyekt amalda kuzatilmaydigan obyekt hisoblanadi. Istalgan davrda haqiqatda kuzatiladigan foiz stavkasi (nominal yoki real) muvozanatlashgan stavka hisoblanadi, chunki, iqtisodiyot har bir davrda ma'lum muvozanat holatida bo'ladi. Biroq, muvozanatlashgan foiz stavkasi deganda maxsus sharoitlarda shakllanadigan ba'zi foiz stavkalari tushuniladi. Ammo, real hayotda bunday foiz stavkalarini shakllanishiga qat'iy ishonish qiyin.

Neytral/muvozanatlashgan foiz stavkasini aniqlashning standart yondashuvida muvozanatlashgan stavka mahsulotlar ishlab chiqarish va inflyatsiya

muvozanat holatida bo'lganda shakllanadi. Nomi qayd etilgan olimlarning fikricha, muvozanatlashgan stavka, moliyaviy siklning moliyaviy barqarorlikka ta'siri oqibatlarini hisobga olgan holda, faqat ishbilarmonlik sikli hisobga olingan modellarga qaraganda, yuqori bo'lishi kerak¹⁶¹.

Ikkinchi murakkablik shundaki, hatto bitta konsepsiya doirasida ham ((masalan, neokeynscha) muvozanatlashgan stavka qaysi model (ochiq yoki yopiq iqtisodiyot; moliyaviy taranglikka (siquv))ega iqtisodiyot yoki tarangliksiz iqtisodiyot) ko'rib chiqilayotganiga qarab turli darajaga ega bo'lishi mumkin¹⁶².

Ushbu konsepsiyani amaliy qo'llashning ikkinchi muammosi bo'lib, neytral stavkani baholashning qiyinligi hisoblanadi. Dallas Federal zaxira bankining boshlig'i R.Kaplan ta'kidlaganidek, pul-kredit sharoitlarining neytralligiga mos keluvchi foiz stavkasini baholash turli omillarning keng jihatlarini har tomonlama tahlil qilishni talab qiladigan fandan ko'ra, ko'proq san'atdir¹⁶³.

Respublikamiz sharoitida tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib, inflyatsiya darajasining o'zgarishi hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inflyatsiyaning yillik darajasini 2023-yildan boshlab 5,0 foizdan oshmasligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan edi. Biroq, Markaziy bank rahbariyati bu vazifani 2023-yilda bajara olmasligini rasman bildirdi.

Inflyatsiya respublikamizda ikki raqamli sondan iborat bo'lib qolar ekan, kreditlarning foiz stavkasini bir raqamli songa tushirish katta so'roq ostida qolaveradi.

¹⁶¹ Barsky R., Justiniano A. and Melosi, L. The Natural Rate of Interest and Its Usefulness for Monetary Policy. *American Economic Review*, 2014. – 104(5), – R. 37–43.; Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. *International Journal of Central Banking*, 2017. –13(3). – R. 55–89.

¹⁶²Wynne M. A. and Zhang R. Estimating the Natural Rate of Interest in an Open Economy. *Empirical Economics*, 2018. – 55(3). – R. 1291–1318.; Eggertsson, G. B. and Krugman P. Debt, Deleveraging, and the Liquidity Trap: A Fisher-Minsky-Koo Approach. *Quarterly Journal of Economics*, 2012. – 127(3). – R. 1469–1513.; Caballero R. J. and Krishnamurthy A. A Dual Liquidity Model for Emerging Markets. *American Economic Review*, 2002. – 92(2). – R. 33–37.

¹⁶³Kaplan R.S. The Neutral Rate of Interest. An Essay, 2018. Available at: <https://www.dallasfed.org//media/Documents/news/speeches/kaplan/2018/rsk181024.pdf> [accessed on 2 September 2019].

O‘z navbatida, inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘atini yuqori bo‘lishi tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan resurslarning baholarini pasaytirishga to‘sqinlik qiladi. Bunday sharoitda korxonalar milliy valyutadagi mablag‘larini inflyatsiya va devalvatsiya ta‘sirida yo‘qolgan qiymatini kompensatsiya qilish maqsadida ularni yuqori foiz stavkalarida depozitga qo‘yishga harakat qiladilar. Chunki, inflyatsiya ta‘sirida korxonalarning milliy valyutadagi pul mablag‘lari ham, milliy valyutada olgan daromadlari ham qadrsizlanadi.

6. Tijorat banklari kreditlarining samaradorligini ta‘minlash maqsadida:

* birinchidan, tijorat banklarining kreditlari va majburiyatlarining muddatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash kerak;

* ikkinchidan, tijorat banklari kredit portfelining sifat ko‘rsatkichlarining (kreditlarning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi, sof foizli spread ko‘rsatkichi) me‘yoriy darajalariga erishish zarur;

* transaksion depozitlarning kamaymaydigan qoldig‘ini yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish yo‘li bilan tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini oshirish lozim;

* tijorat banklari transaksion depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog‘ini kamaytirish, sof foizli marja ko‘rsatkichining me‘yoriy darajasini ta‘minlash va daromad keltiradigan yuqori likvidli aktivlarning likvidli aktivlar hajmidagi salmog‘ini oshirish yo‘li bilan banklar aktivlarining likvidliliigi va daromadliliigi o‘rtasidagi mutanosiblik darajasini oshirish kerak.

Xalqaro bank amaliyotida muddati o‘tgan kreditlarning mo‘tadil darajasi sifatida ularning bank kredit quyilmalarining umumiy hajmidagi salmog‘ini 3 foizdan oshmaydigan darajasi qabul qilingan. Muddati o‘tgan kreditlarning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi sifatida esa, ularning bank kredit quyilmalarining umumiy hajmidagi salmog‘ini 3 foizdan oshmaydigan darajasi qabul qilingan. Shuningdek, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining yuqori me‘yoriy darajasi sifatida ularning

tijorat banklari aktivlarining oʻrtacha summasiga nisbatan 1,0 foizli darajasi qabul qilingan.

Respublikamiz tijorat banklarida talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmogʻining yuqori ekanligi, likvidli aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmogʻi kichik boʻlgan sharoitda, banklarning likvidliligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Oʻz navbatida, talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmogʻini pasaytirish banklarda foizli marjani qisqartirishni, muddatli va jamgʻarma depozitlarga toʻlanadigan foizlarning stavkalarini barqarorligini taʼminlashni taqozo etadi.

Respublikamizning yirik tijorat banklarida sof foizli marja koʻrsatkichining nisbatan past ekanligi kuzatilmoqda. Bu esa, sof foizli daromadning tijorat banklari aktivlariga nisbatan darajasining past ekanligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlarini muddatlari oʻrtasida mutanosiblikning mavjud emasligi, aktivlarning riskka tortilgan summasining oʻsish surʼatini brutto aktivlarning oʻsish surʼatidan yuqori ekanligi respublikamiz tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan salbiy taʼsirni yuzaga keltirmoqda.

Tahlil qilingan davr mobaynida AT “Asakabank” tomonidan sof barqaror moliyalashtirish meʼyori boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan meʼyoriy talabni bajarilmaganligi AT “Asakabank”da uzoq muddatli majburiyatlarning uzoq muddatli aktivlarga nisbatan sezilarli darajada kam ekanligi bilan izohlanadi.

Talab qilib olinadigan depozitlar beqaror passiv boʻlganligi sababli ularning brutto depozitlar hajmidagi salmogʻining yuqori boʻlishi tijorat banking likvidliligini taʼminlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston Respublikasining yirik tijorat banklarida sof foizli marjaning darajasi past boʻlgani holda, depozit bazaning yetarliligi taʼminlanmagan.

7. Tijorat banklari aktivlari va majburiyatlarining tarkibini kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish va muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisobidan optimallashtirish yo'li bilan depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirish kerak.

Dissertatsion tadqiqotning uchinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, respublikamizning tijorat banklarida kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 2018-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromadlar hajmidagi salmog'ining pasayishiga sabab bo'lyapti. Bunday sharoitda kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning foizli daromadlarning umumiy hajmidagi salmog'i o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, respublikamizning yirik tijorat banklarida muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasi ta'minlanmagan. Bu esa, depozitlarning kreditli transformatsiyasini kengaytirishga to'sqinlik qiladi va kredit mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklariga transaksion depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanishga ruxsat etilganligi ularning depozit bazasini mustahkamlashga, shu jumladan, muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Agar Markaziy bank respublikamiz tijorat banklariga mijozlarning transaksion depozit hisobraqamlaridagi mablag'lardan kredit resursi sifatida foydalanishga ruxsat bermaganda edi, u holda, tijorat banklari muddatli depozit hisobraqamlariga ko'proq mablag' jalb qilishga majbur bo'lar edi.

Shuningdek, respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning sezilarli qismini qaytmaganligi ularda depozitlarning kreditli transformatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning sababi shundaki, kreditlarni muddatida qaytmasligi resurslarni to'liq tiklanishiga imkon bermaydi.

8. Tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini mustahkamlash maqsadida, birinchidan, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish kerak; ikkinchidan, banklarning depozit bazasining yetarliligini ta'minlash kerak; uchinchidan, banklar tomonidan muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini ta'minlash yo'li bilan ushbu qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining banklar majburiyatlari hajmidagi salmog'ini oshirish kerak.

Regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga qobilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Chunki, regulyativ kapital banklar faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi. O'z navbatida, tijorat banklari regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish uchun, birinchi navbatda, regulyativ kapitalning yetarliligini ta'minlash kerak; ikkinchidan, regulyativ kapitalning o'sish sur'ati bilan brutto passivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim; uchinchidan, bank qimmatli qog'ozlarining bozor bahosini oshishi hisobiga qo'shilgan kapitalning regulyativ kapital hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish lozim.

Hozirgi davrda respublikamizning tijorat banklarida regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligi ta'minlanmagan. Bu esa, tahlil qilingan davr mobaynida regulyativ kapitalning o'sish sur'ati bilan passivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlanmaganligi bilan izohlanadi. Bu esa, banklarning to'lovga qobilligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

4.3-jadval

AT "O'zsanoatqurilishbank" regulyativ kapitalining miqdori va passivlar hajmidagi salmog'i¹⁶⁴

ko'rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Regulyativ kapitalning miqdori, mlrd. so'm	2848	6246	6704	7700	7828
Regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'i, %	9,3	17,9	13,7	13,6	12,2
Passivlar — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

¹⁶⁴ Jadval muallif tomonidan AT "O'zsanoatqurilishbank"ning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

4.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, 2018-2022 yillarda AT "O'zsanoatqurilishbank" regulyativ kapitalining miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, uning passivlar hajmidagi salmog'i barqaror bo'lmagan. Buning ustiga, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'i 2020-2022 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsion tadqiqotning to'rtinchi bobini yozish natijasida bir qator xulosalarni shakllantirdik.

Dissertatsion tadqiqotni bajarish jarayonida oldingi boblarida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, respublikamizda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Ulardan asosiylari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- tijorat banklari kreditlarining daromadlilik darajasining past ekanligi va kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini yuqori ekanligi:

- kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini oshishi tijorat banklarining sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, bankning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi;

- tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishida kreditlarning ta'minoti tarkibi muhim o'rin tutadi;

- tijorat banklarida berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan kreditlar miqdorining katta ekanligi:

- tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past ekanligi:

- tijorat banklarida tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashayotganligi:

– tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning daromadlilik darajasini barqaror emasligi:

– tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining mavjudligi:

–tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi.

Fikrimizcha, kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit to‘loviga layoqatliligining asosiy jihatlarini to‘laqonli qamrab olishni ta‘minlash maqsadida amaldagi asosiy moliyaviy koeffitsiyentlar tarkibiga quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlarni kiritish lozim:

*tezkor likvidlilik koeffitsiyenti;

* muddatli likvidlilik koeffitsiyenti;

*moliyaviy marja koeffitsiyenti.

2. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit to‘loviga layoqatliligini moliyaviy koeffitsiyentlar orqali aniqlash bilan bir vaqtning o‘zida sof foydaning darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning tahlilini amalga oshirish kerak.

Bunda mahsulotlar tannarxining mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum hajmidagi salmog‘i ko‘rsatkichi va sof foydaning aktivlarga nisbatan darajasi ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni tavsiya qilamiz.

3. Innovatsion kredit mahsulotlarini (forfeyting, kontokorrent, overdraft, revolverli kredit) kreditlash amaliyotiga joriy etish yo‘li bilan kredit mexanizmining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

* banklar tomonidan yangi kredit mahsulotlarini chiqarishga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish lozim;

*innovatsion kreditlarning samaradorligini miqdoriy baholash tizimini takomillashtirish kerak (kredit mahsulotlarining miqdoriy xarakteristikalari bankning o‘z kapitali hajmi, kreditlash limitlari hajmi, qarz oluvchining to‘lov qobiliyati, shuningdek, kredit garovi hajmi bilan belgilanadi);

* chakana kreditlashni innovatsiyalar asosida rivojlantirish orqali chakana kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ini oshirish lozim.

4. Respublika tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash orqali ularning kreditlar berish imkoniyatini kengaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

* tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlarining muddatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, banklar kredit portfelining sifat ko'rsatkichlarining me'yoriy darajalariga erishish, transaksion depozitlarning kamaymaydigan qoldig'ini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yo'li bilan tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini oshirish lozim. Xalqaro bank amaliyotida muddati o'tgan kreditlarning mo'tadil darajasi sifatida ularning bank kredit quyilmalarining umumiy hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmaydigan darajasi qabul qilingan. Muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi sifatida esa, ularning bank kredit quyilmalarining umumiy hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmaydigan darajasi qabul qilingan. Shuningdek, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining yuqori me'yoriy darajasi sifatida ularning tijorat banklari aktivlarining o'rtacha summasiga nisbatan 1,0 foizli darajasi qabul qilingan;

* tijorat banklari transaksion depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini kamaytirish, sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasini ta'minlash va daromad keltiradigan yuqori likvidli aktivlarning likvidli aktivlar hajmidagi salmog'ini oshirish yo'li bilan banklar aktivlarining likvidliligi va daromadliligi o'rtasidagi mutanosiblik darajasini oshirish kerak.

5. Respublikamiz tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

– kredit portfelini shakllantirishning mavjud tarmoq xususiyatidan (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiya, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti) kelib chiqqan holda, bitta tarmoqqa beriladigan kreditlarning bankning kredit portfelidagi ulushini 15 foizdan oshib

ketmasligi Kredit siyosatida portfelning asosiy diversifikatsiya mezonini sifatida belgilab qo'yilishi kerak;

– iqtisodiyot tarmoqlarida yuzaga kelgan konyunkturaviy o'zgarishlarni hisobga olgan holda kredit portfelini diversifikatsiya darajasi bo'yicha belgilangan 15 foizli mezonga nisbatan 5 foizgacha tebranishga ruxsat berish lozim;

– har bir tarmoq vazirligi bilan ushbu tarmoq korxonalariga berilgan kreditlarning ta'minoti, kreditlarning foiz stavkalarini bir qismini qoplab berish, davlat tomonidan subsidiyalanadigan kreditlarning hajmi bo'yicha aniq kelishuv bitimini tuzish lozim;

– har bir tarmoq subyektlariga berilgan kreditlarning umumiy summasiga nisbatan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining yuqori me'yoriy chegarasini belgilab qo'yish lozim.

6. Muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish yo'li bilan kreditlar va depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash kerak.

Muvozanatlashgan foiz stavkasi konsepsiyasini amalda qo'llashning birinchi fundamental muammosi shundaki, bu obyekt amalda kuzatilmaydigan obyekt hisoblanadi. Istalgan davrda haqiqatda kuzatiladigan foiz stavkasi (nominal yoki real) muvozanatlashgan stavka hisoblanadi, chunki, iqtisodiyot har bir davrda ma'lum muvozanat holatida bo'ladi. Biroq, muvozanatlashgan foiz stavkasi deganda maxsus sharoitlarda shakllanadigan ba'zi foiz stavkalari tushuniladi. Ammo, real hayotda bunday foiz stavkalarini shakllanishiga qat'iy ishonish qiyin.

7. Tijorat banklari kreditlarining samaradorligini ta'minlash maqsadida:

* birinchidan, tijorat banklarining kreditlari va majburiyatlarining muddatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash kerak;

* ikkinchidan, tijorat banklari kredit portfelining sifat ko'rsatkichlarining (kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasi, sof foizli spread ko'rsatkichi) me'yoriy darajalariga erishish zarur;

* transaksion depozitlarning kamaymaydigan qoldig'ini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yo'li bilan tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini oshirish lozim;

* tijorat banklari transaksion depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini kamaytirish, sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasini ta'minlash va daromad keltiradigan yuqori likvidli aktivlarning likvidli aktivlar hajmidagi salmog'ini oshirish yo'li bilan banklar aktivlarining likvidliliigi va daromadliliigi o'rtasidagi mutanosiblik darajasini oshirish kerak.

8. Tijorat banklari aktivlari va majburiyatlarining tarkibini kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish va muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisobidan optimallashtirish yo'li bilan depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirish kerak.

9. Tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini mustahkamlash maqsadida, birinchidan, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish kerak; ikkinchidan, banklarning depozit bazasining yetarliligini ta'minlash kerak; uchinchidan, banklar tomonidan muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini ta'minlash yo'li bilan ushbu qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining banklar majburiyatlari hajmidagi salmog'ini oshirish kerak.

XULOSA

Dissertatsion tadqiqot ustida ishlash natijasida kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslari bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Kredit mexanizmi va uni takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili natijalari ko'rsatdiki:

– kredit mexanizmi kredit munosabatlarini amalga oshirish mexanizmi bo'lib, kredit munosabatlarining subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'zida aks ettiradi va o'zida ham ssuda kapitalining harakati maqsadlarini, ham kreditning rag'batlari va transformatsiyasini aks ettiruvchi o'zaro aloqalar va munosabatlar tizimi shaklida namoyon bo'ladi;

– kredit mexanizmining holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri kreditlarning samaradorligi ko'rsatkichi bo'lgani holda, kreditning samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimida muammoli kreditlar va kreditlarning daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, risklarni diqqat bilan kuzatish, sifatli kredit yig'ma jildini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun yaxshi ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish muhim o'rin tutadi;

– kredit riskini baholash va boshqarishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, kredit oluvchining defolt bo'lish ehtimolini baholash modellaridan foydalanish hisoblanadi va bunda Altman, Yermolova-Penikas va Mogilat modellaridan foydalanishga oid tavsiyalar iqtisodiy adabiyotda keng uchraydi.

2. Kredit mexanizmining elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash masalasini tadqiq qilish natijalari ko'rsatdiki:

– kredit shartnomasi tijorat banki bilan kredit oluvchi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi birlamchi huquqiy hujjat bo'lganligi sababli, kredit shartnomasini to'g'ri va o'zaro manfaatli qilib tuzish kredit mexanizmining samarali amal qilishining zaruriy sharti hisoblanadi;

– kredit mexanizmining asosiy elementlaridan biri kreditlash shakllari bo'lgani holda, ular kreditlardan foydalanish samaradorligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi;

– kredit oluvchilarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholash tartibi tijorat banklari va kredit oluvchilar o‘rtasidagi kredit munosabatlarining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi;

– respublikamizda to‘lovlarning maqsadli ketma-ketligini qo‘llanilayotganligi kredit olmoqchi bo‘lgan va kredit olgan mijozlarning davlat byudjeti oldidagi qarzdorligini va ushbu qarzdorlikni o‘z vaqtida to‘lay olish imkoniyatlarini baholash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

3. Kredit mexanizmining metodologik asoslarini tadqiq qilish natijalari ko‘rsatdiki:

– kreditlarning foiz stavkasini shakllanishining bozor mexanizmi milliy ssuda kapitallari bozorining to‘laqonli shakllangan bo‘lishini, ya’ni, milliy ssuda kapitallari bozorining har ikkala segmentida operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmlari takomillashgan bo‘lishi kerak.

– kreditlarning foiz stavkalarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta’minlash masalasining markaziy masalalaridan biri bo‘lib, muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish hisoblanadi;

– turli usullar bilan olingan muvozanat foiz stavkalari hisob-kitoblari juda yuqori noaniqlik bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi va ushbu holat mazkur hisob-kitoblarning pul-kredit siyosati maqsadlariga muvofiqligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

4. Taraqqiy etgan mamlakatlarning kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish borasidagi tajribasini o‘rganish va umumlashtirish natijalari ko‘rsatdiki, tadqiqot obyekti bo‘lgan transmilliy banklar (“Deutsche Bank”, “BNP Paribas Bank”) 2018-2022 yillarda kreditlar miqdorining o‘sish tendensiyasi kuzatildi; kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini pasayishi qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning salmog‘ini oshishi hisobiga yuz berdi; 1 yevroga kreditga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi tahlil davrida o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi; kreditlardan olingan foizli daromadlarning tijorat banki foizli daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i bilan kreditlarning

tijorat banki brutto aktivlari hajmidagi salmog'i o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan;

* 2018-2020-yillarda "Deutsche Bank"da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori oshish tendensiyasiga ega bo'lgan;

* 2020-2022 yillarda "Bank of America" bankida "Deutsche Bank"da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

5. Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida qo'llanilayotgan kredit riskini baholash uslubiyotlarining qiyosiy tahlili ko'rsatdiki:

* Bazel-II standartiga tavsiya etilgan kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuvga ko'ra, kredit oluvchining suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo'ladi (suveren kredit reytingi V– dan past bo'lgan davlatlarning Hukumatlariga, Markaziy banklariga, kredit tashkilotlariga va yuridik shaxslariga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng; Xalqaro reyting agentliklarining reyting bahosiga ega bo'lmagan bank mijozlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng;

* xalqaro bank amaliyotida "Standard & Poor's" xalqaro reyting agentligining kredit riskini baholash metodikasidan keng foydalanilmoqda va ushbu metodikaga ko'ra, kompaniyalarning kredit to'loviga layoqatligini baholashda kutilayotgan siklik pasayishlarni va ishbilarmonlik faolligini ko'tarilishlarini o'rganish hamda tarmoq ichidagi va butun iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni o'rganish asosiy masala hisoblanadi;

* AQSH banklaridan kredit riskini baholashda keng qo'llanilayotgan SCAP dasturiga muvofiq, berilgan kreditlar bo'yicha va bankning investitsiya portfelidagi risklar bo'yicha aniq hisob-kitoblar amalga oshiriladi, tijorat bankining eng pessimistik makroiqtisodiy ssenariy bo'yicha kapital hisobidan zararlarni qoplay olish imkoniyatiga baho beriladi va ushbu baholash kreditlarning 12 ta turi bo'yicha amalga oshiriladi;

– Yaponiyada 2000-yilda yaratilgan Risklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi (RDB) yordamida 60 dan ortiq yirik va mintaqaviy banklar 910 ming kompaniyaning kredit riski to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish imkoniga ega bo‘ladi va u kredit riskini baholash aniqligini oshirishga xizmat qiladi;

“Fintech for Asian SMEs” kompaniyasining mutaxassisleri tomonidan kredit riskini baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan ko‘p omilli regression modellar buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotlardagi ma’lumotlardan hamda kompaniyaning bankdagi hisobraqamlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish asosida kredit riskini baholash aniqligini oshirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

6. Tijorat banklari kreditlarining resurs ta’minotini shakllantirish borasidagi ilg‘or xorij tajribasining tahlili ko‘rsatdiki:

- * 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” passivlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni majburiyatlar egallagan;

- * 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” passivlarining umumiy hajmida regulyativ kapitalning salmog‘i o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

- * 2018-2022 yillarda “Bank of America” banki passivlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni majburiyatlar egallagan va tahlil qilingan davr mobaynida majburiyatlarning passivlar hajmidagi salmog‘i 89 foizdan yuqori bo‘lgan;

- * depozitlarning “Deutsche Bank” majburiyatlarining umumiy hajmidagi ulushi 2022 yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan, biroq, mazkur davrda moliyaviy majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi sezilarli darajada pasaygan;

- * “Bank of America” passivlarining asosiy qismini depozitlar va moliyaviy majburiyatlar tashkil etadi; 2018-2022 yillarda “Bank of America” banki depozitlarining umumiy hajmida nisbatan yuqori salmoqni muddatli depozitlar egallagan; 2018-2022 yillarda “Deutsche Bank” regulyativ kapitalining tarkibida eng yuqori salmoqni qo‘shilgan kapital egallagan;

* “Bank of America” bankining regulyativ kapitali hajmida eng yuqori salmoqni 2018-2022 yillarda taqsimlanmagan foyda egallagan; “Bank of America” bankining regulyativ kapitali hajmida tahlil davrida salmog‘iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni qo‘shilgan kapital egallagan; Bazel qo‘mitasi o‘zining yangi standartida tijorat banklarining birinchi darajali kapitalini ikki qismga ajratdi va uning o‘zi uchun alohida yetarlilik talabini joriy qildi.

7. Respublikamizda kredit mexanizmining amaldagi holatining tahlili ko‘rsatdiki:

– mamlakat tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida eng yuqori salmoqni 2018-2022 yillarda kreditlar egalladi;

– 2018-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarmoq tarkibida eng yuqori salmoqni sanoat korxonalariga berilgan kreditlar egallagan;

– 2018-2022 yillarda kreditlarning ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning brutto aktivlari hajmidagi salmog‘ini pasayish tendensiyaga ega bo‘lganligi ushbu davr mobaynida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi;

– 2018-2022 yillarda ATB “O‘zsanoatqurilishbank” kreditlarining daromadlilik darajasi oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

– AT “Aloqabank” kreditlarining brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i 2022 yilda 2016-yilga nisbatan sezilarli darajada pasayganligi mazkur davrda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘ini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi;

– tahlil qilingan davr mobaynida AT “Aloqabank” kreditlarining daromadlilik pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

– 2016-2022 yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi nisbatan yuqori bo‘lgan va kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 2022 yilda 2016-yilga nisbatan yuqori darajada o‘sganligi banklarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazardan salbiy holat hisoblanadi;

– tahlil qilingan davr mobaynida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yuqori bo‘lganligi mazkur davrda inflyatsiya darajasining yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi.

8. Respublikamizda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

– tijorat banklari kreditlarining daromadlilik darajasining past ekanligi va kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini yuqori ekanligi:

– kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini oshishi tijorat banklarining sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, bankning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta‘sirni yuzaga keltiradi;

– tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishida kreditlarning ta‘minoti tarkibi muhim o‘rin tutadi;

– tijorat banklarida berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan kreditlar miqdorining katta ekanligi:

– tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past ekanligi:

– tijorat banklarida tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashayotganligi:

– tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning daromadlilik darajasini barqaror emasligi:

– tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining mavjudligi:

– tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi.

Kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy va metodologik natijalarga erishildi:

1. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholashning takomillashgan tartibi ishlab chiqildi;

2. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit to‘loviga layoqatliligini moliyaviy koeffitsiyentlar orqali aniqlash bilan bir

vaqtning o'zida sof foydaning darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning tahlilini amalga oshirishning zarurligi asoslab berildi;

3. Innovatsion kredit mahsulotlarini (forfeyting, kontokorrent, overdraft, revolverli kredit) kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kredit mexanizmining samaradorligini oshirish yo'llari taklif qilindi;

4. Respublika tijorat banklarining likvidligini ta'minlash orqali ularning kreditlar berish imkoniyatini kengaytirish imkoniyatlari asoslab berildi;

5. Respublikamiz tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish yo'nalishlari taklif qilindi;

6. Muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish yo'li bilan kreditlar va depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashning maqsadga muvofiqligi asoslab berildi;

7. Tijorat banklari kreditlarining samaradorligini ta'minlash yo'llari taklif qilindi;

8. Tijorat banklari aktivlari va majburiyatlarining tarkibini kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish va muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisobidan optimallashtirish yo'li bilan depozitlarning kreditli transformatsiyasini takomillashtirish taklif qilindi;

9. Tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini mustahkamlash maqsadida, birinchidan, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish kerak; ikkinchidan, banklarning depozit bazasining yetarliligini ta'minlash kerak; uchinchidan, banklar tomonidan muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini ta'minlash yo'li bilan ushbu qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining banklar majburiyatlari hajmidagi salmog'ini oshirishligi asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: 03/19/582/4014-son. 12.11.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (yangi tahriri)//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: 03/19/580/3994-son. 06.11.2019 y.

3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Lizing to‘g‘risida// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 108-modda; 2003-y., 1-son, 8-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 52-son, 533-modda; 2016-y., 52-son, 598-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019 y., 03/19/572/3943-son; 15.01.2020 y., 03/20/602/0052-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.

4. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Garov reestri to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2013. – № 43. – 570-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda PQ-55-sonli «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021 y., 07/21/55/1173-son; 30.04.2022 y., 07/22/232/0378-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4862-sonli “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 y., 07/20/4862/1385-son; 27.03.2021 y., 07/21/5041/0244-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2021 y., 06/21/6258/0651-son, 21.12.2021 y., 07/21/55/1173-son; 01.04.2022 y., 06/22/95/0267-son; 31.01.2023-y., 07/23/39/0060-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. — №48. – 4-6-b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. — №28. – 22-33-b.

9. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki. Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida nizom (Yangi tahriri)//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 34-36-son, 265-modda; 2010-y., 44-45-son, 399-modda; 2016-y., 49-son, 564-modda.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2003-yil 11-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 24-yanvarda 1304-sonli raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) «Foizlarni o‘stirmaslik to‘g‘risida»gi nizom. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. — 632-652 b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 21-sentyabrdagi 21/12-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Bir qarz oluvchi, o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori to‘g‘risida»gi nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 29-oktyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3283//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,

29.10.2020 y., 10/20/3283/1470-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) «Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. — №32. – 141-152-b.

13. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. – Basel, 1998. <http://www.bis.org.publications>.

14. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

15. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. <http://www.bis.org.publications>.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

16. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари шароитида тижорат банкларнинг кредит портфелини диверсификациялаш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2000.-736 б.

17. Бурова А., Пеникас Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска//Деньги и кредит. – Москва, 2021. – № 3. – С. 49-72.

18. Вайн С. Оптимизация ресурсов современного банка. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – 194 с.

19. Валенцева Н.И. Ценообразование на рынке банковских услуг//Банковское дело. – Москва, 2013. – №11. – С. 37-41.

20. Иминов О.К. Ўзбекистон Республикаси кредит тизимини ривожлантириш йўллари. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 38 б.

21. Костерина Т.М. Банковский кредитный механизм: основные тенденции развития // Вестник ТвГУ. Серия «Экономика и управление». 2014. № 23. С. 191–196.
22. Кабушкин, С. Н. Управление банковским кредитным риском. - Минск : Новое знание, 2007. – с. 224.
23. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования. - М.: КНОРУС, 2008. – 264с.
24. Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – С.11-16.
25. Лаврушин О.И. Банковские риски. Учебник – Москва: КНОРУС, 2019. – 292 с.
26. Могилат А. Н. Оценка финансовой устойчивости российских промышленных компаний, или О чем говорят банкротства // Вопросы экономики. – 2019. – № 3. – С. 101–118.
27. Матвеевский С.С. Опыт Японии по использованию аналитики больших данных для снижения кредитного риска при финансировании малых и средних предприятий//Вестник университета. – Москва, 2019. - №10. – С. 182-187.
28. Роднина А.Ю. К вопросу о взаимосвязи кредита как кругооборотного процесса со структурно-функциональным подходом к определению кредитного механизма//Многоуровневое общественное воспроизводство: вопросы теории и практики. 2013. № 5. С. 237–247.
29. Соколинская Н.Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях//Банковское дело. – Москва, 1999. - №9. – С. 18-19.
30. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.:Альпина Паблишер, 2017. – С. 485 - 486.
31. Стешина М.О., Михайлова Н.А. Совершенствование международных принципов управления банковскими

рисками//Международные банковские операции. 2008. № 4. туп из справ.-правовой системы «Гарант»: www.garant.ru (дата обращения 15.02.2009).

32. Тотмянина К. Моделирование вероятности дефолта корпоративных заемщиков с учетом макроэкономической конъюнктуры//Корпоративные финансы. – 2014. – Т. 8. – № 1. – С. 18–30.

33. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – 328с.

34. Шкарупа Е.А. Роль кредитного механизма функционирования финансово-кредитной инфраструктуры в расширении предпринимательского потенциала населения (на примере сельскохозяйственных товаропроизводителей)//Современные проблемы науки и образования. 2014. № 5. URL: <http://science-education.ru/119-15255> (дата обращения: 20.03.2017).

35. Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//Journal of Finance, 1968, September. – P. 63–69.

36. Andrikopoulos P., Khorasgani A. Predicting Unlisted SMEs' Default: Incorporating Market Information on Accounting-Based Models for Improved//British Accounting Review. – 2018. – Vol. 50(5). – R. 559–573.

Beyer R. C. M. and Wieland V. (2019). Instability, Imprecision and Inconsistent Use of Equilibrium Real Interest Rate Estimates. Journal of International Money and Finance, 2019. – 94. – R. 1–14.

37. Acharya V., Steffen S. The Risk of Being a Fallen Angel and the Corporate Dash for Cash in the Midst of COVID // Review of Corporate Finance Studies. – 2020. – Vol. 9(3). – pp. 430–471. doi: 10.1093/rcfs/cfaa013.

38. Blanchard O., Furceri D. and Pescatori A. A Prolonged Period of Low Real Interest Rates? In: C. Teulings and R. Baldwin, eds., Secular Stagnation: Facts, Causes and Cures., 2014. – London: CEPR Press. – R. 101–110.

39. Büyükkarabacak B., Krause S. Studying the Effects of Household and Firm Credit on the Trade Balance: The Composition of Funds Matters // Economic Inquiry. – 2009. – Vol. 47(4). – pp. 653–666. doi: 10.1111/j.1465-7295.2008.00173.x.;

40. Gupta J., Barzotto M., Khorasgani A. Does Size Matter in Predicting SMEs Failure?//International Journal of Finance and Economics. – 2018. – Vol. 23(4). – R. 571–605.
41. Grafe C., Grut S. and Rigon L. Neutral Interest Rates in CEEMEA – Moving in Tandem with Global Factors. Russian Journal of Money and Finance, 2018. – N 77(1). – R. 6–25.
42. Giammarioli N. and Valla N. The Natural Real Interest Rate and Monetary Policy: A Review. Journal of Policy Modelling, 2004. – 26(5). – R. 641–660.
43. Ermolova M., Penikas H. PD-LGD Correlation Study: Evidence from the Russian Corporate Bond Market//Model Assisted Statistics and Applications. – 2017. – Vol. 12(4). – R. 335–358.
44. Vozzella P., Gabbi G. Default and Asset Correlation: An Empirical Study for Italian SMEs. – 2010. URL: <https://ssrn.com/abstract=1532222>.
45. Kocherlakota, N. The Equity Premium: It's Still a Puzzle. Journal of Economic Literature, 1996. – 34. – R. 42–71.
46. Léon F. Convergence of Credit Structure around the World // Economic Modelling. – 2018. – Vol. 68. – pp. 306–317. doi: 10.1016/j.econmod.2017.07.021.
47. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 – 1726.
48. Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. International Journal of Central Banking, 2017. – 13(3). – R. 55 — 89.
49. Hamilton J., Harris E., Hatzius J. and West K. The Equilibrium Real Funds Rate: Past, Present and Future. IMF Economic Review, 2016. – 64(4). – R. 660–707.
50. Kaplan R.S. The Neutral Rate of Interest. An Essay, 2018. Available at: <https://www.dallasfed.org//media/Documents/news/speeches/kaplan/2018/rsk181024.pdf> [accessed on 2 September 2019].

51. Pompe P., Bilderbeek J. The Prediction of Bankruptcy of Small- and Medium-Sized Industrial Firms//Journal of Business Venturing. – 2005. – Vol. 20(6). – R. 847–868.

52. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.

53. Laubach T. and Williams J. (2003). Measuring the Natural Rate of Interest. Review of Economics and Statistics, 2003. – 85(4). – R. 1063–1070.

54. Lundvall H. and Westermarck A. (2011). What Is the Natural Interest Rate? Sveriges Riksbank Economic Review, 2011. – 2. – R. 7–26.

55. Penikas H. History of the Basel Internal-Ratings-Based (IRB) Credit Risk Regulation // Model Assisted Statistics and Applications. – 2020a. – Vol. 15(1). – pp. 81–98. doi: 10.3233/MAS-190480.;

56. Fantazzini D., Figini S. Random Survival Forests Models for SME Credit Risk Measurement//Methodology and Computing in Applied Probability. – 2009. – Vol. 11(1). – R. 29–45.

57. Tasche D. Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios//Journal of Risk Management in Financial Institutions. – 2013. – Vol. 6(3). – pp. 302–326.

58. Surzhko D. Approach for Multi-Period PD Calibration for LDP Portfolios. – 2014. URL: <http://vixra.org/pdf/1404.0001v1.pdf>.

59. Wei L., Yuan Z. The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion//Insurance: Mathematics and Economics. – 2016. – Vol. 66. – pp. 113 -123.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

60. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2018 – 61 б.

61. Бровкина Н.Е. Организация отдельных видов кредита. Банковское дело. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.
62. Бобрик М.А. О повышении роли кредита и банков в инновационном развитии экономики России//Финансы и кредит. – 2011. – № 4. – С. 69–71.
63. Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлилиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 73 б.
64. Валенцева Н.И., Ларионова И.В. Оценка финансовой устойчивости и перспектив деятельности кредитных организаций. Учебное пособие. –М.: КНОРУС, 2018. – 242 с.
65. Гадоев С.Ж. Тижорат банклариди ликвидлиги ва рискни бошқаришни такомиллаштириш.И.ф.б.ф.д. дисс. автореф. – 47 б.
66. Исмаилов А.А. Ўзбекистон Республикаси пул тизимини мустақамлашнинг назарий-услугий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 81 б.
67. Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 79 б.
68. Каримов Н.Г. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш муаммолари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 40 б.
69. Кремер, Н. Ш., Путко, Б. А. Эконометрика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 328 с.
70. Ковалев П.П. Успешный инвестиционный проект: риски, проблемы и решения. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – 432 с.
71. Кудрин А. Инфляция: российские и мировые тенденции // Вопросы экономики. – Москва, 2007. - №10. – С. 4 - 26.

72. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак.- Тошкент:Ўзбекистон, 2017.- 104 б.

73. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – 880с.

74. Мажидов Ж.К. Тижорат банклари активлар портфелини шакллантиришнинг сифатини оширишнинг долзарб масалалари//Халқаро молия ва ҳисоб. – Тошкент, 2017. – №1, февраль.

75. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2008.– 35 б.

76. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – 464 с.

77. Половян А.В., Сеницына К.И. Р2Р-кредитование как новая форма финансирования деятельности в условиях новой индустриализации//Региональные и муниципальные финансы: приоритетные направления развития: сб. науч. тр. Саратов: ССЭИ (филиал) РЭУ им. Г.В. Плеханова, 2018. С. 205–209.

78. Саттаров О.Б. Ўзбекистон Республикаси банк тизими барқарорлигини таъминлаш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 70 б.

79. Эскиндаров М.А., Звонова Е.А. Международный кредит. – М.: КНОРУС, 2019. – С. 285-291.; Панова Г.С. Синдицированное кредитование. Банковское дело. Учебник. – 12-ое изд. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2016. – С. 440-446.

80. Albertazzi U., Fringuellotti F., Ongena S. Fixed rate versus adjustable rate mortgages: evidence from euro area banks/ECB. Working Paper Series. October 2019. No. 2322.

81. Brouwer G. de, Evicsson N.R. Modeling Inflation in Australia. Journal of Business and Economic Statistics. 1998. Vol. 16. – R. 24 – 29.

82. Barsky R., Justiniano A. and Melosi, L. The Natural Rate of Interest and Its Usefulness for Monetary Policy. *American Economic Review*, 2014. – 104(5), – R. 37–43.
83. Berger A. N., Demirgüç-Kunt A. Banking Research in the Time of COVID-19//*Journal of Financial Stability*. – 2021. – Vol. 57. – Article 100939. doi: 10.1016/j.jfs.2021.100939.
84. Derbali A. The credit portfolio management by the econometric models: A theoretical analysis//<https://hal.science/hal-01696010/document>.
85. Eggertsson, G. B. and Krugman P. Debt, Deleveraging, and the Liquidity Trap: A Fisher-Minsky-Koo Approach. *Quarterly Journal of Economics*, 2012. – 127(3). – R. 1469–1513.
86. Frederic S. Mishkin and Klaus SchmidtHebbel, *Monetary Policy Under Inflation Targeting* (Central Bank of Chile: Santiago 2007), pp. 291-372.
87. Juselius M., Borio C., Disyatat P. and Drehmann M. Monetary Policy, the Financial Cycle, and Ultra-Low Interest Rates. *International Journal of Central Banking*, 2017. –13(3). – R. 55–89.
88. Lozinskaia A., Merikas A., Merika A., Penikas H. Determinants of the Probability of Default: The Case of the Internationally Listed Shipping Corporations // *Maritime Policy and Management*. – 2017. – Vol. 44(7). – pp. 837–858. doi: 10.1080/03088839.2017.1345018.
89. Khan M. Senhadji. Thershild Effects in the Relatioinshop between Inflation and Growth // *IMF Staff Papers*. 2001. Vol. 48. — P.1-21.
90. Masson P., Savastano M., Sharma C. The Scope for inflation Targeting in Developing Countries. – Washington: IMF Working Paper, 1997/130.
91. He D., Wang H. and Yu X. Interest Rate Determination in China: Past, Present and Future. *International Journal of Central Banking*, 2015. – 11(4). – R. 255–277.
92. Rey H. Dilemma not Trilemma: The Global Financial Cycle and Monetary Policy Independence. NBER Working Paper, 2018. – N 21162. – R. 1-42.

93. Guo, J.-T. and Janko, Z. (2009). Reexamination of Real Business Cycles in a Small Open Economy. *Southern Economic Journal*, 2009. – 76(1). – R. 165–182.
94. Singh D. Banking regulation of UK and US financial markets. Ash gate Publishing, Ltd., 2007, R. 31–33.
95. The Supervisory Capital Assessment Program: Design and Implementation. Board of Governors of the Federal Reserve System, April 2009//www.federalreserve.gov.
96. Caballero R. J. and Krishnamurthy A. A Dual Liquidity Model for Emerging Markets. *American Economic Review*, 2002. – 92(2). – R. 33–37.
97. Mendoza E. Real Business Cycles in a Small Open Economy. *American Economic Review*, 1991. – 81(4). – R. 797–818.
98. Wynne M. A. and Zhang R. Estimating the Natural Rate of Interest in an Open Economy. *Empirical Economics*, 2018. – 55(3). – R. 1291–1318.
99. Deutsche Bank. Concolidated Balance Sheet. Annual Report. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.db.com.
100. Deutsche Bank. Concolidated Statement of income. Annual Report. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.db.com.
101. Bank of America. Concolidated Balance Sheet. Annual Report. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.bankofamerica.com.
102. Bank of America. Concolidated Statement of income. Annual Report. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.bankofamerica.com.
103. AT “Asakabank”. Balans hisoboti. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.asakabank.uz
104. AT “Asakabank”. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.asakabank.uz.
105. ATB “O‘zsanoatqurilishbank”. Balans hisoboti. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.sqb.uz.
106. ATB “O‘zsanoatqurilishbank”. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot. 2018, 2019, 2020, 2021, 2022//www.sqb.uz.

107. Assessing Global Macro-Credit Risks// SPGlobal.com/ratings.
108. The Supervisory Capital Assessment Program: Design and Implementation. Board of Governors of the Federal Reserve System, April 2009//www.federalreserve.gov.
109. Asian Development Bank. 2014. Asia SME Finance Monitor 2013. – Manila, 2014//http://www.adb.org/ (data obraчeniya: 22.08.2019).
110. Fintech for Asian SMEs. Edited by Naoko Nemoto and Naoyuki Yoshino. – Asian Development Bank Institute – 2019. – 195 p.
111. Mortgage arrears, regulation and institutions: Cross-country evidence//Journal of Banking & Finance Volume 118, September 2020, 105889.
112. Преодоление энергетического кризиса в Европе// Финансы и развитие, декабрь 2022года. www.imf.org.
113. Российская экономика в 2022 году. Тенденции и перспективы. (Вып. 44) / [Под науч. ред. д-ра экон. наук Кудрина А.Л., д-ра экон. наук Мау В.А., д-ра экон. наук Радыгина А.Д., д-ра экон. наук Синельникова-Мурылева С.Г.]; Институт Гайдара. – Москва: Изд-во Института Гайдара, 2023. – 556 с.
114. Bank sohasida strategiya ijrosi va transformatsiya jarayoni//https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoev-boshchiligida-utgan-yi-ilishda-bank-so-asida-strategiya-ijrosi-va-transf.
115. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobot//www.cbu.uz.
116. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobot//www.cbu.uz.
117. Tijorat banklarining jamlanma balansi//www.cbu.uz. (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
118. Tijorat banklarining kreditlari//www.cbu.uz. (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
119. Korxon va tashkilotlarning debitor qarzdorligi//http:stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi).
120. www.db.com – Deutsche Bank (Germaniya).

121. www.vankofamerisa.com – Bank of America (AQSH).
122. www.cbu.uz. – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
123. www.uzpsb.uz – ATB “O‘zsanoatqurilishbank”
124. www.asaka.uz – AT “Asakabank”
125. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.
126. www.imf.org – Xalqaro valyuta fondi
127. www.world.com – Jahon banki guruhi